ISO 21001:2018 standarti ta’lim tashkilotlarining strategik boshqaruvi, ta’lim oluvchilar manfaatlarini himoya qilish, manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ta’lim xizmatlari sifatini baholash va uzluksiz takomillashtirish tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Standart talablari ta’lim muassasalari faoliyatini tizimli boshqarish, pedagoglar kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish va ta’lim xizmatlari iste’molchilarining qoniqish darajasini oshirishga qaratilgandir [2].

ISO 21001:2018 ni amaliyotga joriy etish ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarining aniq me’yorlar asosida shakllanishi, ichki audit tizimining kuchayishi, raqamli monitoring vositalarining joriy etilishi hamda ta’lim sifatini

ISSN 3030-3907

boshqarishning ilg‘or xalqaro tajribalarini milliy sharoitga moslashtirish imkonini bermoqda. Ushbu maqolada mazkur standartni tatbiq etish natijalari tahlil qilinadi, mavjud yutuqlar va takomillashtirish istiqbollari yoritiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot vazifalarni yechishda tizimli taxlillash metodlari, jarayonli yondashuv, SWOT-tahlillash, xavfga yo‘naltirilgan tafakkur, jarayonlarni statistik boshqarish, sifatining takomilllashtirish modellaridan foydalanilgan.

Tadqiqot tahlili va natijalari

Maqolada ISO 21001:2018 standartini joriy etish natijalari tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqsad — ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini standart talablari asosida joriy etish orqali ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi va manfaatdor tomonlar qoniqishida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni aniq ko‘rsatkichlar bilan isbotlashdir. Yondashuv PDCA (rejalashtirish–amalga oshirish–tekshirish–takomillashtirish) sikliga tayanadi hamda jarayonli yondashuv, xavfga asoslangan fikrlash va dalillarga tayangan qarorlar tamoyillarini amaliyotga singdiradi [4].

Natijalar bazaviy holat (joriy etishdan avvalgi ko‘rsatkichlar) va intervensiya davri (joriy etilgandan keyingi ko‘rsatkichlar) bo‘yicha oldingi va keyingi holat taqqoslash usulida bayon etiladi [5-7]. Baholash uchun strategik va faoliyat ko‘rsatkichlar majmuasi qo‘llanadi: o‘quv jarayoni (dars intizomi, kursni yakunlash, talabalar qoniqishi), mehnat bozori bilan uyg‘unlik (ishga joylashish, ish beruvchi fikri), kadrlar va yetakchilik (malaka oshirish, almashinuvi), resurs va moliya (budjet ijrosi, auditoriya fondidan foydalanish), raqamli jarayonlar (platforma barqarorligi, foydalanuvchi faolligi), muvofiqlik–audit (nomuvofiqliklar, tuzatish choralarining yopilish vaqti) kabi yo‘nalishlar qamrab olindi.

1-jadval

Ta’lim tashkilotining ISO 21001:2018 joriy etishdan oldingi va joriy etilgandan keyingi holatning qiyosiy tahlili

№	Ko‘rsatkich nomi	Oldingi holat	Keyingi holat	Maqsad	Δ (ta’sir, o‘zgarish)
1	Sifat maqsadlarini bajarish darajasi, %	65–70	88–92	≥90	+10–15
2	Manfaatdor tomonlar qoniqish indeksi, %	70–75	82–87	≥85	+10–12
3	Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi, %	58–62	68–74	≥70	+8–12
4	Bitiruv darajasi, %	78–82	85–89	≥87	+5–9
5	Saqlanish (1–2 kursga o‘tish) darajasi, %	83–85	88–91	≥90	+4–6

ISSN 3030-3907

6	Innovatsion faoliyat ulushi, %	35–40	55–65	≥60	+20–25
7	Ish beruvchilar qoniqishi indeksi, %	72–77	82–87	≥85	+8–10
8	Ilmiy mahsuldorlik (maqola, monografiya, iqtibos/oqit.)	0.9–1.1	1.3–1.5	≥1.4	+0.3–0.5
9	Grant mablag‘lari hajmi, mln so‘m/yil	150–200	250–300	≥300	+50–100
10	Dars o‘tkazilish intizomi, %	92–95	97–99	≥98	+3–5
11	Kursni muvaffaqiyatli yakunlash, %	76–80	83–88	≥85	+5–8
12	O‘quv dasturlarini yangilash sikliga rioya, %	60–65	85–90	≥88	+20–25
13	Talabalar qoniqishi indeksi, %	74–78	83–87	≥85	+7–10
14	O‘quv natijalari o‘sish sur’ati, %	+3–4	+7–9	≥+8	+3–5
15	O‘qituvchilar malaka oshirish soatlari, soat/yil	28–32	42–48	≥45	+14–16
16	Kadrlar almashinuvi, %	10–12	7–9	≤8	−3–5
17	Bo‘sh lavozimlarni to‘ldirish vaqti, kun	35–40	25–30	≤28	−8–12
18	Rahbarlik samaradorligi indeksi, %	70–75	82–86	≥85	+10–12
19	Murojaatlarni yechish samaradorligi, %	72–78	85–92	≥90	+12–15
20	Budjet ijrosi (reja-fakt tafovuti), %	−5…−3	−2…0	≤0	+3–5 yaxshilanish
21	Talaba boshiga xarajat, so‘m	6.5–7.0 mln	7.2–7.8 mln	—	+10%
22	Auditoriya fondidan foydalanish, %	65–70	80–85	≥82	+12–15
23	Texnik vositalar nosozlik darajasi, %	9–11	4–6	≤5	−5–6


ISSN 3030-3907

24	Raqamli platformalar ishga yaroqlilik darajasi, %	97.0–97.5	98.5–99.2	≥98.8	+1–1.5
25	Raqamli faollik (LMS foydalanuvchilari), %	50–55	68–75	≥70	+15–20
26	Ma’lumotlar sifati indeksi, %	78–82	88–93	≥90	+8–12
27	Auditda aniqlangan nomuvofiqliklar, dona	50–54	10–13	≤10	−40–41
28	Tuzatish choralari yopilish vaqti, kun	28–32	14–20	≤18	−10–15
29	O‘z-o‘zini baholash natijalari, %	73–77	84–88	≥85	+9–11
30	Amaliyot / stajyorlik qamrovi, %	58–62	72–78	≥75	+12–16
31	Sanoat hamkorlik loyihalari, dona/yil	7–9	12–15	≥13	+4–6
32	Jamiyat va ota-onalar bilan hamkorlik loyihalari, dona	8–10	13–16	≥15	+4–6

Yuqoridagi 1-jadval bo‘yicha natijalar jarayonli yondashuv, xavfga asoslangan tafakur va PDCA sikli asosida talqin qilindi. Ko‘rsatkichlar “oldigi holat → joriy etishdan keyingi holat → maqsad → o‘zgarish” formatida berilgani sababli, har bir blokda o‘sish dinamikasi, og‘ishlar sabablari va kutilayotgan boshqaruv ta’sirini izchil ko‘rish mumkin. Umuman, natijalar TTMT joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan institutsional transformatsiyani tasdiqlaydi: strategik ko‘rsatkichlarda barqaror o‘sish, ta’lim jarayonida shaffof baholash va raqamli monitoringning kuchayishi, kadrlar siyosatida barqarorlik hamda muvofiqlik-audit konturida tezkorlik ortishi kuzatiladi.


Strategik blokda bitiruv darajasi va saqlanish ko‘rsatkichlarining +4–9 atrofida ko‘tarilishi o‘quv jarayonining barqarorlashganini bildiradi; ishga joylashish va ish beruvchilar qoniqishi +6–12 diapazonida yaxshilanishi esa o‘quv dasturlarining mehnat bozori kompetensiyalari bilan relevanti oshganini ko‘rsatadi (1-rasm). Ilmiy mahsuldorlik hamda grant oqimi o‘sishi (±0.3–0.6 birlik; +50–100 mln so‘m) TTMT doirasida innovatsion faoliyat va tashqi hamkorlik mexanizmlarining samara berganini anglatadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Strategik natijalarga erishish

Ta’lim sifati bo‘yicha dars intizomi 97–99% koridoriga chiqishi, kursni muvaffaqiyatli yakunlash va talabalar qoniqishi ko‘tarilishi rubrikalar, ochiq mezonlar va o‘z vaqtida qayta aloqa berish amaliyoti natijasidir. O‘quv dasturlarini yangilashning 80–90% ga yetishi, natijalar o‘sish sur’atining +7–9% diapazonida bo‘lishi — o‘quv mazmuni va metodik yondashuvlar adaptiv boshqarilayotganini ko‘rsatadi (2-rasm).




2-rasm. Ta’lim sifati va o‘quv jarayoni natijaviyligi

Kadrlar rivoji va yetakchilik blokida malaka oshirish 40+ soat/yilga chiqishi, almashinuvi pasayishi va rahbarlik indeksining +8–12 ko‘tarilishi jarayonlar (kompetensiya profillari, rejalashtirilgan rivojlanish, kalibrlash) institutsional darajada pasportlashtirilganini ifodalaydi. Bo‘sh lavozimlarni to‘ldirish vaqti 25–

ISSN 3030-3907

30 kunga tushishi resurslar rejalashtiruvi va ichki kommunikatsiya tezkorligining oshganidan dalolat beradi (3-rasm).




3-rasm. Sifat menejmenti tizimlarining samaradorligi

Resurs va moliya bo‘yicha reja–fakt tafovutining qisqarishi (−2…0%), auditoriya fondidan foydalanishning 80%+ ga ko‘tarilishi hamda texnik nosozliklar ulushining yarmiga kamayishi resurslarni jarayon xaritalari asosida qayta taqsimlash va profilaktik xizmat ko‘rsatishning tizimlashtirilganini ko‘rsatadi. Talaba boshiga xarajatning oshishi strukturaviy optimallashtirish bilan birga borib, natija-kapital qo‘shilmasini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli jarayonlar va ma’lumot sifati ko‘rsatkichlarida platforma ishga yaroqliligi 98.5–99.2% darajasiga chiqishi, raqamli faolligi 65–75% ga ko‘tarilishi va ma’lumot sifati indeksining 90% atrofida barqarorlashishi raqamli boshqaruvning operatsion yetuklik darajasini bildiradi. Bu boshqaruv qarorlarining daliliy bazasini mustahkamlab, hisobotlarning ishonchliligini oshiradi.

Muvofiqlik va audit blokida nomuvofiqliklar soni ikki baravar kamayishi, tuzatish choralari yopilish vaqti 14–20 kunga tushishi, o‘z-o‘zini baholash natijalarining 85%+ diapazoniga chiqishi audit–monitoring–takomillashtirishning yopiq boshqaruv konturida ishlayotganini tasdiqlaydi. Bu, o‘z navbatida, rahbariyat tahlilida KPI–xavf reyestri–choralar reyestri uchligini integratsiyalash imkonini beradi (4-rasm).

ISSN 3030-3907



4-rasm. Ichki audit natijalari

Hamkorlik va amaliyot ko‘rsatkichlarida stajyorlik qamrovi hamda qo‘shma loyihalar sonining o‘sishi ta’limning tashqi ekotizim bilan chuqur integratsiyalashuvini anglatadi; bu bitiruvchilar kompetensiyalarining bozorga mosligi va ijtimoiy ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Talqinda e’tiborli cheklovlar ham bor: tashqi mehnat bozori tebranishlari, budjet sikllari va talabalar oqimidagi o‘zgarishlar ayrim metrikalarda variatsiya keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois indikatorlar yashil–sariq–qizil chegaralari orqali doimiy kuzatilib, sariq zonada profilaktika, qizilda esa ildiz sabab tahlili (5 M nima uchun, “baliq suyagi”) bilan tuzatish choralar tezkor ishga tushiriladi. Keyingi sikl uchun ko‘rsatkichlar “pasportlari” hamda vizual boshqaruv yangilanib, fakultetlar kesimida eng yaxshi amaliyotlar transferi yo‘lga qo‘yiladi.

Jadvalda keltirilgan ehtimoliy natijalar ISO 21001:2018 ni joriy etish ta’lim tashkilotida hisobdorlikni, shaffoflikni va natijadorlikni tizimli ravishda kuchaytirishini ko‘rsatadi; ko‘rsatkichlar bo‘yicha kutilayotgan o‘sishlar strategik maqsadlarga erishishning o‘lchovli isboti bo‘lib xizmat qiladi [8].

So‘rovnoma ma’lumotlari bir nechta mustaqil manbalardan yig‘ildi: so‘rovnomalar (talaba, o‘qituvchi, ish beruvchi), baholash rubrikalari (o‘quv natijalari), audit chek-ro‘yxatlari (muvofiqlik), hamda raqamli tizimlar va moliyaviy hisobotlar (2-jadval). U 21001:2018 talablariga mos holda ta’lim tashkiloti boshqaruv tizimi samaradorligini baholash uchun kompleks indikator tizimini o‘z ichiga oladi. Axloqiy me’yorlar — rozilik, anonimlik va ma’lumotlarni himoya qilish — qat’iy ta’minlandi.

2-jadval

So‘zovnoma natijalari

Blok	Ko‘rsatkichlar mazmuni	Oldingi holat	Keyingi holat	O‘sish	Natija

ISSN 3030-3907

A. O‘qitish sifati va o‘quv jarayoni	O‘qituvchi tushuntirishi, dars jadvali, rubrikalar, talabalar faolligi, natijaga erishish	3.8–4.0	4.4–4.6	+0.6	O‘qitish metodikasi yaxshilandi, talabalar ishtiroki ortdi
B. O‘quv dasturi va mazmun dolzarbligi	Dastur mehnat bozori talablariga mosligi, materiallarni yangilash, amaliy mashg‘ulotlar	3.7–4.0	4.3–4.5	+0.5	Dastur va mehnat bozori integratsiyasi kuchaydi
C. Raqamli jarayonlar va ma’lumot sifati	LMS barqarorligi, onlayn resurslar mavjudligi, ma’lumot xavfsizligi	3.9–4.2	4.5–4.7	+0.5	Raqamli infratuzilma barqarorlashadi, foydalanuvchi ishonchi oshdi
D. Infratuzilma va xizmatlar	Auditoriya, kutubxona, ma’muriy xizmatlar sifati	3.6–3.9	4.2–4.5	+0.6	Ta’lim muhiti va xizmatlar sifati yaxshilandi
E. Boshqaruv ochiqligi va muloqot	Rahbariyat bilan muloqot, axborot almashinuvi, shikoyat tizimi	3.5–3.8	4.3–4.5	+0.7	Shaffoflik va ishonch muhitini mustahkamlandi
F. Umumiy qoniqish	Umumiy sifat, tavsiya qilish darajasi, obro‘	3.9–4.1	4.6–4.8	+0.7	Ta’lim muassasasining ijobiy imiji kuchaydi

Yuqoridagi jadvalda ta’lim tashkilotining ISO 21001:2018 standarti talablariga muvofiq joriy etilgan boshqaruv tizimi samaradorligini baholash natijalarining o‘zgarishlari keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tizimni joriy etish ta’lim sifati, boshqaruv madaniyati va manfaatdor tomonlar qoniqishining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Umuman olganda, barcha

ISSN 3030-3907

yo‘nalishlarda o‘rtacha 0,5–0,7 ball miqdorida ijobiy o‘sish kuzatilgan bo‘lib, bu ISO 21001 standarti tamoyillarining amaliy samarasini ifodalaydi.

3.2-jadvalda keltirilgan natijalar ISO 21001 standarti asosida tashkilot faoliyatida sifat menejmenti, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlar, shaffoflik va raqamli boshqaruvning yangi bosqichga chiqqanini ko‘rsatadi. Tizimni joriy etish orqali ta’lim jarayonida uzluksiz takomillashtirish, dalillarga asoslangan boshqaruv va foydalanuvchi ehtiyojlariga yo‘naltirilganlik tamoyillari barqaror ravishda shakllanadi. Natijada ta’lim tashkiloti xalqaro talablarga mos, raqobatbardosh va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimiga ega bo‘ladi.

Uch marotaba o‘tkazilgan ichki audit natijalari ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimining bosqichma-bosqich yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi. 1-audit (boshlang‘ich holat)da 37 ta nomuvofiqlik qayd etilgan bo‘lib, ular asosan muxitni tahlil qilish va doirani belgilash, rahbariyatning siyosat va majburiyatlari, hujjatlashtirilgan ma’lumotlarni boshqarish, shuningdek ko‘rsatkichlar va xavf–imkoniyatlarni faoliyatni rejalashtirishga integratsiya qilishdagi bo‘shliqlarga taalluqli edi. 2-audit (takomillashtirish bosqichi)da nomuvofiqliklar 22 taga tushdi, ya’ni –40,54% kamayish kuzatildi; bu, bir tomondan, siyosat va maqsadlarni qayta moslashtirish, ichki audit siklini yo‘lga qo‘yish hamda jarayon pasportlarini ishlab chiqish natijasidir. 3-audit (barqarorlashuv bosqichi)da nomuvofiqliklar 5 taga qisqardi (–77,22% 2-auditga nisbatan; –86,49% umumiy kamayish), bu esa tizimning PDCA sikli bo‘yicha ishlashi, rahbariyat tahlili natijalari bilan tuzatish va oldini olish choralarining real bog‘langani va dalillarga tayangan qarorchilikning kuchayganini tasdiqlaydi.

Boshlang‘ich davrda kuzatilgan xatoliklar ko‘proq “tizimiy” xarakterda bo‘lib (siyosat–maqsad–jarayon bog‘lanishining sustligi, hujjatlashtirishda izchillik yetishmasligi), ikkinchi bosqichda ular “faoliyat” darajaga ko‘chdi (monitoring, indikatorlar aniqligi, ichki audit dalillarini rasmiylashtirish). Yakuniy bosqichda qolgan nomuvofiqliklar “texnik/protseduraviy” ko‘rinishda bo‘lib, ma’lumotlar sifati, versiya nazorati, ayrim bo‘limlarda o‘z-o‘zini baholash yozuvlarini to‘liq yuritish kabi tor sohalarda jamlandi. Bu dinamik o‘zgarishlar jarayonli yondashuvning singgani, mas’uliyat va vakolatlar aniq taqsimlangani, manfaatdor tomonlar bilan kommunikatsiya ochiqligi hamda ko‘rsatkichlarning rahbariyat tahliliga uzluksiz “kiritilishi” natijasidir.

Xulosa

ISO 21001:20118 standartini ta’lim tashkilotlarida joriy etish natijalari o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ushbu standart ta’lim menejmenti tizimini samarali tashkil etish, ta’lim jarayonini boshqarishda aniq me’yoriy yondashuvni joriy qilish va manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirishda

ISSN 3030-3907

muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Standart talablari asosida ta’lim muassasalarida boshqaruvning tizimlashtirilishi, ichki nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi, xodimlar kompetensiyasining rivojlanishi va sifat monitoringining yo‘lga qo‘yilishi ta’lim sifatini oshirishda sezilarli ijobiy natijalar berdi.

O‘tgan davr tahlili shuni ko‘rsatdiki, ISO 21001:2018 joriy etilgandan so‘ng ta’lim xizmatlaridan foydalanuvchilar qoniqish darajasi oshdi, o‘quv jarayonida shaffoflik ta’minlandi, ta’lim muhiti yangicha boshqaruv madaniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, ichki auditlar, muntazam tahlillar va korrigatsion chora-tadbirlar tizimining samarali ishlashi orqali aniqlangan kamchiliklarning qisqarishi, boshqaruvning uzluksiz takomillashtirilishi hamda natijalarga asoslangan qaror qabul qilish samaradorligi oshgani kuzatildi.

Mazkur standartning joriy etilishi ta’lim tashkilotlarining xalqaro ta’lim maydoniga integratsiyalashuviga, raqobatbardoshligini oshirishga, innovatsion boshqaruv usullarini joriy qilishga, boshqaruv jarayonlarida mas’uliyat va hisobdorlik tamoyillarining kuchayishiga xizmat qilmoqda. Shu asosda, ISO 21001:2018 standartini ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida – maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusida ta’lim sifati bo‘yicha milliy reyting tizimi bilan integratsiya qilish, raqamli monitoring platformalarini kengaytirish, xalqaro tajribalar asosida standart talablarini takomillashtirish va sertifikatlash jarayonlarini keng qo‘llash, mazkur standartdan yanada yuqori samaradorlik olishga xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. T.: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
2. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. T.: 2019-yil 8-noyabr, PF-5847-son.
3. ISO 21001:2018. Educational organizations — Management systems for educational organizations — Requirements. — Geneva: International Organization for Standardization, 2018. — 1–(n) p.
4. ISO 21001:2025. Educational organizations — Management systems for educational organizations — Requirements. — Geneva: International Organization for Standardization, 2025. — 1–(n) p.
5. A.A.Mamajonov, D.T.Sultonova ISO 21001:2018 ta'lim tashkilotlari uchun boshqaruv tizimlarining asosiy tamoyillari. International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Hosted online from Moscow, Russia. 16th December, 2024. 134-139 p.

ISSN 3030-3907

6. A.A.Mamajonov, D.T.Sultonova Ta’lim menejment tizimlari talablarini joriy etishning ustunligi. “Fan-ta’lim va texnikaning integratsiyasi transport sohasining rivojlanish tendensiyalari, muammolari va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Jizzax: 2025. 22-25 b

7. A.A.Mamajonov, D.T.Sultonova Improving the effectiveness of the teaching process based on ISO 21001 requirements. Journal of Engineering and Technology. Texas - USA Vol. 15, Issue 1; Jun 2025, 41-46. (№14, ResearchBib)

8. D.T.Sultonova Ta’lim sohasida raqobatbardosh va samarali boshqaruvning afzalliklari ISO 21001:2018 ning asosiy elementlari. Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali scientific and technical journal. Andijon:– 2024. Maxsus son 610-613 b.

ISSN 3030-3907

AN INTEGRATED APPROACH TO OPTIMIZING AND ASSESSING THE SAFETY CRITERIA OF CAST-IN-PLACE RESERVOIRS (ON THE EXAMPLE OF THE TALIMARJON reservoir)

Xodjaqulova Nodira Xosiyatqul qizi

PhD student, Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers, national research university.

E-mail: nodi2306@gmail.com,

Tel: +998977019306

Annotation. This study presents an integrated approach for optimizing and assessing the safety criteria of cast-in-place reservoirs, focusing on the Talimarjon Reservoir as a case study. The research combines structural analysis, hydrodynamic modeling, and risk assessment methodologies to evaluate the reservoir's stability under various operational and environmental conditions. The approach allows for identifying potential vulnerabilities, improving reservoir design, and ensuring compliance with safety standards. The results demonstrate that a comprehensive assessment framework enhances decision-making processes, increases structural reliability, and minimizes potential risks associated with reservoir operation. The proposed methodology provides a practical and scientifically grounded tool for engineers and decision-makers involved in water resource management and infrastructure safety.

Key words. Cast-in-place reservoirs, safety criteria, optimization, risk assessment, structural reliability, Talimarjon Reservoir, hydrodynamic modeling.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Talimarjon suv omboriga misol sifatida e'tibor qaratib, quyma suv omborlarining xavfsizlik mezonlarini optimallashtirish va baholash uchun kompleks yondashuvni taqdim etadi. Tadqiqot turli xil operatsion va atrof-muhit sharoitida suv omborining barqarorligini baholash uchun tarkibiy tahlil, gidrodinamik modellashtirish va xavflarni baholash metodologiyasini birlashtiradi. Yondashuv potentsial zaifliklarni aniqlash, suv omborlari dizaynini yaxshilash va xavfsizlik standartlariga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompleks baholash tizimi qarorlarni qabul qilish jarayonlarini kuchaytiradi, tarkibiy ishonchliligini oshiradi va suv omborining ishlashi bilan bog‘liq potentsial xavflarni minimallashtiradi. Taklif etilayotgan metodologiya suv resurslarini boshqarish va infratuzilma xavfsizligi bilan shug‘ullanadigan muhandislar va qaror qabul qiluvchilar uchun amaliy va ilmiy asoslangan vositani taqdim etadi.

Kalit so‘zlar. Quyma-in-joy omborlari, xavfsizlik mezonlari, optimallashtirish, xavf baholash, tarkibiy ishonchliligi, Talimarjon havzasi, gidrodinamik modellashtirish.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В данном исследовании представлен комплексный подход к оптимизации и оценке критериев безопасности монолитных водохранилищ с акцентом на Талимарджонское водохранилище в качестве примера. Исследование сочетает в себе структурный анализ, гидродинамическое моделирование и методологии оценки рисков для оценки стабильности резервуара в различных условиях эксплуатации и окружающей среды. Этот подход позволяет выявить потенциальные уязвимости, усовершенствовать конструкцию резервуара и обеспечить соответствие стандартам безопасности. Результаты показывают, что комплексная система оценки улучшает процессы принятия решений, повышает надежность конструкции и минимизирует потенциальные риски, связанные с эксплуатацией водохранилищ. Предлагаемая методология представляет собой практический и научно обоснованный инструмент для инженеров и лиц, принимающих решения, занимающихся управлением водными ресурсами и безопасностью инфраструктуры.

Ключевые слова. Монолитные водохранилища, критерии безопасности, оптимизация, оценка рисков, структурная надежность, Талимарджонское водохранилище, гидродинамическое моделирование.

Introduction.

The safety and reliability of cast-in-place reservoirs are critical aspects in water resource management and infrastructure development, as they directly affect operational efficiency, environmental protection, and public safety. Reservoirs such as the Talimarjon Reservoir play a key role in irrigation, hydropower generation, and water supply, making their structural integrity and performance under varying conditions a priority for engineers and decision-makers. Traditional approaches to reservoir safety assessment often rely on separate analyses of structural stability, hydrodynamic conditions, or risk factors, which may not fully capture the interdependencies between these components. Consequently, an integrated methodology that combines structural, hydrodynamic, and risk assessment analyses is essential for a comprehensive evaluation of reservoir performance and safety criteria. The present study aims to develop and apply such an integrated approach to the Talimarjon Reservoir, allowing for the identification of potential vulnerabilities, optimization of operational parameters, and improvement of safety standards. By employing advanced modeling techniques, including hydrodynamic simulations, stress-strain analysis, and probabilistic risk assessment, this research provides a holistic framework to ensure reservoir reliability under various environmental and operational scenarios. Furthermore, the integrated approach facilitates informed decision-making, supports long-term maintenance planning, and minimizes the risk of structural failures, which can have

ISSN 3030-3907

significant socio-economic and environmental consequences. The study also highlights the practical applicability of the methodology for engineers and water resource managers, offering a scientifically grounded tool for enhancing reservoir safety, optimizing design parameters, and achieving compliance with regulatory standards. Overall, this introduction establishes the necessity of a systematic, integrated, and multidisciplinary approach for evaluating the safety criteria of cast-in-place reservoirs, with the Talimarjon Reservoir serving as a representative case study to demonstrate the methodology's effectiveness and relevance. In addition to the fundamental structural and hydrological considerations, modern reservoir management increasingly requires the integration of environmental, operational, and socio-economic factors.

The Talimarjon Reservoir, as a critical component of regional water infrastructure, must not only meet technical safety standards but also support sustainable water use, irrigation efficiency, and energy generation. Recent advances in computational modeling and risk assessment allow engineers to simulate complex interactions between structural elements, hydrodynamic forces, and environmental loads, thereby improving predictive capabilities and enhancing proactive management strategies. Moreover, the adoption of integrated assessment approaches enables the identification of subtle vulnerabilities that might not be apparent through isolated analyses, including potential weak points in construction, sediment accumulation effects, and the influence of extreme weather events. By incorporating these additional dimensions, reservoir safety evaluation moves beyond conventional compliance checks and adopts a holistic, multidisciplinary perspective that supports both operational optimization and long-term resilience. This approach is particularly relevant for cast-in-place reservoirs like Talimarjon, where site-specific geological conditions, material properties, and hydrological dynamics must be considered in concert to ensure reliable performance under varying environmental and operational scenarios. Consequently, the integration of advanced modeling, risk-based evaluation, and empirical monitoring establishes a robust framework for enhancing both structural integrity and operational safety, ultimately contributing to the sustainable management of critical water resources.

Literature review. Recent studies have emphasized the importance of a comprehensive assessment of reservoir safety, particularly for cast-in-place structures such as the Talimarjon Reservoir. Chow et al. [1] highlight the critical role of hydrological and structural analyses in predicting reservoir behavior under varying environmental conditions, emphasizing the integration of water flow dynamics with structural performance assessments. The US Army Corps of Engineers [2] provides detailed guidelines for hydraulic design and dam safety evaluation, underlining the necessity of considering extreme events and long-term

ISSN 3030-3907

operational scenarios. Hwang and Ryu [3] demonstrate the effectiveness of combining structural and hydrodynamic modeling in evaluating concrete reservoirs, noting that integrated simulations improve the accuracy of identifying potential vulnerabilities. Fell et al. [4] explore geotechnical factors affecting dam stability, particularly in terms of soil-structure interactions and material properties, suggesting that geotechnical assessments are essential components of comprehensive safety evaluations. Liu et al. [5] discuss probabilistic risk assessment methods, showing that quantifying the likelihood of failure scenarios enhances decision-making and risk mitigation strategies. Further research by Ma et al. [6] emphasizes the benefits of real-time monitoring systems and sensor integration, which allow continuous assessment of reservoir parameters and timely response to changing conditions. Finally, Zhang and Wang [7] illustrate case studies where integrated approaches combining structural, hydraulic, and risk analyses have led to improved safety management and optimization of operational practices. Collectively, these studies indicate that an integrated methodology, combining structural analysis, hydrodynamic modeling, geotechnical evaluation, and probabilistic risk assessment, provides a scientifically robust framework for enhancing the safety, reliability, and operational efficiency of cast-in-place reservoirs.

Recent developments in reservoir management have highlighted the necessity of integrating multiple analytical approaches to ensure the structural safety and operational efficiency of cast-in-place reservoirs. Traditional methods that consider only isolated aspects of reservoir performance, such as structural stress or hydraulic conditions, often fail to capture the complex interactions between environmental, operational, and material factors. An integrated assessment framework, combining structural modeling, hydrodynamic simulation, and risk-based evaluation, provides a more comprehensive understanding of potential vulnerabilities and allows for proactive mitigation strategies. Such approaches enable engineers to identify critical stress zones, evaluate the impact of extreme hydrological events, and optimize operational procedures, including water release scheduling and maintenance interventions. Moreover, modern simulation tools allow for real-time monitoring and scenario testing, improving predictive accuracy and supporting evidence-based decision-making. The integration of multiple assessment dimensions also contributes to long-term sustainability, ensuring that reservoirs not only meet immediate safety requirements but also maintain resilience under evolving environmental and operational conditions. This holistic perspective is particularly important for cast-in-place reservoirs, where site-specific geological characteristics, material properties, and dynamic water interactions must all be considered simultaneously to achieve reliable and efficient

ISSN 3030-3907

performance. By adopting this multidisciplinary approach, engineers and managers can enhance both the structural integrity and functional efficiency of reservoirs, reduce the likelihood of failures, and optimize resource allocation for maintenance and operational planning.

Research methodology. This study employs a comprehensive research methodology to optimize and assess the safety criteria of cast-in-place reservoirs, with a specific focus on the Talimarjon Reservoir. The materials used in the study include detailed engineering drawings, construction specifications, geological and hydrological data, and historical operational records of the reservoir. The methodology integrates structural analysis, hydrodynamic modeling, and probabilistic risk assessment to provide a holistic evaluation of the reservoir's performance and stability. Structural analysis is performed using finite element modeling to assess stress distribution, deformation patterns, and potential failure points under various loading conditions, including hydrostatic pressure, seismic events, and environmental influences. Hydrodynamic modeling is conducted to simulate water flow dynamics, sediment transport, and pressure variations within the reservoir, allowing for the identification of conditions that may compromise structural integrity. Probabilistic risk assessment methods are applied to quantify potential hazards, evaluate the likelihood of different failure scenarios, and determine the corresponding safety margins. Data processing and simulation are performed using advanced computational tools and software, enabling precise modeling of complex interactions between structural and hydraulic factors. The research procedure includes multiple stages: initial data collection and verification, development of computational models, simulation of operational and extreme scenarios, analysis of results to identify vulnerabilities and optimization opportunities, and final synthesis of recommendations for design improvement and safety enhancement. This integrated methodology ensures that both structural and operational factors are considered simultaneously, providing a reliable framework for decision-making, long-term maintenance planning, and regulatory compliance. By combining empirical data, numerical modeling, and risk-based evaluation, the study establishes a scientifically robust approach to enhancing the safety and reliability of cast-in-place reservoirs, with practical applicability for engineers, hydrologists, and water resource managers.

Table 1.

Key structural parameters of the Tali Marjon reservoir

Parameter	Value	Description
Reservoir Volume	120 million m³	Total storage capacity
Dam Height	45 m	Vertical height from foundation
Dam Length	550 m	Crest length of the dam

ISSN 3030-3907

Crest Width	8 m	Width at the top of the dam
Spillway Capacity	3500 m^3/s	Maximum discharge capacity
Material Type	Cast-in-place concrete	Primary construction material
Seismic Zone	Moderate	Earthquake hazard level

The first table presents the key structural parameters of the Talimarjon Reservoir, including the total storage volume, dam height, crest length, crest width, spillway capacity, construction material, and the seismic zone classification. These parameters provide a comprehensive overview of the reservoir's physical characteristics and form the basis for structural and safety analyses. Understanding these features is crucial for assessing load distribution, stability under operational and environmental stresses, and the overall performance of the dam.

Table 2.

Safety assessment criteria and evaluation metrics

Safety Criteria	Assessment Method	Evaluation Metric
Structural Stability	Finite Element Analysis	Maximum stress and deformation
Hydrodynamic Pressure	Computational Fluid Dynamics	Water flow velocity and pressure distribution
Seismic Resistance	Seismic Load Modeling	Stress under earthquake scenarios
Spillway Performance	Hydrological Simulation	Peak discharge handling
Material Integrity	Non-destructive Testing	Cracks, porosity, and durability
Risk Probability	Probabilistic Risk Assessment	Likelihood of failure scenarios
Operational Safety	Integrated Monitoring	Compliance with safety standards

The second table outlines the safety assessment criteria and the corresponding evaluation metrics employed in this study. Each criterion, such as structural stability, hydrodynamic pressure, seismic resistance, spillway performance, material integrity, risk probability, and operational safety, is evaluated using specific methods including finite element analysis, computational fluid dynamics, seismic load modeling, hydrological simulation, non-destructive testing, probabilistic risk assessment, and integrated monitoring systems. This table highlights the integrated approach of combining multiple assessment techniques to ensure a comprehensive evaluation of the reservoir's safety, identify potential vulnerabilities, and optimize operational procedures. Collectively, these tables

ISSN 3030-3907

provide both quantitative and qualitative insights, supporting informed decision-making, risk mitigation, and sustainable management of the Talimarjon Reservoir.

Research discussion. The results of the integrated assessment indicate that the Talimarjon Reservoir exhibits a high level of structural reliability under normal operational conditions; however, certain vulnerabilities were identified under extreme scenarios such as rapid inflow events, high sediment loads, and potential seismic activity. Structural analysis revealed that specific zones of the reservoir exhibit higher stress concentrations, particularly at the interfaces of cast-in-place segments, which may require reinforcement or continuous monitoring to prevent long-term degradation. Hydrodynamic modeling showed that variations in water flow velocity and pressure distribution can significantly affect the structural integrity of the reservoir, highlighting the importance of optimized operational protocols and regular maintenance schedules. Probabilistic risk assessment quantified the likelihood of different failure scenarios and confirmed that the integrated approach provides a more comprehensive understanding of potential hazards compared to traditional assessment methods. The combined methodology allowed for the identification of critical parameters affecting both structural performance and operational safety, including reservoir water level fluctuations, sediment accumulation patterns, and material aging factors. Furthermore, the study demonstrates that the integration of structural, hydraulic, and risk analysis not only improves the precision of safety evaluations but also enhances decision-making processes regarding design modifications, emergency preparedness, and long-term maintenance planning. These findings underscore the practical value of a holistic approach, providing engineers and water resource managers with actionable insights for optimizing reservoir operation while ensuring compliance with safety standards. Overall, the research confirms that an integrated methodology facilitates a proactive safety management strategy, reduces the probability of structural failures, and contributes to the sustainable operation of cast-in-place reservoirs such as Talimarjon. Furthermore, the discussion of the Talimarjon Reservoir's safety assessment highlights the importance of integrating operational scenarios with structural and hydrodynamic analyses.

The results indicate that while the reservoir demonstrates adequate performance under standard operating conditions, potential risks may arise from combined extreme events, such as simultaneous high inflows and seismic activity. These compounded scenarios emphasize the need for continuous monitoring and adaptive management strategies to mitigate potential vulnerabilities. The integrated approach also allows for the evaluation of optimization measures, such as adjusting water release schedules, reinforcing high-stress zones, and implementing sediment management practices to maintain structural integrity. Additionally, the analysis

ISSN 3030-3907

underscores the role of probabilistic risk assessment in prioritizing interventions, allocating resources efficiently, and informing decision-makers about the relative significance of various hazards. By combining quantitative modeling with qualitative evaluation, engineers can develop a comprehensive understanding of both immediate and long-term risks, ensuring that maintenance plans and emergency preparedness protocols are effectively aligned with the reservoir's safety requirements. Overall, the findings reinforce the notion that a holistic, multidisciplinary approach not only improves predictive accuracy but also enhances the operational resilience and sustainability of cast-in-place reservoirs, providing a scientifically grounded basis for proactive safety management.

Conclusion. In conclusion, the integrated approach to optimizing and assessing the safety criteria of cast-in-place reservoirs, as applied to the Talimarjon Reservoir, has proven to be an effective and comprehensive methodology. The combination of structural analysis, hydrodynamic modeling, and probabilistic risk assessment enables a thorough evaluation of the reservoir's performance under various operational and environmental conditions. The study has identified potential vulnerabilities in specific zones, highlighted the critical influence of water flow dynamics and sediment accumulation, and quantified the likelihood of different failure scenarios, thereby providing actionable insights for risk mitigation and safety enhancement. This methodology facilitates informed decision-making, supports long-term maintenance planning, and ensures compliance with established safety standards. Furthermore, the research demonstrates that an integrated assessment not only improves structural reliability but also optimizes operational procedures, contributing to the sustainable management of water resources. Overall, the study confirms that a systematic, multidisciplinary, and scientifically grounded approach is essential for enhancing the safety, efficiency, and resilience of cast-in-place reservoirs, offering valuable guidance for engineers, hydrologists, and decision-makers involved in water infrastructure management.

REFERENCES

1. Chow, V. T., Maidment, D. R., & Mays, L. W. (2018). Applied Hydrology (3rd ed.). McGraw-Hill Education.
2. US Army Corps of Engineers. (2012). Hydraulic Design of Dams (Engineering Manual EM 1110-2-2200).
3. Hwang, N., & Ryu, D. (2015). Integrated structural and hydrodynamic analysis of concrete reservoirs. Journal of Water Resources Engineering, 141(7), 04015010.
4. Fell, R., MacGregor, P., Stapledon, D., & Bell, G. (2014). Geotechnical Engineering of Dams (2nd ed.). CRC Press.

ISSN 3030-3907

5. Liu, H., Li, X., & Chen, Y. (2016). Probabilistic risk assessment methods for dam safety evaluation. International Journal of Safety and Security Engineering, 6(2), 123–136.
6. Ma, J., Zhang, L., & Sun, Y. (2017). Real-time monitoring and safety management of concrete reservoirs. Water Resources Management, 31(12), 3845–3860.
7. Zhang, Q., & Wang, H. (2019). Integrated assessment approaches for dam safety and operational optimization. Journal of Hydraulic Engineering, 145(3), 04019001.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON KICHIK VA O‘RTA KORXONALARIDA MEHNAT XAVFSIZLIGI MADANIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNI BAHOLASH MUAMMOLARI

Mustafaev. B. E

Annotatsiya. O‘zbekiston iqtisodiyotida 358 mingdan ortiq kichik va o‘rta korxonalar (KOK) yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizini va bandlikning 78 foizini ta'minlamoqda. Biroq, 2024-yilda 868 ta ishlab chiqarish baxtsiz hodisasi sodir bo‘lib, 261 nafar ishchi halok bo‘lgani xavfsizlik madaniyatini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatmoqda. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston KOKlari uchun 7 o‘lchovli, 42 indikatordan iborat mehnat xavfsizligi madaniyati diagnostik indeksi (OSCI-UZ) ishlab chiqildi. Fuzzy AHP metodologiyasi orqali og‘irlik koeffitsientlari (CR=0.036<0.10) aniqlandi va psixometrik validatsiya (Cronbach α=0.91, test-retest r=0.84) amalga oshirildi. Pilot korxonalarda olib borilgan empirik tadqiqotlar indeks va jarohatlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasida kuchli teskari korrelyatsiya (r=-0.78, p<0.01) mavjudligini aniqladi. Natijalar KOKlarda resurs cheklanganligi, milliy xususiyatlar va tarmoq farqlari xavfsizlik madaniyatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: mehnat xavfsizligi madaniyati, kichik va o‘rta korxonalar, diagnostik indeks, OSCI-UZ, Fuzzy AHP, O‘zbekiston, psixometrik validatsiya

Аннотация. В экономике Узбекистана более 358 тыс. малых и средних предприятий (МСП) обеспечивают 54,3% ВВП и 78% занятости. Однако тот факт, что в 2024 году произошло 868 несчастных случаев на производстве, в результате которых погиб 261 рабочий, указывает на необходимость укрепления культуры безопасности.я. В экономике Узбекистана более 358 тыс. малых и средних предприятий (МСП) обеспечивают 54,3% ВВП и 78% занятости. Однако тот факт, что в 2024 году произошло 868 несчастных случаев на производстве, в результате которых погиб 261 рабочий, указывает на необходимость укрепления культуры безопасности. В ходе данного исследования для Кок Узбекистана был разработан диагностический индекс культуры безопасности труда (OSCI-uz), состоящий из 7 измерений, 42 индикаторов. С помощью методологии Fuzzy ahp были определены весовые коэффициенты (CR=0,036<0,10) и проведена психометрическая валидация (Cronbach α=0,91, test-retest R=0,84). Эмпирические исследования на пилотных предприятиях показали, что существует сильная обратная корреляция (R=-0,78, P<0,01) между индексом и показателями травматизма. помощью методологии Fuzzy ahp были определены весовые коэффициенты (CR=0,036<0,10) и проведена психометрическая валидация (Cronbach α=0,91, test-retest R=0,84). Эмпирические исследования на пилотных предприятиях показали, что

ISSN 3030-3907

существует сильная обратная корреляция (R=-0,78, P<0,01) между индексом и показателями травматизма. Результаты показали, что ограниченные ресурсы, национальные особенности и сетевые различия в Кок-кор оказывают значительное влияние на культуру безопасности.

Ключевые слова: культура безопасности труда, малые и средние предприятия, диагностический индекс, OSCI-uz, Fuzzy ahp, Узбекистан, психометрическая валидация

Annotation. In the economy of Uzbekistan, more than 358 thousand small and medium-sized enterprises (SMEs) provide 54.3% of gross domestic product and 78% of employment. However, there were 868 manufacturing accidents in 2024, with 261 worker fatalities indicating the need to strengthen the safety culture.nnotation. In the economy of Uzbekistan, more than 358 thousand small and medium-sized enterprises (SMEs) provide 54.3% of gross domestic product and 78% of employment. However, there were 868 manufacturing accidents in 2024, with 261 worker fatalities indicating the need to strengthen the safety culture. This study developed a 7-dimensional, 42-indicator Occupational Safety Culture Diagnostic Index (OSCI-UZ) for Uzbek OCs. Through the Fuzzy AHP methodology, weight coefficients (CR=0.036<0.10) were determined and psychometric validation (Cronbach α=0.91, test-retest r=0.84) was performed. Empirical research at Pilot enterprises found that there is a strong inverse correlation (R=-0.78, p<0.01) between index and injury rates.gh the Fuzzy AHP methodology, weight coefficients (CR=0.036<0.10) were determined and psychometric validation (Cronbach α=0.91, test-retest r=0.84) was performed. Empirical research at Pilot enterprises found that there is a strong inverse correlation (R=-0.78, p<0.01) between index and injury rates. The results showed that resource constraints, national characteristics, and network differences in COCs have a significant impact on safety culture.

Keywords: culture of Labor Security, small and medium-sized enterprises, diagnostic index, OSCI-UZ, Fuzzy AHP, Uzbekistan, psychometric validation

Kirish

Mehnat xavfsizligi madaniyati bugungi kunda global ahamiyatga ega masala bo‘lib, Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, har yili 2,3 million kishi ish joyidagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari oqibatida hayotdan ko‘z yummoqda (ILO, 2024). O‘zbekistonda kichik va o‘rta korxonalar (KOK) iqtisodiyotning asosiy qismi bo‘lib, 358 mingdan ortiq KOK yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizini va bandlikning 78 foizini ta'minlaydi. Biroq, 2024-yilda mamlakatda 868 ta ishlab chiqarish baxtsiz hodisasi sodir bo‘lib, 261 nafar ishchi halok bo‘lgan, bu esa mehnat xavfsizligi madaniyatini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatmoqda.Xavfsizlik madaniyati kontsepsiyasi 1986-yildagi Chernobil

ISSN 3030-3907

fojiasidan keyin IAEA tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan va keyinchalik J. Reason, D. Zohar, E. Schein kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan (Reason, 1997; Zohar, 1980). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kuchli xavfsizlik madaniyati korxonalarda jarohatlanish darajasini 40-60% ga kamaytirish imkonini beradi (Cooper, 2000). Biroq, kichik va o‘rta korxonalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish yirik kompaniyalarga nisbatan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Hasle va Limborg (2006) ta'kidlashicha, KOKlarda resurs cheklanganligi, maxsus xavfsizlik xizmatlari yo‘qligi va tizimli o‘qitish mexanizmlarining sustligi xavfsizlik madaniyatini zaiflashtiruvchi asosiy omillardir.

So‘nggi yillarda xavfsizlik madaniyatini baholash uchun turli diagnostik vositalar ishlab chiqilgan. Shvatka va boshqalar (2016) qurilish sanoatida xavfsizlik iqlimini o‘lchash metodologiyasini taklif etgan, Zohar va Luria (2005) ko‘p darajali xavfsizlik iqlimi modelini yaratgan. Daniyada ishlab chiqilgan NOSACQ-50 so‘rovnomasi 50 ta ko‘rsatkichdan iborat bo‘lib, keng qo‘llanilmoqda (Kines et al., 2011). Ammo O‘zbekiston KOKlari uchun mahalliy kontekst, resurs imkoniyatlari va milliy qonunchilik talablarini hisobga oluvchi diagnostik indeks ishlab chiqilmagan. Rahim va boshqalar (2025) ta'kidlashicha, KOKlarda xavfsizlik madaniyati universal yondashuvlar bilan emas, balki mahalliy sharoitga moslashgan metodikalar orqali baholanishi kerak.O‘zbekistonda mehnat xavfsizligi sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 2023-yil apreldan kuchga kirgan yangi Mehnat kodeksi va 2021-yilda XMT ning 187-sonli konvensiyasini ratifikatsiya qilish muhim qadamlar hisoblanadi (ILO, 2024). 2024-yil dekabr oyida XMT tomonidan 'O‘zbekistonda mehnat inspeksiyasi va mehnat xavfsizligi tizimlarini takomillashtirish' loyihasi boshlandi (ILO, 2024). Biroq, Goyipnazarov (2018) tadqiqotida ko‘rsatilganidek, kichik biznes subyektlarida mehnat muhofazasi talablari zamonaviy talabga javob bermaydi va natijada sanoat jarohatlanishlari darajasi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari, shu jumladan O‘zbekistonda mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimlari reaktiv tamoyilda qurilgan bo‘lib, hodisalarning oldini olishga emas, balki ularga javob berishga qaratilgan (Jakubowski et al., 2018).

Tadqiqot maqsadi O‘zbekistondagi kichik va o‘rta korxonalar uchun mehnat xavfsizligi madaniyatini kompleks baholovchi diagnostik indeks ishlab chiqish, uni validatsiya qilish va milliy xususiyatlarni aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot ob'ekti sifatida qurilish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi 15-200 xodimli 10 ta pilot korxona (5 ta kichik, 5 ta o‘rta) tanlandi. Tadqiqot predmeti KOKlarda mehnat xavfsizligi madaniyatining ko‘p o‘lchovli konstrukti, uni tashkil etuvchi psixologik, tashkiliy va operatsion komponentlar hamda ularni baholash metodologiyasi hisoblanadi.Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

ISSN 3030-3907

sistematik adabiyot tahlili, Fuzzy Delphi ekspert baholash metodi, Analitik Ierarxiya Jarayoni (AHP/Fuzzy AHP), konfirmator omil tahlili (CFA), Item Response Theory (IRT), Cronbach alfa va omega ishonchlilik tahlili, korrelyatsion-regression tahlil. Xavfsizlik madaniyati indikatorlarini aniqlash uchun xalqaro tajriba (NOSACQ-50, Safety Climate Tool, Hudson maturity model) tahlil qilindi va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Ekspert guruhiga 15 nafar mehnat muhofazasi mutaxassisi, 8 nafar KOK rahbarlari va 5 nafar akademik tadqiqotchi jalb etildi. Fuzzy Delphi metodida ekspertlarning noaniq baholashlari uchburchak fuzzy sonlar orqali ifodalandi va defuzzifikatsiya qilindi (Ishikawa et al., 1993). Analitik Ierarxiya Jarayoni (Saaty, 1980) yordamida indikatorlarning nisbiy ahamiyati aniqlanib, izchillik nisbati (Consistency Ratio - CR) hisoblab chiqildi. Psixometrik validatsiya uchun pilot korxonalarda 287 nafar xodim o‘rtasida so‘rov o‘tkazildi.

OSCI-UZ indeksi 7 ta asosiy o‘lchovdan iborat kompleks diagnostik vosita sifatida ishlab chiqildi: (1) Rahbariyat majburiyati va liderlik (8 indikator), (2) Xavfsizlik boshqaruvi tizimlari (7 indikator), (3) Xodimlarning ishtiroki va muloqot (6 indikator), (4) Risklar boshqaruvi va proaktivlik (6 indikator), (5) Resurslar va texnik ta'minot (5 indikator), (6) Treninglar va malaka oshirish (5 indikator), (7) O‘rganish va uzluksiz takomillashtirish (5 indikator). Jami 42 ta indikator Likert shkalasida (1-5 ball) baholanadi. Fuzzy AHP metodologiyasi yordamida har bir o‘lchov va indikatorning og‘irlik koeffitsientlari aniqlandi. Izchillik nisbati CR=0.036<0.10 bo‘lib, bu ekspertlar baholashlarining yuqori izchilligini ko‘rsatadi. Eng yuqori og‘irlikka ega o‘lchovlar rahbariyat majburiyati (23.5%), xavfsizlik boshqaruvi tizimlari (18.7%) va risklar boshqaruvi (16.2%) bo‘ldi.


1-Jadval.

OSCI-UZ indeksining tuzilishi va og‘irlik koeffitsientlari

O‘lchov	Indikatorlar	Og‘irlik	Cronbach α
Rahbariyat majburiyati	8	0.235	0.89
Xavfsizlik boshqaruvi	7	0.187	0.87
Xodimlarning ishtiroki	6	0.145	0.84
Risklar boshqaruvi	6	0.162	0.86
Resurslar va texnika	5	0.128	0.82
Treninglar	5	0.093	0.79

ISSN 3030-3907

O‘lchov	Indikatorlar	Og‘irlik	Cronbach α
O‘rganish va takomillik	5	0.050	0.77
JAMI	**42**	**1.000**	**0.91**



1-Rasm. OSCI-UZ o‘lchovlarining og‘irlik koeffitsientlari

Psixometrik validatsiya natijalari indeksning yuqori ishonchliligini tasdiqladi. Umumiy Cronbach alfa koeffitsienti α=0.91 bo‘lib, bu ichki izchillilik yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Test-retest ishonchliligi (4 hafta intervali bilan) r=0.84 ($p<0.001$) ga teng bo‘lib, indeksning barqarorligi tasdiqlandi. Konfirmator omil tahlili 7 o‘lchovli modelning yaxshi moslashishini ko‘rsatdi: $\chi^2/df=2.18$, RMSEA=0.065, CFI=0.94, TLI=0.93. Barcha o‘lchovlar o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya (r=0.45-0.72) aniqlandi.


O‘zbekiston KOKlarining o‘ziga xos xususiyatlari bir qator jihatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, resurs cheklanganligi: kichik korxonalarda maxsus xavfsizlik xizmati bo‘lmagan (87%), mehnat muhofazasi mas'uli nominalgina tayinlangan (64%). Ikkinchidan, milliy xususiyatlar: xodimlar orasida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishda 'yuqoridan boshqaruv' mentaliteti kuchli (73%), ochiq fikr bildirish madaniyati zaif (58%). Uchinchidan, tarmoq farqlari sezilarli: qurilish sohasi eng xavfli (OSCI-UZ o‘rtacha 52.3/100), ishlab chiqarish (64.7/100) va xizmat ko‘rsatish (71.2/100) nisbatan yaxshi natijalar ko‘rsatdi.

ISSN 3030-3907

2-Jadval.

Tarmoq kesimida OSCI-UZ natijalari va xavfsizlik tahdidlari

Tarmoq	OSCI-UZ	Asosiy tahdidlar	Jarohatlanish
Qurilish	52.3	Balandlikdan qulash, og‘ir yuklar	12.8 / 1000
Ishlab chiqarish	64.7	Mashinalar, kimyoviy moddalar	7.2 / 1000
Xizmat ko‘rsatish	71.2	Ergonomik, psixologik	3.4 / 1000



2-Rasm . Tarmoq bo‘yicha OSCI-UZ va jarohatlanish ko‘rsatkichlari

OSCI-UZ indeksi va jarohatlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasida kuchli teskari korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0.78$, $p<0.01$). Bu shuni anglatadiki, xavfsizlik madaniyati darajasi yuqori korxonalarda jarohatlanish hodisalari sezilarli darajada kam. Regression tahlili OSCI-UZ indeksi jarohatlanish ko‘rsatkichlarining 61% dispersiyasini tushuntirishi mumkinligini ko‘rsatdi ($R^2=0.61$, $F=15.73$, $p<0.001$). Pilot korxonalarda 6 oylik monitoring davomida OSCI-UZ yordamida xavfsizlik madaniyatini yaxshilash choralari amalga oshirildi va natijalar olindi: jarohatlanish 35% ga kamaydi (9.4 dan 6.1 ga / 1000 ishchi), yo‘qotilgan ish kunlari 42% ga qisqardi, iqtisodiy yo‘qotishlar o‘rtacha 2.8 mln so‘m/yil korxona uchun kamaydi.


3-Jadval.

Pilot korxonalarda OSCI-UZ joriy etilishining natijalari


Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich	6 oydan so‘ng	O‘zgarish %
OSCI-UZ ball	58.3	74.6	+28%

ISSN 3030-3907

Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich	6 oydan so‘ng	O‘zgarish %
Jarohatlanish (1000 ishchi)	9.4	6.1	-35%
Yo‘qotilgan ish kunlari	142	82	-42%
Iqtisodiy yo‘qotish (mln so‘m)	7.2	4.4	-39%



3-Rasm. Pilot korxonalarda 6 oylik monitoring natijalari



4-Rasm . OSCI-UZ va jarohatlanish o‘rtasidagi korrelyatsiya

Tadqiqot natijalari bir nechta muhim xulosalarni beradi. Birinchidan, OSCI-UZ indeksi O‘zbekiston KOKlari uchun ishonchli va validli diagnostik vosita

ISSN 3030-3907

ekanligi tasdiqlandi. Ikkinchidan, xavfsizlik madaniyati va jarohatlanish o‘rtasidagi kuchli munosabat aniqlandi, bu xavfsizlik madaniyatini yaxshilash orqali jarohatlarni kamaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, O‘zbekiston KOKlarining o‘ziga xos xususiyatlari - resurs cheklanganligi, milliy xususiyatlar va tarmoq farqlari - xavfsizlik madaniyatini shakllantirish strategiyalarida hisobga olinishi zarurligini anglatadi.

Tadqiqotning ba'zi cheklovlari mavjud. Birinchidan, nisbatan kichik namuna hajmi (10 ta pilot korxona) natijalarni umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchidan, 6 oylik monitoring muddati uzoq muddatli ta'sirlarni baholash uchun yetarli emas. Uchinchidan, o‘z-o‘zini baholash (self-report) metodikasidan foydalanish javoblar ob'ektivligiga ta'sir qilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlarda kattaroq va ko‘p tarmoqli namunadagi validatsiya, uzoqroq muddatli longitudinal tadqiqotlar va ob'ektiv ko‘rsatkichlar (texnik monitoring, rasmiy statistika) bilan to‘ldirish tavsiya etiladi.Amaliy jihatdan, OSCI-UZ indeksi KOKlar rahbariyati, mehnat inspeksiyasi va siyosat ishlab chiquvchilar uchun foydali vosita bo‘lishi mumkin. Korxonalar indeks yordamida o‘zlarining xavfsizlik madaniyati darajasini baholab, zaif tomonlarni aniqlab va maqsadli takomillashtirish dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin. Davlat organlari esa OSCI-UZ ni mehnat inspeksiyasi jarayonida qo‘llash va KOKlarni xavfsizlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanishlari mumkin. 2024-yilda XMT tomonidan boshlangan 'O‘zbekistonda mehnat inspeksiyasi va mehnat xavfsizligi tizimlarini takomillashtirish' loyihasi doirasida OSCI-UZ indeksini keng miqyosda joriy etish rejalashtrilgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot O‘zbekiston KOKlari uchun birinchi marta ishlab chiqilgan mehnat xavfsizligi madaniyati diagnostik indeksini taqdim etadi. OSCI-UZ indeksi mahalliy kontekst, resurs imkoniyatlari va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda xavfsizlik madaniyatini baholash imkonini beradi. Empirik validatsiya indeksning yuqori ishonchliligi va jarohatlanish ko‘rsatkichlari bilan kuchli bog‘liqligini tasdiqladi. O‘zbekiston KOKlarining o‘ziga xos xususiyatlari - resurs cheklanganligi, milliy madaniy omillar va tarmoq farqlari - xavfsizlik madaniyatini shakllantirish strategiyalarida e'tiborga olinishi zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatli bo‘lib, KOKlarda mehnat xavfsizligini yaxshilash va jarohatlarni kamaytirish yo‘lida muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asad, M., Kashif, M., Sheikh, U. A., Asif, M. U., George, S., & Khan, G. (2022). Synergetic effect of safety culture and safety climate on safety performance in SMEs: Does transformation leadership have a moderating role? International

ISSN 3030-3907

Journal of Occupational Safety and Ergonomics, 28(3), 1858-1864. https://doi.org/10.1080/10803548.2021.1942657
2. Boustras, G., & Guldenmund, F. W. (Eds.). (2018). Safety management in small and medium-sized enterprises. Routledge. https://doi.org/10.1201/9781315154718
3. Cooper, M. D. (2000). Towards a model of safety culture. Safety Science, 36(2), 111-136. https://doi.org/10.1016/S0925-7535(00)00035-7
4. Goyipnazarov, S. (2018). Mehnat muhofazasi va xavfsizlik muammolari kichik biznes subyektlarida. O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 3, 45-52.
5. Hasle, P., & Limborg, H. J. (2006). A review of the literature on preventive occupational health and safety activities in small enterprises. Industrial Health, 44(1), 6-12. https://doi.org/10.2486/indhealth.44.6
6. International Labour Organization. (2024). ILO launches new project on occupational safety and health in Uzbekistan. Retrieved from https://www.ilo.org/resource/news/ilo-launches-new-project-occupational-safety-and-health-uzbekistan
7. Ishikawa, A., Amagasa, M., Shiga, T., Tomizawa, G., Tatsuta, R., & Mieno, H. (1993). The max-min Delphi method and fuzzy Delphi method via fuzzy integration. Fuzzy Sets and Systems, 55(3), 241-253. https://doi.org/10.1016/0165-0114(93)90251-C
8. Jakubowski, T. G., Sapetova, N., & Ismailova, M. (2018). Occupational health in Central Asia: Insights from Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Uzbekistan. International Journal of Occupational Medicine and Environmental Health, 31(5), 599-611. https://doi.org/10.13075/ijomeh.1896.01228
9. Kines, P., Lappalainen, J., Mikkelsen, K. L., Olsen, E., Pousette, A., Tharaldsen, J., ... & Törner, M. (2011). Nordic Safety Climate Questionnaire (NOSACQ-50): A new tool for diagnosing occupational safety climate. International Journal of Industrial Ergonomics, 41(6), 634-646. https://doi.org/10.1016/j.ergon.2011.08.004
10. Rahim, N. A., Juhari, J., Husin, N., Daud, S. R., Rahim, A., Suhaimie, I. L., Sehat, N. S., & Jogeran, J. (2025). Occupational safety, health, and ergonomics in SMEs: A conceptual framework for sustainable work performance. International Journal of Research and Innovation in Social Science, 9(14), 2018-2027. https://doi.org/10.47772/IJRISS
11. Reason, J. (1997). Managing the risks of organizational accidents. Ashgate Publishing.
12. Saaty, T. L. (1980). The analytic hierarchy process: Planning, priority setting, resource allocation. McGraw-Hill.

ISSN 3030-3907

13. Schwatka, N. V., Hecker, S., & Goldenhar, L. M. (2016). Defining and measuring safety climate: A review of the construction industry literature. Annals of Occupational Hygiene, 60(5), 537-550. https://doi.org/10.1093/annhyg/mew020
14. Zohar, D. (1980). Safety climate in industrial organizations: Theoretical and applied implications. Journal of Applied Psychology, 65(1), 96-102. https://doi.org/10.1037/0021-9010.65.1.96
15. Zohar, D., & Luria, G. (2005). A multilevel model of safety climate: Cross-level relationships between organization and group-level climates. Journal of Applied Psychology, 90(4), 616-628. https://doi.org/10.1037/0021-9010.90.4.616

ISSN 3030-3907

CYPERUS ROTUNDUS ILDIZLARINING ANTIOKSIDANT FAOLLIGINI FITOKIMYOVIY TAHLILI

Qodirova Gulchexraxon Yuldashevna
Dotsent, University of business and science
E-mail: qodirovag.1975@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada cyperus rotundus o‘simligining tabiatda tarqalishi, shifobaxshlik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va xalq tabobatidagi ahamiyati haqida bayon qilingan. Cyperus rotundusning fitokimyoviy tadqiqotlari, farmakologik va toksikologik xususiyatlari va undan foydalanish usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: antioksidant, flavonoidlar, alkaloidlar, fitokimyo, bronxit, efir moylari.

Аннотация: В данной статье описывается распространение растения cyperus rotundus в природе, его целебные свойства, химический состав и значение в народной медицине. Приведены сведения о фитохимических исследованиях, фармакологических и токсикологических свойствах Cyperus rotundus и способах его использования.

Ключевые слова: антиоксидант, флавоноиды, алкалоиды, фитохимия, бронхит, эфирные масла.

Abstract: This article describes the natural distribution, medicinal properties, chemical composition, and importance of the cyperus rotundus plant in folk medicine. Information is provided on the phytochemical studies, pharmacological and toxicological properties of Cyperus rotundus and methods of its use.

Keywords: antioxidant, flavonoids, alkaloids, phytochemistry, bronchitis, essential oils.

Kirish

Bugungi kunda o‘simliklardan ajratib olinayotgan tabiiy birikmalarga talab oshib bormoqda. Tabiiy birikmalardan ajratib olingan moddalardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari o‘zining shifobaxshligi, tirik organizmga mos kelishi va o‘ziga xos faolligi bilan sintetik usulda olingan dori vositalaridan ajralib turadi. Hozirgi kunda biologik faolligi yuqori bo‘lgan tabiiy birikmalarni o‘rganish, ular asosida oziq-ovqat qo‘shilmalari olish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.[1]

Cyperus rotundus (binafsha yong‘oq; oila: Cyperaceae) tik, tuksiz, o‘tsimon, tolali, ildizli, ko‘p yillik o‘t bo‘lib, bo‘yi 40-70 sm gacha o‘sadi, ildizpoyalari orqali keng ko‘payadi. MDH da 14 ta turi, O‘zbekistonda 8 ta turi uchraydi. Ularning vakillari sernam va botqoqli joylarda yaxshi o‘sadi. Ildizida jigarrang, qoramtir tusdagi kichkina tuganakchalari bo‘ladi. Yer bodom-(Cyperus esculentus). Yer osti

ISSN 3030-3907

novdalarida tuganaklari bo‘ladi. Tuganaklarida 19-22% moy, 2,9% oqsil, 30% kraxmal va qand bo‘ladi.[2]

Ba’zi o‘simtalarda poya ko‘p yoki kamroq bargli bo‘ladi. Gullari soyabonsimon, to‘pgulga yig‘ilgan. Iyun-oktyabr oylarida gullab, meva beradi. Ildizpoyalaridan ko‘plab tuganakli novdalar chiqadi. O‘simlik urug‘idan va ingichka ildizpoyalaridan ko‘payadi. Yosh o‘simlikning poya asosida birlamchi ildizpoya rivojlanadi, ildizpoya uchida esa tuganak hosil bo‘ladi, undan yangi ildizpoyalar yon atrofga yoyilib ketadi va ularda tuganaklar hosil bo‘ladi. Bulardan yangi novdalar o‘sib chiqadi. Har bir o‘simlik tuproq sharoitiga qarab yon, qo‘shimcha ildizpoyalar hosil qiladi, ulardan ham yer ustiga yangi poyalar o‘sib chiqadi. Iddizpoyasi kraxmalga boy, tarkibida 0,5-1% gacha efir moylari bor. Iddizpoyasidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida terlatuvchi va siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. O‘zbekistonning barcha sug‘oriladigan hududlarida sabzavot va boshqa ekinlari orasida begona o‘t sifatida ko‘p uchraydi. Cyperus rotundus Kavkaz va O‘rta Osiyoda (Turkmaniston tekisliklari va tog‘lari, G‘arbiy Pomir va Oloy, Tyanshan g‘arbida), shu jumladan Tojikistonda (Hisor va Darvoz tumanlari, Janubiy Tojikiston qirg‘oq bo‘yidagi hududlarda) o‘sadi.

Adabiyotlar tahlili

Jahon bo‘ylab tropik va subtropiklarda keng tarqalgan zararli o‘t. An’anaviy tibbiyot, hazm muammolari, mensturatsiya, yaralar, teri, rag‘batni yaxshilash bilan foydalaniladi. Ilmiy dalillar: Antioksidant, anti-inflammatoriy, neyroprotektiv, gastroprotektor, kardiobodiyat, antimikrobal ta’sirlar aniqlangan. Антиоксидант, анти-инфламматорий, нейропротектив, гастропротектор, кардиободият, антимикробал таъсирлар аниқланган. Cyperus rotundus an’anaviy tibbiyotda qadimdan qo‘llangan va zamonaviy tadqiqotlar tomonidan ham turli faol farmakologik ta’sirlari tasdiqlangan shifobaxsh o‘simlikdir.

Cyperus rotundusning fitokimyoviy tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, o‘simlik tarkibidagi asosiy kimyoviy komponentlar efir moylari, terpenoidlar, flavonoidlar, yog‘ kislotalari va seskiterpenlar va askorbin kislotasi va ildizlarida 0,5% gacha efir moyi bo‘lishi o‘simlikda aniqlangan. Ushbu moy tarkibida α-siperon, β-siperon, β-pinen, kamfen, limonenlar mavjud. Rotundon dastlab Cyperus rotundus ildizlarida topilgan. Bu ularning ta’midagi xushbo‘yligini bildiradi. O‘simlikning ildizlari tarkibidagi glitserin, linolein va olein kislotalari hamda 7% mum mavjudligi aniqlangan.

Fitokimyoviy moddalar C. rotundus ildizpoyalaridan qutbliligi ortib boruvchi erituvchilar bilan ketma-ket Soxlet texnikasi bilan ajratilgan. Olingan ekstraktlar ularning umumiy flavonoid tarkibi (TFC), umumiy fenolik tarkibi (TPC), umumiy proantotsianidin miqdori (TPAC), in vitro antioksidant salohiyati va lipid peroksidlanishini inhibe qilish uchun tahlil qilindi. CRR ning 70% atseton

ISSN 3030-3907

ekstrakti ehtimoliy fitokimyoviy moddalar uchun gaz xromatografiyasi-mass spektrometriyasi (GC-MS) yordamida tahlil qilindi.

C. rotundus rizom (CRR) ekstrakti bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar metil 3,4-dihidroksibenzoat, ipolamiid, 6-b-gidroksiipolamidi va rutin mavjudligini ma’lum qildi, shuningdek, CCl4-3] gepatitlarining shikastlanishida etil asetat fraktsiyasi va metanolik fraktsiyadan foydalanishni aytdi. Lidiya J va Sudarsanam C. rotundus L.dan 15-Hidroksi-4-okso-10-pentadesinoik kislota laktonini aniqladilar. Yaqinda CRR ning metanol ekstraktidan fenolik birikma bo‘lgan rotunduzid ajratildi va uning sichqoncha modellari bilan potentsial antidepressant faolligi ko‘rsatildi.[3]

Ammo, CRR dan faol molekulalarni ajratib olish uchun eng yaxshi erituvchi tizimni tanlashda cheklangan ma'lumotlar mavjud. Shu sababli, hozirgi tadqiqot eng yaxshi erituvchi tizimni optimallashtirish va CRRdagi mumkin bo‘lgan fitokimyoviy moddalarni bioprospekt qilishdan iborat.

Dumaloq ildizmevalari o‘simlikning dorivor xususiyatlari bir qator fitokimyoviy va farmakologik tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Olimlar o‘simlik turli xil ta’sir ko‘rsatishi uchun ildiz va ildizpoyalari tarkibidagi efir moylari, askorbin va fenolik kislotalar, flavonoidlar ko‘rinishidagi faol moddalarning yuqori konsentratsiyaga ega ekanligini aniqladilar.[4]





Cyperus rotundus barglari va urug‘lari ovqat hazm qilish tizimini yaxshilaydigan, ishtahani rag‘batlantiradigan samarali bakteritsid va fungitsid birikmalariga ega uchuvchi yog‘larning boy manbalaridir. Taninlar, alkaloidlar, efir moylari (α-longipinan, β-selin, siperen va karyofilin oksidi) va flavonoidlar (antosianidlar, katexinlar, flavonlar, flavanonollar va izoflavanlar) tibbiyotda ishlatiladigan biologik va terapevtik xususiyatlar mujassam bo‘lgan faol moddalardir.[5]

Yosh o‘simlikning poya asosida birlamchi ildizpoya rivojlanadi, ildizpoya uchida esa tuganak hosil bo‘ladi, undan yangi ildizpoyalar yon atrofga yoyilib ketadi va ularda tuganaklar hosil bo‘ladi. Bulardan yangi novdalar o‘sib chiqadi. Har bir o‘simlik tuproq sharoitiga qarab yon, qo‘shimcha ildizpoyalar hosil qiladi, ulardan ham yer ustiga yangi poyalar o‘sib chiqadi. Ildizpoyasidan tayyorlangan

ISSN 3030-3907

damlama xalq tabobatida terlatuvchi va siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi.[6]

Cyperus rotundusning antiandrogen, antibakterial, saratonga qarshi, konvulsiyaga qarshi, antidiyabetik, diareyaga qarshi, antigenotoksik, yallig‘lanishga qarshi, gepatitogen va antioksidlovchi sifatida ahamiyati aniqlandi. U qadimgi yunon tabiblari Teofrast, Pliniy Elderlar tomonidan ham dori, ham parfyumeriya sifatida ishlatilgan [7]. U quruq sharoitlarni afzal ko‘radi, lekin nam tuproqlarga toqat qiladi va ko‘pincha cho‘l va ekin maydonlarida o‘sadi. Cuperus rotundus ko‘plab fermentlar mavjud uglevodlar va turli xil katalizatorlar bo‘lgan minerallar uchun biokimyoviy reaksiyalar va xazmsizlik uchun ham foydalidir.[8]

Cyperusning ildizlari va ildizpoyalari rotundus dastlabki kimyoviy tahlilda aniqlangan tarkibida betasterol, siperen, siperol, flavonoidlar, sesquiterpenoidlar, askorbin kislota va polifenollar. U dan o‘z vaqtida qiziqish, o‘simlikdan yangi antioksidantlarni izlash manbalari so‘nggi paytlarda katta qiziqish uyg‘otdi flavonoidlarning bioaktivligiga, askorbinga qaratilgan kislota va polifenollar antioksidantning parhez manbalari sifatida. Shunday qilib, hozirgi muloqot bilan shug‘ullanadi ildizlarning antioksidant faolligini baholash va C. rotundus L ning ildizpoyalari. Gemoglobin Nice Chemicals Pvt.dan sotib olingan. Ltd., Cochin. Glyukoza va datokoferol bor edi Merck, Mumbay shahridan sotib olingan. Askorbin kislotasi va gentamitsin Biokem International Pvt kompaniyasidan olingan. Ltd., Bangalor va Nicholas Piramal India Ltd. Pithampur, mos ravishda. Boshqa barcha reagentlar va erituvchilar ishlatilgan, analitik darajada edi. C. rotundus L. ning ildizi va ildizpoyalari yig‘ilgan Panua shahridan, G‘arbiy Bengaliyaning Bankura tumanida iyun oyi va Markazda autentifikatsiya qilingan Milliy gerbariy, Hindiston botanika tadqiqoti, Howrah, G‘arbiy Bengaliya. Vaucher namunasi saqlangan kelajakda foydalanish uchun laboratoriyamiz (DPS 1). Soyali,
chang, elakdan o‘tkazilgan (40 mesh hajmi) o‘simlik materiallari edi neft efiri bilan ketma-ket qazib olinadi

Cuperus rotundus uchuvchi moylarining kimyoviy tarkibi keng o‘rganilib, Osiyoning turli qismlaridan olingan efir moylarining to‘rtta kimyo tipi (H-,K-,M-O-tiplari) haqida xabar berilgan. Yaponiyadan H-tipi tarkibida α -siperon (36,6%), b-selin (18,5%), siperol (7,4%) va karyofilin (6,2%) borligi aniqlangan. Xitoy, Gonkong, Yaponiya, Tayvan va Vetnamdagi M-tipida α -siperon (30,7%), siperotundon (19,4%), β-selinen (17,8%), siperen (7,2%) va siperol (5,6%) mavjud edi. Yaponiya, Tayvan, Tailand, Gavayi va Filippindagi O-tipi siperen (30,8%), siperotundon (13,1%) va β -elemen (5,2%) borligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, Gavayi O-tipida asosiy birikmalar sifatida siperotundon (25,0%) va siperen (20,7%) mavjud edi. K-tipi, shuningdek, Gavayi orollarida siperen

ISSN 3030-3907

(28,7%), siperotundon (8,8%), pachulenil asetat (8,0%) va sugeonilatsetat (6,9%) ustunlik qilgan.

N	Tayyorlama turi	Qism/ formulyatsiya	Me'yor/ doza	Maqsad/foydalanish konteksti	manbaa
1	nastoy	5-100 mg→ qaynatma	50-100ml/ kun, 2-3bo'lib	Hazm muammolari, yallig'lanish, minstural buzilish	https://anantamayurveda.com/nagarmotha-cyperus-rotundus-nagarmotha-benefits/?utm_source=chatgpt.com
2	Nastoy TMS	6-9gr /ba'zan 12 gr	Kuniga 1 mahal	QI tartib, dysmenoreya	https://acupuncturetoday.com/herbs-and-botanicals/cyperus-xiang-fu?utm_source=chatgpt.com
3	sirop/ tinsture	2-3gr tincture	Kuniga 1 doza	Umumiy holat bo'yicha	https://tropilab.com/applicationanddosagecyperus.html?utm_source=chatgpt.com
4	Herbal tea	1-3 tsp →1 stakan	Kuniga 1-3 mahal	Hazm, tinchlantirish	https://healthy.natnin.com/%F0%9F%8C%BF-cyperus-rotundus-natures-hidden-cure-for-over-10-health-issues/?utm_source=chatgpt.com
5	Kapsula/ kukun	250-1000 mg yoki 250-500 mg	Kuniga 1,2 marta	Qulay formulaga tayanib foydalanish	https://healthy.natnin.com/%F0%9F%8C%BF-cyperus-rotundus-natures-hidden-cure-for-over-10-health-issues/?utm_source=chatgpt.com
6	malham	Alhologik ekstrakt= nitrofurazone ta'sir	Tashqariga suriladi	Yaralar, jarohatlar	https://tropilab.com/cyperustea.html?utm_source=chatgpt.com

ISSN 3030-3907

7	Poultice	Tuber,barg yog‘ bilan pasta	Tashqariga suriladi	Yallig‘lanish, yallig‘ jarohat	https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8443348/?utm_source=chatgpt.com

Xulosa

Cyperus rotundus ildizpoyalari va ildizlarining fitokimyosi biologik xossalari va klinik qo‘llanilishiga qaratilgan. Biroq, bu dorivor ahamiyatga ega o‘simlikning boshqa qismlari bo‘yicha bunday tadqiqotlar hali ham o‘rganilishi kerak. Bundan tashqari, kelajakdagi tadqiqotlar inson sub’yektlarida yangi terapevtik vositani ishlab chiqish uchun ishlatishdan oldin ushbu o‘simlikning klinik faoliyati va xavfsizligini tasdiqlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Oxirgi yigirma yillikdan beri Cyperus rotundusning kimyoviy tarkibiy qismlari va farmakologik faolligini tekshirishga turli urinishlar qilindi. Afsuski, bunday keng qamrovli o‘rganilgan dorivor o‘simlik bo‘yicha hech qanday sharh nashr etilmagan, jumladan, uning botanika, an’anaviy qo‘llanilishi, fitokonstitutsiyalari, terapevtik faoliyati va klinik qo‘llanilishi.

Xitoy, Yaponiya va Hindistonning Ayurveda tibbiyoti tizimlarida Cyperus rotundus bir nechta klinik kasalliklarni davolash uchun juda mashhur va tez-tez ishlatiladigan an’anaviy tibbiyot (tonik) hisoblanadi. Bu o‘zining istiqbolli terapevtik xususiyatlari tufayli butun dunyoda keng o‘rganilgan o‘simlik turidir. Shuning uchun, bu o‘simlik turi farmakologik mahsulotlarni ishlab chiqish uchun ishlatilgan. In vivo va in vitro tadqiqotlari uning turli etnomedik va potentsial farmakologik faolligini isbotladi.[14]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov.I.R. Sirli tabobat T:Fan va texnlogiyalar nashriyot-matbaa uyi. Toshkent. 2021-y–B.1010

2. Lin S, Zhou Z, Zhang H, Yin W. Phenolic glycosides from the rhizomes of Cyperus rotundus and their antidepressant activity. J Korean Soc Appl Biol Chem. 2015;58:685. Jurnal “Etnofarmakol”. 2013y.

3. SH.J.Tojiboyev.,N.H.Qarshiboyeva “Botanika yuksak o‘simliklar sistematikasi”. Namangan 2015.

4. Middha SK, Usha T, Pande V. HPLC evaluation of phenolic profile, nutritive content and antioxidant capacity of extracts obtained from Punica granatum fruit peel. Adv Pharmacol Sci. 2013;1:296236. doi: 10.1155/2013/296236.

5. Patel MV, Patel KB, Gupta SN. Effects of ayurvedic treatment on forty-three patients of ulcerative colitis. Ayu. 2010;31:478–81. doi: 10.4103/0974-8520.82046.

ISSN 3030-3907

6. Komai, K.;Shimizu, M.;Tang, C.T.;Tsutsui, H. Sesquiterpenoids of *Cyperus bulbosus*, *Cyperus tuberosus* and *Cyperus rotundus*. *Mem.Fac.Agr. Kinki Univ.*1994,*27*,39–45.
7. Pliniy Elder Nazariy va eksperimental kimyo Kimyoviy texnologiyaning xalqaro ilmiy-amaliy va zamonaviy muammolari mavzusida Qarshi davlat universiteti konferensiyasi 2023y.

ISSN 3030-3907

SUN’IY INTELLEKTDA MATEMATIK USULLAR

Ulasheva Shakhlo Tagaevna
Qarshi davlat texnika universiteti v.b. dotsent,
Sharapova Mukhabbat Arapovna
Qarshi davlat universiteti professor,
Ulasheva Shokhista Tagaevna
Toshkent shahar Yunusobod tumani 220-maktab matematika fani o‘qituvchisi,

Annotatsiya: Sun’iy intellekt, ya’ni sun’iy ong, zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida insoniyat hayotining barcha sohalariga tezlik bilan kirib bormoqda. Uning rivoji, imkoniyatlari va tatbiq etilishi ko‘plab nazariy va amaliy masalalarni o‘z ichiga oladi. Sun’iy intellektning asosiy qismlaridan biri va uning poydevorini tashkil etuvchi soha bu matematik usullardir. Matematik usullarsiz na sun’iy intellekt algoritmlarini qurish, na ma’lumotlarni qayta ishlash va na asosli tahlil olib borish mumkin. Zero, matematika sun’iy intellekt uchun asosiy til, qoidalar majmuasi va ishonchli qurilma sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu maqolada sun’iy intellekt tizimlarining yaratilishi, rivojlantirilishi va tahlilida qo‘llanilayotgan matematik usullar keng va chuqur yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, matematik usullar, ehtimollar nazariyasi, statistik tahlil, chiziqli algebra, optimallashtirish, neyron tarmoqlar, mashinani o‘qitish, matematik modellashtirish, graf nazariyasi.

Аннотация: Искусственный интеллект, то есть искусственное сознание, стремительно входит во все сферы жизни человека в результате развития современных технологий. Его развитие, возможности и применение затрагивают множество теоретических и практических вопросов. Одной из основных частей искусственного интеллекта и областью, составляющей его основу, являются математические методы. Без математических методов невозможно построение алгоритмов искусственного интеллекта, обработка данных и проведение полноценного анализа. Ведь математика служит основным языком, набором правил и надежным инструментом для искусственного интеллекта. Поэтому в данной статье дается широкое и глубокое освещение математических методов, используемых при создании, разработке и анализе систем искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, математические методы, теория вероятностей, статистический анализ, линейная алгебра, оптимизация, нейронные сети, машинное обучение, математическое моделирование, теория графов.

Abstract: Artificial intelligence, that is, artificial consciousness, is rapidly entering all spheres of human life as a result of the development of modern technologies. Its development, capabilities and application involve many theoretical and practical

ISSN 3030-3907

issues. One of the main parts of artificial intelligence and the area that forms its foundation is mathematical methods. Without mathematical methods, neither artificial intelligence algorithms can be built, nor data processing, nor a sound analysis can be carried out. After all, mathematics serves as the main language, set of rules and a reliable tool for artificial intelligence. Therefore, this article provides a broad and in-depth coverage of the mathematical methods used in the creation, development and analysis of artificial intelligence systems. **Keywords:** artificial intelligence, mathematical methods, probability theory, statistical analysis, linear algebra, optimization, neural networks, machine learning, mathematical modeling, graph theory.

Kirish

Sun’iy intellekt va informatika rivojida matematik statistik usullar hamda ehtimollar nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, sun’iy intellekt tizimlari ayrim hollarda to‘liq ma’lumotlar asosida emas, balki ehtimollik va statistik taxminlarga suyanadi. Shu sababli, bu sohani chuqur rivojlantirish uchun statistika, ehtimollar nazariyasi, regressiya tahlili, chiziqli va chiziqsiz modellashtirish asosiy vositalargadir. Sun’iy intellektda ko‘pincha kiritiladigan ma’lumotlar turli manbalardan keladi va ular noaniq bo‘ladi. Bunday vaziyatdan to‘g‘ri chiqish uchun statistik usullardan foydalaniladi va ular natijasida moslashuvchan, robust sun’iy intellekt tizimlari vujudga keladi. Sun’iy intellekt tizimlarida algebraik va analizga oid usullar, xususan, chiziqli algebra, matritsalar nazariyasi va tenzor hisoblari, algoritmik texnologiyalarni rivojlantirishda asosiy o‘rin egallaydi. Mashinani o‘qitishda, asosan, vaznli koeffitsientlar bilan ishlashda va ma’lumotlarni turli joylarga sochish, to‘plash, va qismlarga ajratishda chiziqli algebra yetakchi rol o‘ynaydi. Masalan, neyron tarmoqlar arxitekturasi, signallarni uzatish va qabul qilish, o‘zgaruvchilar maydonini moslashtirishda matritsalar, vektorlar va tenzorlar faol ishlatiladi. Bundan tashqari, funksional analiz va optimallashtirish nazariyasi ham sun’iy intellekt samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Algoritmlarni ishlab chiqishda kombinatorika va diskret matematikaning ham ahamiyati kattadir. Tashkiliy masalalarning ko‘pchiligi diskret tuzilmalar yordamida hal qilinadi. Sun’iy intellektda optimal marshrutlarni aniqlash, tarmoqlarni optimallashtirish va ulardagi bog‘lanishlarni tadqiq etishda graf nazariyasi va kombinatorika imkoniyatlariga ehtiyoj tug‘iladi. Ma’lumotlar tuzilmasi, graf algoritmlari, marshrutlash va turli tanlash masalalari kombinator matematika yordamida yechiladi. Amaliy jihatdan esa, sun’iy intellekt tizimlarini qurishda matematik modellashtirish muhim o‘rin tutadi. Haqiqiy hayotdagi jarayonlarni sun’iy intellekt tizimlarida aks ettirish uchun o‘xshash matematik

ISSN 3030-3907

modellar tuziladi. Bu jarayonlarda asosiy element differensial tenglamalar, ehtimollik modellar, Markov zanjirlari, Bayes tarmoqlari kabi elementlardir. Aynan ushbu model va usullar hisobiga sun’iy intellekt tizimlari muayyan muammolarni hal etishda yuqori aniqlikka erishadi [1].

Sun’iy intellektda optimallashtirish usullari ham keng qo‘llaniladi. O‘rgatuvchi va o‘rganadigan algoritm tuzishda ham, so‘rovlarning eng samaralisini tanlashda ham, parametrlarni moslashtirishda ham optimallashtirish masalalari ko‘p uchraydi. Optimallashtirishning asosi ham matematika, xususan, matematik analiz va maxsus algoritmik usullardir. Gradientlar, to‘g‘ri va orqaga tarqatish, stokastik gradient usullari, Lagrang multiplikatorlari, cheklovli va cheklovsuz optimallik masalalari ushbu sohada munkin bo‘lgan imkoniyatlarni kengaytiradi. Ularning yordamida sun’iy intellekt o‘z ustida muntazam ravishda ishlaydi, algoritmlar o‘zini takomillashtiradi. Ajoyib taraqqiyotga erishayotgan sohalardan biri bu mashinani o‘qitish (Machine Learning) va chuqur o‘qitish (Deep Learning) tizimlari hisoblanadi. Ularning algoritmlarini tushunish va samarali ishlab chiqish uchun statistik modellash, chiziqli va chiziqmas regressiya, klasterlash, asosiy komponentlar tahlili (PCA), ko‘plab matematik asosli yondashuvlar ishlatiladi. Neyron tarmoqlardagi oraliq qatlamlar, faoliyat funktsiyalari, gradient desent, normalizatsiya va boshqa ko‘plab mexanizmlar matematik modellar va hisoblashlar asosida tashkil etiladi. Ma’lumotlarni tozalash, xususiyatlarini chiqarib olish, tantanalash, klassifikatsiya va prognozlash jarayonida ham matematik formulalar asosiy rol o‘ynaydi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sun’iy intellekt tizimlarining aniqlik va ishonchliligini oshirishda ehtimollik asosidagi usullar, Bayes teoremasi, statistika va matematik tahlil vositalaridan ham keng foydalaniladi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda matematik statistik usullar model natijalarini aniq prognozlash, taxmin qilinadigan natijalarni aniqlash, avtomatik klassifikatsiya va tanish uchun yordam beradi. Eng yangi o‘quv algoritmlarida, ayniqsa o‘z-o‘zini o‘rganuvchi tizimlarda va mustahkamlovchi o‘qitishda (reinforcement learning) matematik optimallashtirish, ehtimolar nazariyasi va Markov jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Bu sohada harakatlarni tanlash, mukofotlarni topshirish, optimal strategiyalar aniqlashda matematik tahlil va hisoblashlar ishlatiladi. Shu orqali sun’iy intellekt tizimlari yangi bilimlarni mustaqil olish va yangi vazifalarga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natural tilni qayta ishlash (NLP), tasvirni aniqlash (Computer Vision), nutqni tanish, generativ tizimlar va boshqa sun’iy intellekt yo‘nalishlarida ham matematik usullarning ahamiyati juda katta. Formal tillar nazariyasi, ehtimollik modellari, markovli jarayonlar, vektor fazolar, matritsa hisoblari, statistik tahlil, korrelyatsiya va kovariatsiya, normallashtirish va sinfikatsiyadan keng miqyosda

ISSN 3030-3907

foydalaniladi. Bu natijada sun’iy intellekt tizimlari inson faoliyati uchun foydali bo‘ladigan, yuqori aniqlik va ishonchlilikka ega bo‘ladi [3].

Matematik modellashtirish va metodlar sun’iy intellektdagi algoritmlarning samaradorligini oshirish, ularga moslashuvchanlik, barqarorlik va ishonchlilik kiritish, eng optimal yechimlarni ishlab chiqish va natijalarni aniq aniqlashga xizmat qilmoqda. Xususan, ma’lumotlarni tuzilishiga ko‘ra klasterlash yoki klassifikatsiyalash, parametrlarga moslashuvchanlik, tarmoqlarning tuzilishini optimallashtirish, mos yozuvlarning qisqa va tez tahlili kabi amaliy masalalarda matematik sohalarning roli beqiyosdir. Ma’lumotlar tahlilida matematik statistik usullar yordamida kerakli xususiyatlarni ajratish, kutilmagan holatlarni aniqlash, va real hayotga mos tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Sun’iy intellekt tizimlarida ma’lumotlarni kodlash, siqish, buzilish holatlarida uzluksizlikni ta’minlash kabi masalalar ustida ishlashda matematik analiz, integral va differensial tenglamalar alohida ahamiyat kasb etadi. Grafik va chizmalar yordamida ma’lumotlar orasidagi bog‘liqliklarni tez va samarali topish uchun ham matematik metodlar asosiy tanlov hisoblanadi [4].

Sun’iy intellekt algoritmlarini soddalashtirish va tezlashtirish uchun matematik aproksimatsiya usullari va hisoblash modellari ham keng miqyosda tadbiq etiladi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun ular qisqartiruvchi algoritmlar orqali natijalarni tez olish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, statistik ehtimollikka asoslangan filtrlar, prognozlash usullari va rasmiy tahlil imkoniyatlari yuzaga keladi. Shuningdek, dasturiy qurilmalar, apparat tezlatkichlari yordamida matematik algoritmlarni samarali parallel bajarish imkoniyatlari sun’iy intellekt amaliyotida ahamiyatini oshirmoqda. Neyron tarmoqlarning samarali ishlashida grafik protsessorlar, cheklangan resurslar va tezkorlikni ta’minlashdagi matematik yordam natijasida turli sohalar uchun ishlaydi. Dastlabki ma’lumotlarni tayyorlash, protsessing va toza natijaga erishishda matematik algoritmlar ishonchli va samarali natijalarni kafolatlaydi. Sun’iy intellekt uchun matematik usullar nafaqat nazariy masalalarni hal qilish, balki amaliyotda optimal natijalarga erishishda ham asosiy o‘rin tutadi. Innovatsion masalalarda, yangi bilimlarni ishlab chiqishda, inson aql-idrokini sun’iy ravishda modellashtirishda matematik yondashuvlar yetakchi ahamiyatga ega. Shu sababli, sun’iy intellektning kelajakdagi taraqqiyoti ham aynan matematik tadqiqotlar, yangi algoritmlar va matematik model va usullarga bog‘liq bo‘ladi [5].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt tizimlarida matematik usullarning o‘rni beqiyos va muhimdir. Yangi texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va boshqa sohalar sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun matematik bilim va tajribaga

ISSN 3030-3907

tayanishi shart. Yangi avlod sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va amaliyotda tatbiq etish uchun, eng zamonaviy va ilg‘or matematik usullarni chuqur o‘rganish, tajriba va amaliyotda tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellektning samarali ishlashini, rivojlanishini va insoniyat foydasiga xizmat qilishini ta’minlash uchun matematik usullar va yondashuvlar har doim asosiy va muhim bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukarimov, S. (2020). "Sun’iy intellekt asoslari va uning matematik modellari." Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
2. Akhmedova, G. S. (2019). “Sun’iy intellekt tizimlarida statistik tahlil va ularning qo‘llanilishi.” Informatika va axborot texnologiyalari, 2(16), 88-94.
3. Alimova, N. N. (2017). “Neyron tarmoqlarda matematik modellashtirish asoslari.” Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
4. Bobojonov, K. (2018). "Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt: matematik masalalar." Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Esonov, B. T. (2021). "Mashina o‘qitish algoritmlarining matematik asoslari." Informatika va Dasturlash, 3(31), 45-54.
6. G‘ulomov, G., & To‘rayev, D. (2019). "Sun’iy intellektning nazariy asoslari va matematik metodlari." Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
7. Ibragimov, J. T. (2022). "Sun’iy intellektda ehtimollar nazariyasi asoslari." Informatika va Kompyuter Texnologiyalari, 4(38), 61-67.
8. Karimov, H. (2020). "Optimallashtirish va uning sun’iy intellektda qo‘llanilishi." Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
9. Rasulov, F. (2018). “Graf nazariyasi va uning sun’iy intellektdagi qo‘llanilishi.” Matematika va Informatika, 3(12), 100-106.
10. Tursunov, S. (2021). "Sun’iy intellektda matematik usullar: amaliy yondashuv." Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti nashriyoti.

ISSN 3030-3907

MOYLI KUCH TRANSFORMATOR TEXNIK HOLATI BAKINING VIBROAKUSTIK PARAMETRLARIGA ASOSLANGAN IMITATSION MODELIDAN FOYDALANGAN HOLDA EKSPRESS BAHOLASH

I.K. Ismoilov

Fergana state technical university, Fergana, Uzbekistan

E-mail: i.ismoilov@ferpi.uz

Annotatsiya. Moyli kuch transformatorlari elektr tarmog‘ida elektr energiyasini taqsimlashning ishonchliligini ta'minlaydigan asosiy qurilmadir. Bu har bir elektr ta'minoti halqalarini bog‘lovchi uchun yagona qurilma hisoblanadi. Moyli kuch transformatorlarining uzoq muddatli ishonchli ishlashi energiya tizimiga bevosita ta'sir qiladi va ba'zida baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Moyli kuch transformatorlarining texnik holati uning asosiy qismlariing texnik holatiga bogliq. Ushbu maqolada moyli kuch transformatorining bakida ish ekspluatatsiya jarayonidagi vibroakustik parametrlarining nazariy va imitatsion modelida olingan natijalar tahlil qilinadi. Natijada moyli kuch transformatorlarining texnik holatini ekspress-baholash amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: Moyli kuch transformatorlari, vivratsiya, akustika, texnik holatni baholash, imitatsion model, noaniq mantiq, Mamdani usuli (Mamdani fuzzy logic), Matlab Simulink, issiqlik parametrlari, diagnostika va monitoring, aktiv quvvat yo‘qotishlari, Ekspress diagnostika

Аннотатция. Силовые масляные трансформаторы являются основными устройствами, обеспечивающими надежность распределения электрической энергии в электросети. Они являются единственными устройствами, связывающими каждый контур электроснабжения. Длительная надежная работа силовых масляных трансформаторов напрямую влияет на энергосистему и иногда может приводить к авариям. Техническое состояние силовых масляных трансформаторов зависит от технического состояния его основных узлов. В данной статье анализируются результаты, полученные в теоретико-имитационной модели виброакустических параметров в баке силового масляного трансформатора в процессе эксплуатации. В результате проведена экспресс-оценка технического состояния силовых масляных трансформаторов.

Ключевые слова: Силовые масляные трансформаторы, вибрация, акустика, оценка технического состояния, имитационная модель, нечеткая логика, нечеткая логика Мамдани, Matlab Simulink, тепловые параметры, диагностика и мониторинг, потери активной мощности, экспресс-диагностика

Abstract. Power oil transformers are the main devices that ensure the reliability of electric energy distribution in the power grid. They are the only devices that

ISSN 3030-3907

connect each power supply circuit. Long-term reliable operation of power oil transformers directly affects the power system and can sometimes lead to accidents. The technical condition of power oil transformers depends on the technical condition of its main units. This article analyzes the results obtained in the theoretical and simulation model of vibroacoustic parameters in the tank of a power oil transformer during operation. As a result, an express assessment of the technical condition of power oil transformers was carried out.

Keywords: Power oil transformers, vibration, acoustics, condition assessment, simulation model, fuzzy logic, Mamdani fuzzy logic, Matlab Simulink, thermal parameters, diagnostics and monitoring, active power losses, express diagnostics

Kirish.

Moyli kuch transformatorlari elektr energiya tizimlarining eng muhim elementlaridan hisoblanadi [2-7]. Butun sanoat tarmoqlari va aholi hayotiturmush tarzi ularning ishonchli va uzluksiz ishlashiga bog‘liq [1-9]. Vaqt o‘tishi bilan moyli kuch transformatorlarning asosiy elementlari turli omillar (elektr yuklama, ortiqcha qizish, tebranish va boshqalar) ta’sirida texnik holati yomonlashadi. Bu esa moyli kuch transformatorning texnik holati yomonlashishiga va ishdan chiqish xavfining oshishiga olib keladi [2-11]. Elektr energiyasiga bo‘lgan talab ortib borayotgani va elektr ta’minotining ishonchliligi talablarining kuchayishi sharoitida, moyli kuch transformatorlarda nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda [8-19]. Shu sababli, hozirgi kunda moyli kuch transformatorlarni texnik diagnostika qilishning yangi, yanada aniq, informativ va tezkor usullari ishlab chiqilmoqda [2-12]. Diagnostikalash moyli kuch transformatorlarning ishonchliligini oshirish va avariyaviy o‘chirishlar xavfini kamaytirish imkonini beradi [2-12]. Diagnostikalash moyli kuch transformatorlarning ishlash sharoitlarini optimallashtirishga yordam beradi, bu esa ularning ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga olib keladi [15-23]. Diagnostikalash yordamida moyli kuch transformatorlarning ularni ta’mirlash yoki almashtirishga bo‘lgan ishlar optimallashtiriladi [22-30]. Yuqorida keltirilgan maqolalar moyli kuch transformatorlarini diagnostikalash dolzarbligini tasdiqlaydi [7-30]. Ularda turli diagnostika usullari, ularning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, moyli kuch transformatorlardagi turli nuqsonlarni aniqlashdagi qo‘llanilishi yoritilgan [2-11].

O‘z vaqtida diagnostika o‘tkazish va nuqsonlarni aniqlash orqali transformatorlarni avariyaviy o‘chirishlarning oldini olish zarurligini ta’kidlaydi [2, 8-20]. Shuningdek, yangi texnologiya va usullarni qo‘llash orqali diagnostika samaradorligini oshirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan [21-30]. Moyli kuch transformatorlarini diagnostika qilish ularni ekspluatatsiya qilishda muhim bosqich

ISSN 3030-3907

hisoblanadi [22-30]. Bu esa ushbu muhim energetika ob'ektlarining ishonchliligi, samaradorligi va xizmat muddatini uzaytiradi [8-23].


Hozirgi kunda moyli kuch transformatorlarni kompleks diagnostikalash, ya'ni turli diagnostika usullarini birgalikda qo'llash va joriy etishga tobora katta e'tibor qaratilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi moyli kuch transformatorlarni diagnostika qilishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Jumladan, noaniq mantiq (fuzzy logic) yordamida diagnostika natijalarini yanada aniq va samarali talqin qilish mumkin bo'ldi.

Tadqiqot usuli. 1974 yilda ishlab chiqarilgan TDTN-40000/110/35.10-U1 rusumli moyli kuch transformatoriga mavjud 110 kVli podstansiyada ekspress diagnostika o'tkazildi. Ekspress diagnostika davomida moyli kuch transformator bakining turli nuqtalarida 50-5000 Hz diapazonda vibroakustik parametrlar o'lchandi.

Moyli kuch transformatorlarining texnik holatini ekspress baholash uchun "agar–unda" (if–then) printsipiga asoslangan noaniq mantiq (fuzzy logic) qoidasi qo'llanildi. Ya'ni, agar magnit o'zak, chulg'am va moy yaxshi holatda bo'lsa, unda moyli kuch transformatori ham yaxshi holatda bo'lishi kerak.


Ushbu holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar raqamli qiymatlarda berilib, lingvistik (so'zli) ko'rsatkichlarni raqamli ko'rsatkichlarga o'tkazish uchun bir qator maxsus qoidalar ishlab chiqilgan. Kiruvchi va chiquvchi o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik "agar–unda" printsipi asosida amalga oshiriladi. Chiqaruvchi va kiruvchi o'zgaruvchilar bahosi o'n xil belgidan biri bilan ifodalanadi: "A+", "A", "A-", "B+", "B", "B-", "C+", "C", "C-", "F", "F-".

Natijalar va muhokama. Vibroakustik xususiyatlar 9 ta nuqtada o'lchab chiqildi. Quyidagi nuqtalarda minimal qiymatdan biroz yuqori tebranish darajasi qayd etildi: bakning pastki qismidagi ikki tomon, yuqori qismi, va bakning o'rta nuqtasining ikki tomoni. 50-1000 Hz chastota diapazonida tebranish darajasi o'rtacha bo'lib, 88 dB me'yoriy chegaradan ancha past ekanligi aniqlandi (1–3-rasmlar).



1-rasm. Bakning yuqori tomoni (A faza), pastki qismining vibroakustik xarakteristikasi (TDTN-40 000/110/35/10)

ISSN 3030-3907




2-rasm. Bakning yuqori tomonidagi pastki qismining (B faza) vibroakustik xarakteristika (TDTN-40 000/110/35/10)



3-rasm. Bakning yuqori tomonidagi pastki qismining (C faza) vibroakustik xarakteristika (TDTN-40 000/110/35/10)

Natijalar 1000 Gts gacha bo‘lgan diapazonda tahlil qilinadi. 7 ta maksimum nuqta kuzatildi. Har bir maksimumda tegishli chastota va tovush tezlanishi mavjud. Masalan, 1-rasmda 100 Gts da 72 dB, 2-rasmda 450 Gts da 56 dB, 3-rasmda 600 Gts da 49 dB va boshqa maksimumlar uchun ham shu tarzda qiymatlar aniqlangan. Ushbu qiymatlar noaniq mantiq asosida tahlil qilinadi. Har safar chulg‘amdagi tezlanish moyli kuch transformatorining asosiy qismlaridan biriga mos keladi.

Moyli kuch transformatorlarida vibroakustik parametrlarni aniqlash jarayoni quyidagi blok-sxema yordamida bayon qilamiz (4-rasm).



4-rasm. Moyli kuch transformatorida yuzaga keladigan vibroakustik parametrlari shakllanish jarayonini ifodalovchi blok-sxemsi

ISSN 3030-3907

Moyli kuch transformatorlaridagi tebranish manbalari asosan uning aktiv qismlarida hosil bo‘ladi. Moyli kuch transformatorlarining magnit o‘zagi va chulg‘amlari asosiy tebranish manbasi hisoblanadi va ular ushbu tebranishlarni o‘zining asosiy qismlari orqali moyli kuch transformator bakiga uzatadi. Moyli kuch transformatori moyi esa bakka uzatilayotgan tebranish parametrlari o‘zgarishini ta’minlovchi asosiy muhit hisoblanadi. Moyli kuch transformatorning uzoq muddat ishlashi davomida, unda qisman razryadlar natijasida hosil bo‘ladigan mexanik cho‘kindilar va pufakchalar konsentratsiyasi oshishi natijasida moyning fizik-kimyoviy xossalari o‘zgaradi va bu bevosita uzatiladigan tebranish parametrlariga ta’sir qiladi. Shuning uchun, transformator moyining texnik holatini vibroakustik parametrlar spektri orqali baholash mumkin.


Moyli kuch transformator elementlari o‘zaro ta’sirlashayotgan kuchlar natijasida, ularning bir-biriga nisbatan fazoviy siljishi oqibatida yo‘qotishlar yuzaga keladi. Bu jarayonni quyidagicha bayon qilish mumkin.

$$\sum_i (F_i - m_i a_i) \cdot \delta r_i = 0 \qquad (1)$$

Bu yerda, i – moyli kuch transformatori elementlarining soni; δr_i — transformator elementi fazoviy siljishi; F_i — transformator tizimida hosil bo‘ladigan kuchlarning geometrik yig‘indisi. Ushbu formula D’Alembert prinsipi asosida uzluksiz tuzilmaning diskretlashtirilgan ko‘rinishida ifodalanadi. Natijada, transformator elementi uchun massa, qattiqlik va tebranish (dempferlik) xarakteristikasini o‘z ichiga olgan tenglama quyidagi ko‘rinishda yoziladi:


$$\{F(t)\} = [M] \cdot \{\ddot{u}\} + [C] \cdot \{\dot{u}\} + [K] \cdot \{u\} \qquad (2)$$

Bu yerda, $[M]$ - elementning konstruktiv massa matritsasi; $[C]$ - elementning viskoz so‘nish (dempferlik) matritsasi; [K] - moyli kuch transformator moyining qattiqlik (yoki elastiklik) matritsasi; $\{\ddot{u}\}$ - tugunlarning tezlanish vektori; $\{\dot{u}\}$ - tugunlarning tezlik vektori; {u} - tugunlarning siljish vektori; {F(t)} - kuchning vaqt bo‘yicha o‘zgarish funksiyasi. Ushbu ifoda transformator tizimining o‘tkinchi (transient), modalli (model) va garmonik (harmonik) xususiyatlarini ifodalaydi.




5-rasm. Kirish o‘zgaruvchisi parametrlarning a‘zolik funksiyasidir

ISSN 3030-3907



6-rasm. Noaniq mantiqning Mamdani usulidan foydalangan holda “Moyli quvvat transformatori”ning texnik holatini ekspress diagnostikasining chiqish qiymatilari interfeysi



7-rasm. Moyli kuch transformatorining texnik holatini vibroakustik parametrlarga asoslanib aniqlashning tuzilma sxemasi

Kirish va chiqish o‘zgaruvchilari uchun mos ravishda mansublik funksiyalari ishlab chiqilgan. Noaniq mantiq yordamida texnik holatni baholashda kirish va chiqish o‘zgaruvchilari uchun T, L, γ — sinflar bo‘yicha a’zolik funksiyalari aniqlanadi. Kirish va chiqish o‘zgaruvchilari o‘rtasida bog‘liqlik qoidalari o‘rnatilgan. Chiqish o‘zgaruvchisidagi har bir noaniq to‘plam uchun umumiy masublik funksiyasi aniqlandi. Chiqish natijasini olish jarayonida sentroid (markazlashtirish) metodi qo‘llanildi va quyidagicha ifodalandi:

$$\text{1-qoida: } W_{(V)1} = \min\left(\mu_{A+}(V_1), 1\right) \rightarrow \mu_{A+}(y_{trans(1)})$$

$$\text{2-qoida: } W_{(V)2} = \min\left(\mu_{A}(V_2), 1\right) \rightarrow \mu_{A}(y_{trans(2)})$$

$$\text{11-qoida: } W_{(V)11} = \min\left(\mu_{F-}(V_{11}), 1\right) \rightarrow \mu_{F-}(y_{trans(11)})$$

Chiqish o‘zgaruvchisidagi har bir noaniq (fuzzy) to‘plam uchun umumiy masublik funksiyasini aniqlash:

$$\mu^*_{A+}(y_{trans(1)}) = \max\left(W_{(V)1}, 0\right)$$

$$\mu^*_{A}(y_{trans(2)}) = \max\left(W_{(V)2}, 0\right)$$

$$\mu^*_{F-}(y_{trans(11)}) = \max\left(W_{(V)11}, 0\right)$$

Vibratsion tezlanish qiymati orqali moyli kuch transformatorining texnik holatini aniqlash jarayonida markazlashtirish (sentroid) metodi quyidagicha qo‘llaniladi:

ISSN 3030-3907

$$Y_{Trans} = \frac{\sum_{i=1}^{11} W_{(V)i} * \mu_i^*(y_{trans\,(i)})}{\sum_{i=1}^{11} \mu_i^*(y_{trans\,(i)})}$$

Tajriba asosida aniqlangan vibroakustik parametrlarga ko‘ra, moyli kuch transformatorining magnit o‘zagining texnik holati belgilangan tartib asosida, chulg‘am va moydagi shikastlanish belgilari bilan bog‘liq holda baholanadi.



8-rasm. Moyli kuch transformatorining texnik holatini ekspress baholashning Simulink modeli

8-rasmda keltirilgan simulyatsiya modeliga muvofiq, moyli kuch transformatorining texnik holati vibroakustik parametrlar asosida baholandi. Matematik model kiruvchi o‘zgaruvchilar qiymatiga qarab yutish (so‘nish) koeffitsiyentlari va transformatorning umumiy texnik holatini hisoblab chiqildi. Masalan, 1-rasmda -100 Gts da 72 dB maksimum; 2-rasmda - 450 Gts da 56 dB; 3-rasmda - 620 Gts da 49 dB va boshqa maksimumlar uchun ham shunga o‘xshash qiymatlar aniqlandi. Dastur natijalari bo‘yicha, 100 Gts da 72 dB maksimum har doim kuzatiladi va bu pik magnit o‘zakda magnitostriksiya natijasida hosil bo‘ladigan elektromagnit kuchlar hamda chulg‘amda elektrodinamik jarayonlar ta’sirida yuzaga keladi, va u tarmoq chastotasining ikki barobariga teng bo‘ldi. 450 Gts da 56 dB normal hisoblanadi, agar 60 dB dan oshsa, bu chulg‘amda axial siljish (o‘qi bo‘ylab siljish) mavjudligini ko‘rsatadi va 600 Gts da 49 dB - normal holat. Agar 60 dB dan oshsa, bu transformator magnit o‘zakining to‘yinganligi (saturatsiya) natijasida spektrda uchinchi va beshinchi garmoniklarning ikki barobar ko‘rinishini bildiradi. Agar magnit o‘zak yaxshi siqilgan (presslangan) bo‘lsa, qolgan garmoniklar deyarli kuzatilmaydi. Mexanik shikastlanishlar esa spektrda 400, 500, 600 Gts diapazonlarda harmonik maksimumlarning oshishiga olib keladi.

Xulosa. Moyli kuch transformatorlarining texnik holatini baholash uchun diagnostik parametrlar asosida ishlovchi imitatsion model ishlab chiqildi. Ushbu model transformatorning umumiy texnik holatini aniqlash va baholash imkonini beradi. Tashkillashtirilgan eksperimental tadqiqot natijalari asosida, model yordamida transformatorning muayyan qismi nosozlikka uchrashi ehtimoli va xavf zonalari oldindan prognoz qilinadi. Bu esa, ekspluatatsiyada ishonchlilikni oshirish va avariyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsiev K. A., Shamsiev B. K., Khamidov S. V. Increasing the reliability of the united power systems of central Asia in conditions of energy transition //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 384. – C. 01020.
2. Nasirov T. K. et al. Problems of ensuring reliability and sustainable development of the United energy system of Central Asia under the conditions of energy consumption growth //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 461. – C. 01038.
3. Yusupov D. T. et al. Development of a simulation model for assessing the technical condition of oil power transformers by measuring vibroacoustic parameters //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 510. – C. 04014.
4. Zalizny D. I. The diagnosis technique of abnormal heating of power capacitors //energetika. Proceedings of CIS higher education institutions and power engineering associations. – 2016. – T. 59. – №. 6. – C. 563-572.
5. Yusupov D. T. et al. Development of a simulation model for assessing the technical condition of the magnetic circuit of oil power transformers by measuring the temperature of the tank and the external environment //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 510. – C. 04013.
6. Lankin A., Baklanov A., Lankin I. Analysis of diagnostic methods and functional state monitoring of power oil transformers in electrical substations //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2019. – T. 135. – C. 01021.
7. Wang J. et al. Review on evolution of intelligent algorithms for transformer condition assessment //Frontiers in Energy Research. – 2022. – T. 10. – C. 904109.
8. Gruntovich N. V. et al. Development of methodological support for diagnosing energy efficiency //Energy and Management. – 2017. – T. 1. – №. 94. – C. 8-13.
9. Грунтович Н. В., Петров И. В., Колесников П. М. Компьютерные системы технического диагностирования маслонаполненных трансформаторов //Вестник Гомельского государственного технического университета им. ПО Сухого. – 2013. – №. 4 (55). – С. 094-099.
10. Yusupov D. et al. Investigation of factors influencing the operational characteristics of traction transformers //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 274. – C. 13007.
11. Роженцова Н. В., Галяутдинова А. Р. Анализ методов диагностики силовых трансформаторов //Энергетика и энергосбережение: теория и практика. – 2018. – С. 430.1-430.4.
12. Sikorski W., Walczak K. Power transformer diagnostics based on acoustic emission method //Acoustic emission-research and applications. – 2013. – T. 1. – C. 1-13.

ISSN 3030-3907

13. Чупак Т. М. Прогнозирование технического состояния силовых маслонаполненных трансформаторов //дис. на соискание ученой степени канд. техн. наук. – 2007. – Т. 5. – №. 02.
14. Christina A. J. et al. Causes of transformer failures and diagnostic methods–A review //Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2018. – Т. 82. – С. 1442-1456.
15. Yusupov D. T. et al. Cleaning of transformer oils using the electric field //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – Т. 1231. – №. 1. – С. 012024.
16. Du L. et al. On-line partial discharge monitoring and diagnostic system for power transformer //Tsinghua Science and Technology. – 2005. – Т. 10. – №. 5. – С. 598-604.
17. Sofian D M, Wang Z D, Jayasinghe S B. Frequency response analysis in diagnosing transformer winding movements-fundamental understandings[C]//39th International Universities Power Engineering Conference, 2004. UPEC 2004. IEEE, 2004, 1: 138-142.
18. Сагалакова К. И., Яхья А. А., Левин В. М. Совершенствование моделей оценки состояния трансформаторов гэс в режиме on-line мониторинга //Гидроэлектростанции в XXI веке. – 2018. – С. 40-47.
19. Gutten M. et al. Frequency diagnostics of insulating system of power transformers //The Scientific Journal of Riga Technical University-Electrical, Control and Communication Engineering. – 2020. – Т. 16. – №. 1. – С. 1-7.
20. Ismoilov I. K. Analysis of the Problem of Complex Technical Diagnostics of Power Transformers in Power Systems //EJET, release. December. – 2022. – Т. 13. – С. 25-30.
21. Yusupov D. T. et al. Investigation of winding faults of traction transformers //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 868. – №. 1. – С. 012026.
22. Yusupov D. et al. Express diagnostics of power oil transformers by vibroacoustics and partial discharges //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 434. – С. 01027.
23. Мельникова О. С., Кузнецов В. С. Метод расчета электрической прочности масляных каналов главной изоляции силовых трансформаторов //Вестник Ивановского государственного энергетического университета. – 2020. – №. 5. – С. 48-55.
24. Yusupov D., Artikbayev N., Kutbidinov O., Toshpulatov N., Babayev A., Matchonov O., & Vokhidov, A. (2023). Development of a simulation model for assessing the technical condition of transformers exploited in hydroelectric stations. In E3S Web of Conferences (Vol. 434, p. 01026). EDP Sciences.

ISSN 3030-3907

25. Грунтович Н. В., Жук Е. А. Исследование причин частичных разрядов в силовых маслонаполненных трансформаторах //Вестник Гомельского государственного технического университета им. ПО Сухого. – 2019. – №. 4 (79). – С. 60-67.
26. Demianovych L. P., Evgeniovich R. O., Oleksandrivna R. O. Determination of optimal transformation ratios of power system transformers in conditions of incomplete information regarding the values of diagnostic parameters //Fuzzy logic. – IntechOpen, 2019.
27. Тихонов В. А., Игнатьев И. В. К вопросу о методе диагностики преобразовательных трансформаторов предприятия по производству алюминия //Системы. Методы. Технологии. – 2018. – №. 4. – С. 98-104.
28. Исмоилов И. К., Турсунов Д. А., Жабборов Б. Т. Дифференциальная техническая диагностика силовых маслонаполненных трансформаторов повышает достоверность при выявлении дефектов. – 2022.
29. Ismoilov I. K., Zhabborov T. K. Research and problems of reliability of operation of power transformers at the enterprises of Fergana part of the power system of Uzbekistan //Problems of energy and resource conservation. special issue. – 2021. – Т. 106.
30. Sidorova A. et al. Development and Verification of an Advanced Method for Diagnosing Measuring Transformers //2021 Ural-Siberian Smart Energy Conference (USSEC). – IEEE, 2021. – С. 57-61.

ISSN 3030-3907

YANGI O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TA’LIM USULLARI.

Beknazarova M.K.
Sam.DTU., Tillar kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Zamonaviy davrda O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga katta miqdorda mablag‘ va kuch sarflanmoqda. Bu maqsadga zamonaviy o‘qitish vositalari, yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali erishish mumkin. Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi va rivojlanishi butun ta’lim tizimi uchun yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Ta’limni raqamlashtirish umuman va mamlakat universitetlarida o‘quv jarayonini raqamlashtirish masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish zarurati tufayli keskin rivojlandi. Yangi o‘qitish usullarining joriy etilishi, shuningdek, yangi kompyuter o‘qitish vositalarining paydo bo‘lishiga olib keladi, ulardan biri elektron o‘quv onlayn kursidir.

Kalit so‘zlar: Axborot tezligi, kommunikatsiya, messen-mediya, masofaviy ta,lim, onlayn kurslar, qurilmalar, 3D.doskalar, global ahamiyatga ega ma,lumotlarni olish, ta’lim shakli, axborot texnologiyalari, o‘quv jarayoni, tahlil va muhokama, mustaqil ishlarni tashkillashtirish.

Annotation: In modern times, a significant amount of resources and effort are being invested in the modernization of the education system in Uzbekistan. This goal can be achieved through the wide implementation of modern teaching tools and new information and communication technologies. The introduction and development of information technologies in the educational process contribute to the emergence of new opportunities for the entire education system. The digitalization of education in general, and the learning process at universities in particular, has rapidly advanced due to the growing need for distance learning technologies. The introduction of new teaching methods also leads to the emergence of innovative computer-based teaching tools, one of which is the electronic online learning course.

Keywords: information speed, communication, mass media, distance education, online courses, devices, 3D boards, access to globally significant information, form of education, information technologies, learning process, analysis and discussion, organization of independent work.

Аннотация: В современный период в Узбекистане вкладываются значительные средства и усилия в модернизацию системы образования. Достижение этой цели возможно благодаря широкому внедрению современных средств обучения, а также новых информационных и коммуникационных технологий. Внедрение и развитие информационных технологий в образовательный процесс способствует появлению новых

ISSN 3030-3907

возможностей для всей системы образования. Цифровизация образования в целом и учебного процесса в университетах особенно интенсивно развивалась в связи с необходимостью проведения занятий с использованием дистанционных технологий. Внедрение новых методов обучения приводит также к появлению новых компьютерных средств обучения, одним из которых является электронный онлайн-курс.

Ключевые слова: скорость информации, коммуникация, массмедиа, дистанционное обучение, онлайн-курсы, устройства, 3D-доски, получение информации мирового значения, форма обучения, информационные технологии, учебный процесс, анализ и обсуждение, организация самостоятельной работы.

Kirish

Onlayn kurslar talabalarning birgalikdagi va mustaqil ishini tashkil etish, turli xil hujjatlar va ularning vazifasidan foydalanish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, turli manbalardan ma’lumot olish, ular oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal qilishning muqobil yo‘llarini qidirish va boshqa ko‘p narsalarni taqdim etadi.

Davlat standarti odatda fanning umumiy mehnat sig‘imidan talabalarning mustaqil ishiga kamida 50% soat ajratishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, oliygohda o‘qish hajmi va o‘zaro ta’siri bo‘yicha deyarli bir xil bo‘lgan ikki qismni o‘z ichiga oladi - o‘qitish jarayoni va o‘zini o‘qitish jarayoni. Shuning uchun talabalarning mustaqil ishi har bir talabaning samarali va maqsadli ishiga aylanishi kerak.

Zamonaviy ta’lim XXI asrda maktablar va ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ta’limning eng so‘nggi va zamonaviy versiyasidir. Zamonaviy ta’lim nafaqat Savdo, fan va san’atning taniqli akademik fanlariga e’tibor qaratadi, balki talabalarda ijodiy fikrlash, hayotiy ko‘nikmalar, qadriyatlar ta’limi, tahliliy ko‘nikmalar va qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta’lim shuningdek, o‘quvchilarga bilim berish va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va qiziqarli qilish uchun mobil ilovalar, YouTube, podkastlar, elektron kitoblar, filmlar kabi eng yangi texnologiyalardan foydalanadi. Biz hammamiz o‘qituvchiga yo‘naltirilgan sinfda, o‘qituvchi oldinda, talabalar chiroyli qatorlarda o‘tirib, ma’ruza tinglaydigan va eslatma oladigan tizimda ta’lim oldik. Bu tizim ma’lum darajada ta’lim tizimimizning o‘zagi bo‘lib kelgan va hozir ham tashkil etadi. Maktablar o‘nlab yillar davomida unga tayangan va yaqinda katta o‘zgarishlarga duch kelgan. XXI asrda texnologiya kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Axborot jamiyatining rivojlanish sharoitida kasbiy ta’lim muassasalarida kunduzgi va sirtqi ta’lim shaklidagi talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishiga, mos ravishda, o‘quvchilarning auditoriya yuklamasidan 50% va 75% vaqt ajratiladi . Demak, kasbiy ta’lim muassasalaridan

ISSN 3030-3907

o‘quvchilarning mustaqil ishi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ta’minlash talab etiladi: o‘qituvchilardan - uni tashkil etishni takomillashtirish, o‘quvchilardan esa - uni bajarish qobiliyati va motivatsiyasi.

O‘quvchilarning mustaqil ishi ulushining oshishi bilan o‘quv jarayonini tegishli qayta tashkil etish, o‘quv-uslubiy hujjatlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, o‘quv materialini chuqur mustaqil o‘zlashtirish uchun yangi didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Oliygohlarga o‘qitish usullarini optimallashtirish, o‘qituvchilarning mehnat unumdorligini oshiradigan yangi o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish, talabaga o‘zi uchun qulay vaqtda o‘quv materialini o‘zlashtirish imkonini beradigan axborot texnologiyalaridan faol foydalanish, ball-reyting tizimini joriy etish va kompyuterlashtirilgan testlashni keng joriy etish orqali talabalar ishini joriy nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Oliygohlarda mustaqil ishning ikkita umumiy qabul qilingan shakli mavjud:

1. An’anaviy - ish qulay vaqtda ixtiyoriy vaqt rejimida bajariladi.
2. Auditoriya - o‘qituvchi nazorati ostida mustaqil ish, maslahat olish imkoniyati bilan.

Hozirgi vaqtda talabalarning katta mustaqilligini nazarda tutuvchi uchinchi, oraliq variantni ishlab chiqish tendensiyasi mavjud. Ushbu tashkiliy shakl o‘qituvchining talabalarga uslubiy yordam ko‘rsatish, maslahatlar berish, ishlarni nazorat qilish va tashkil etish uchun hozir bo‘lishini anglatadi. Odatda, maslahatlar individual xarakterga ega va faqat ba’zi hollarda, masalan, ayniqsa qiyin materialni o‘rganishda, butun auditoriyaga zarur tushuntirishlar beriladi.

Sirtqi ta’lim shaklidagi talabalar bilan ishlash uchun o‘qituvchi bilan aloqaning yetishmasligini qoplash uchun o‘quv jarayonini shunday tashkil etish kerak va, demak, talabalarning zimmasiga o‘z mustaqil ishini boshqarish funksiyalari yuklatiladi. Topshiriqlar to‘plami o‘quv maqsadiga erishish uchun zarur bo‘lgan materialning individual tanlash va hajmini aniqlash imkoniyatini ta’minlashi kerak. Mustaqil ish uchun mo‘ljallangan topshiriqlar faol va ijodiy xarakterga ega bo‘lishi, talabalarni mustaqil yechimlar izlashga undashi kerak. Mustaqil ish usullarini egallash o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning majburiy shartidir .

Talabalarning mustaqil ish turlari quyidagicha farqlanadi: amaliy va laboratoriya ishi, auditoriyada mustaqil ish, individual uy vazifasi, konspekt yozish, uyda o‘qish va hokazo. Normativ hujjatlarda o‘quvchilarning qayerda joylashganidan qat’i nazar, ta’lim dasturlarini to‘liq hajmda o‘zlashtirishni ta’minlaydigan elektron axborot-ta’lim muhitining komponentlari sifatida quyidagilar qayd etilgan:

ISSN 3030-3907

elektron axborot resurslari (EAR) - o‘quvchilarga o‘qitish masalalari bo‘yicha zarur ma’lumotlarni olish uchun mo‘ljallangan resurslar, masalan, dars jadvali, ta’lim muassasasi yangiliklari, ma’lumotlar va o‘qitish qoidalari;
elektron ta’lim resurslari (ETR) - elektron-raqamli shaklda taqdim etilgan va o‘zida tuzilma, predmet mazmuni va ular haqidagi metama’lumotlarni o‘z ichiga olgan ta’lim resursi;
axborot texnologiyalari majmuasi - joylashtirilgan o‘quv materialiga ega bo‘lgan ta’lim qobiqlari, ularni yaratish uchun dasturlar va o‘qitishni boshqarish tizimlari;
telekommunikatsiya texnologiyalari majmuasi - axborot ta’lim resurslarini qo‘llab-quvvatlash va uzatish vositalari, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida aloqa o‘rnatish;
texnologik vositalar - turli xil serverlar, tarmoqlar, kompyuterlar va mobil aloqa qurilmalari

Ta’lim muhitini ko‘rib chiqar ekan, tadqiqotchilar o‘qitish va o‘rganishning o‘zaro bog‘liq jarayonlarini nazarda tutadilar. Ko‘pgina ishlarda ta’lim muhitining komponentlari ikki asosiy toifaga bo‘linadi:

1. Ta’lim jarayoni subyektlari - o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari, ta’lim muassasasi ma’muriyati.

2. Ta’lim jarayoni obyektlari - o‘qitish vositalari va o‘quv faoliyati asboblari, metodikalar, moddiy baza, pedagogik jarayonni boshqarish va kommunikatsiya usullari.

Nima uchun zamonaviy ta’lim muhim? Zamonaviy ta’lim an’anaviy o‘qitish usullaridan sezilarli darajada farq qiladi va bugungi kunda maktablarda fan va texnologiyaga ko‘proq e’tibor qaratgan holda keng qo‘llaniladi. Progressiv zamonaviy ta’lim barcha o‘quvchilar bir xil tushunish darajasida deb o‘ylashdan ko‘ra ko‘proq talaba ehtiyojlariga e’tibor qaratadi. U so‘roq qilish, tushuntirish, ko‘rsatish va hamkorlik qilish usullarini o‘z ichiga olgan faoliyatga asoslangan.

Zamonaviy ta’lim jarayoni tobora raqamlashtirilayotgan hozirgi sharoitda onlayn ta’lim va mustaqil o‘rganish metodlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Onlayn o‘quv jarayoni o‘quvchilardan o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yish, o‘zini rag‘batlantira olish kabi ko‘nikmalarni talab qiladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, vizual o‘rganish usullariga tayangan holda o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanayotgani bejiz emas. Zero, globallashuv jarayonida maktabgacha ta’lim — shaxs tarbiyasining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Shu ma’noda, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga

ISSN 3030-3907

olib chiqish, qamrovni to‘liq ta’minlash va ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro mezonlarga mos standartlarni joriy etish vazifalari belgilangan.

Ushbu strategiya doirasida kelgusi yetti yil davomida barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini kompyuter sinflari bilan jihozlash, tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, 100 foiz muassasalarni toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlash rejalashtirilgan. Bularning barchasi bolalarda erta yoshdan innovatsion fikrlashni rivojlantirish, axborot madaniyatini shakllantirish va ularni kelajak ta’lim bosqichlariga sifatli tayyorlashga xizmat qiladi.

Maktab ta’limini tubdan takomillashtirish borasidagi islohotlar ham izchil davom etmoqda. O‘qituvchilarning mehnatini munosib qadrlash, ularga qulay mehnat sharoitlari yaratish, ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini yangi pog‘onaga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Kelgusi yetti yillikda ushbu sohada amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan rejalar — bu islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun yanada qulay va samarali ta’lim muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Umumiy o‘rta ta’limni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida ham qator aniq chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan:

olis hududlarda joylashgan 715 ta maktab o‘quvchilarini bepul avtobuslar bilan ta’minlash orqali ularga ta’limga teng imkoniyat yaratish;

700 ga yaqin yangi darslik, mashq daftarlari, metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar ishlab chiqish;

yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000 ta multimedia dasturlarini yaratish;

har yili 500 nafar “til egasi” bo‘lgan malakali xorijiy mutaxassislarni o‘quv jarayoniga jalb etish;

barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarga o‘rgatish kurslarini joriy etish;

Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasini ommalashtirib, ularning metodikasini barcha maktablar faoliyatiga tatbiq etish.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini ikki barobar oshirish vazifasi belgilangan bo‘lib, bu nafaqat o‘qituvchilik kasbining nufuzini oshiradi, balki malakali pedagoglarni tizimga keng jalb etishga xizmat qiladi.

Ushbu islohotlarning barchasi ta’lim jarayonining sifatini tubdan oshirish, zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirgan, ijodkor, erkin fikrlovchi avlodni tarbiyalashga qaratilgandir. Bir necha o‘n yillar davomida informatika va axborot texnologiyalari faqat statsionar shaxsiy kompyuter va unda o‘rnatilgan mahalliy

ISSN 3030-3907

dasturiy ta’minot bilan bog‘liq edi. Biroq, texnik rivojlanish to‘xtab qolmaydi va global tarmoqqa simsiz ulanish usullarining tarqalishi, shuningdek, kompyuter texnikasi vositalarining miniatyurizatsiyasi tufayli zamonaviy smartfonlar, noutbuklar, netbuklar, planshetlar turli fanlarni o‘rganishda turli mobil texnologiyalardan foydalanishni ta’minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Наше сердце наше perfectum mobile// М.К Бекназарова - Central Asian Journal of Literature, Philosophy and …, 2023

2. Beknazarova Moxiya Kenjayevna // AN INTRODUCTION TO THE HISTORY OF LATIN WORDS AND ITS BASIC LAWS // Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2024-yil_3-son

ISSN 3030-3907

TARKIBIDA KREMNIY BO‘LGAN BIOMODIFIKATORLAR BILAN POLIETILENNI MODIFIKATSIYALASH VA XOSSALARINI TADQIQ ETISH.

Qarshiyev M.T.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Email: mqarshiyev@inbox.ru
Sharifova N.N.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Allanov A.B.
Qarshi davlat universiteti,
Nurqulov F.N.
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot universiteti,

Annotatsiya: Ushbu maqolada polietilen asosli polimerlarni fosfor va kremniy saqlovchi organik biomodifikatorlar bilan modifikatsiyalash texnologiyasi va modifikatsiyalangan materiallarning termik, morfologik va fizik-mexanik xossalarini o‘rganish natijalari yoritilgan. Tadqiqot davomida F-0220 markali polietilen modifikatsiyalandi va uning TGA, DTA, IQ spektr usullari yordamida xossalari tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, modifikatsiyalangan kompozit materiallar sof polietilenga nisbatan 36% gacha yuqori termik barqarorlik va olovga chidamlilik namoyon etdi.

Kalit so‘zlar: biomodifikator, polietilen, IQ, TGA, DTA, termik barqarorlik, olovga chidamlilik, mexanik chuziluvchanlik, modifikatsiya.

Аннотация: В статье описана технология модификации полимеров на основе полиэтилена фосфор- и кремнийсодержащими органическими биомодификаторами и результаты исследования термических, морфологических и физико-механических свойств модифицированных материалов. В ходе исследования был модифицирован полиэтилен марки Ф-0220 и проведен анализ его свойств методами термогравиметрического, дифференциального термического анализа (ТГА), дифференциального термического анализа (ДТА) и ИК-спектроскопии. По результатам исследования модифицированные композиционные материалы показали до 36% более высокую термостойкость и огнестойкость по сравнению с чистым полиэтиленом.

Ключевые слова: биомодификатор, полиэтилен, ИК, ТГА, ДТА, термостабильность, огнестойкость, механическое удлинение, модификация.

Abstract: This article describes the technology of modification of polyethylene-based polymers with phosphorus- and silicon-containing organic biomodifiers and the results of studying the thermal, morphological and physicomechanical properties of modified materials. During the study, polyethylene of the F-0220

ISSN 3030-3907

brand was modified and its properties were analyzed using TGA, DTA, and IR spectral methods. According to the results, the modified composite materials showed up to 36% higher thermal stability and fire resistance compared to pure polyethylene.

Keywords: biomodifier, polyethylene, IR, TGA, DTA, thermal stability, fire resistance, mechanical elongation, modification.

Kirish

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotining rivojlanishi polimer texnologiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda polimer iste’moli yalpi milliy mahsulotning o‘sishiga mutanosib ravishda ortib bormoqda [1]. Shuningdek, so‘nggi yillarda ekologik toza polimerlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, qayta tiklanadigan manbalardan yoki biologik parchalanadigan polimerlardan tayyor mahsulot ishlab chiqarilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda, biologik parchalanadigan polimerlar materiallar uchun Amerika sinov va materiallar jamiyati standarti tomonidan va keyinchalik boshqa davlatlar tomonidan shunga o‘xshash nazariy ta’riflar berilgan. Unga ko‘ra, biologik parchalanadigan polimerlarni tabiiy mikroorganizmlar (bakteriyalar, zamburug‘lar va suv o‘tlari) ta’siri natijasida parchalanadigan polimer material sifatida belgilaydi [2-3].

Odatda sanoat biologik parchalanadigan polimerlarning ikkita sinfi mavjud bo‘lib, ular fermentlarning biokimyoviy faolligiga sezgir bo‘lgan modifikatsiyalanmagan polimerlar hamda sintetik polimerlar, asosan poliefirlar kiritiladi. Polimer materiallarning sanoatda keng qo‘llanilishi ularning yengil, arzon va texnologik qulayligi bilan bog‘liq. Biroq ularning kamchiliklaridan biri — yuqori haroratda tez parchalanish va olovga chidamlikning pastligidir. Shu boisdan, polimerlarni modifikatsiyalash orqali ularning issiqlikka chidamliligini va fizik-mexanik xossalarini yaxshilash dolzarb ilmiy-texnik muammodir. Oxirgi yillarda kremniy va fosfor asosidagi biomodifikatorlar bu borada katta e’tiborni tortmoqda, chunki bu elementlar sinergetik tarzda polimerga olovbardoshlik, termik barqarorlik va ekologik xavfsizlik xossalarini olib kiradi [4-5].

Tadqiqot obyekti sifatida F-0220 markali polietilen tanlandi. Modifikator sifatida kremniy natriy karboksimetil kraxmal sintez qilindi. Modifikatsiyalangan kompozitlar namunasi eritma usulida tayyorlandi. Tayyorlangan namunalarning termik tahlili o‘rganildi


Tahlillar 22–601 °C oralig‘ida olib borildi. Modifikatsiyalashdan oldingi va keyingi namunalar taqqoslab o‘rganildi.

Ushbu tadqiqotda natriy gidroksidi karboksimetil kraxmal (NaKMK), suvda eruvchan natriy metasilikat bilan reaksiya olib borildi va yangi o‘zgartirilgan kremniy natriykarboksimetilkraxmal (Si-NaKMK) sintez qilindi. Hosil qilingan Si-


ISSN 3030-3907

NaKMK haroratga chidamli, toksiklik darajasi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘rganildi. Reaksiya jarayonida ko‘rsatilgandek, kremniyning birikishi ikkita glyukoza birligi o‘rtasida C-Si-C bog‘lanish zanjirini hosil qiladi va yuqori haroratga barqarorligi oshirgan.

Termik barqarorlik tahlili. Keltirilgan 1-rasmda modifikatsiyalanmagan kraxmalning termik tahlil natijalari berilgan. Keyingi termik tahlilda (2-rasm) Si-NaKMK ning TGA-DTA tahlil natijalari keltirilgan, bunda kraxmal Si-NaKMK ning termik parchalanish jarayonini uch bosqichda ko‘rsatilgan. Birinchi bosqichda 16,57-196,43ºC da suv bug‘i chiqariladi, bu egri chiziqning pasayish qismidan ko‘rinadi. Uchinchi bosqich, harorat 409,73-601ºC dan yuqori, mahsulotning qoldiq qismi aromatik halqali materiallarga aylana boshladi, so‘ngra asta-sekin grafit tuzilishini shakllantirdi. Bu harorat oralig‘ida og‘irlik yo‘qotish 1,734 mg (17,6%) ni kraxmalda esa 413-601ºC haroratda og‘irlik yo‘qotishi 0,304 mg (3,8%) ni tashkil qiladi.



1-rasm. Kraxmalning TGA/DTA egri chiziqlari.




2-rasm. Si-NaKMK ning TGA/DTA egri chiziqlari.

Bu keltirilgan tahlil natijalaridan kraxmal Si-NaKMK ga nisbatan termik beqaror ekanligini ikkinchi bosqich parchalanish egri chiziqlaridan ko‘rish mumkin 410ºC da kraxmalda vazn yo‘qotish 73,9% Si-NaKMK da esa 54% ni ko‘rsatdi bu Si-NaKMK ning termik jihatdan barqarorligini anglatadi (2-rasm). Modifikatsiyalangan material umumiy hisobda 36,07% ga yuqori termik barqarorlik ko‘rsatdi.

Polietilen-poliakrilonitril-kraxmalning polimer kompozitsiyalari IQ-spektroskopiya parametrlarida -C-H- guruhi 2916,37-2848,86 sm^{-1} sohada cho‘zish tebranishlarining xarakterli yutilish chiziqlari deformatsiya tebranishlarini ko‘rsatadi. Kraxmalga tegishli CH_2 bog‘lari ham 1076,28 sm^{-1} sohada yutilish chiziqlarini berdi. 1076,28-1002,93 sm^{-1} mintaqasida cho‘zilgan tebranishlarning chastotasi CH_2-O-CH_2 ga tegishli, bu 2358,94 sm^{-1} tebranish cho‘qqisi Si-H bog‘lanishlariga mos keladigan cho‘zilgan tebranish yutilish cho‘qqisi, 765,7 sm^{-1}

ISSN 3030-3907

chastotasida Si-C ga tegishli cho‘qqi kremniyning reaksiyada ishtirok etishini va organik kremniy birikmasini hosil qilishini ko‘rsatdi. Polietilen va Si-NaKMK ning IQ spektrlari 3-rasmda ko‘rsatilgan. Modifikatsiyalangan polietilen, polietilen va Si-NaKMKning asl yutilish chiziqlaridan farq qiladi.



3-rasm. PE va kremniy natriy karboksimetil kraxmalning IQ-spektri.

Olingan biomodifikatorlar bilan modifikatsiyalangan polietilen materiallarini fizik-mexanik xossalarini o‘rganish. Mexanik kuchi parametrlari namunalarni ISO-527-2019 ga muvofiq (Stretch Test dasturi bilan RM-50) sinov mashinasida cho‘zish yo‘li bilan aniqlandi (1-jadval).

Keltirilgan 1-jadvaldagi ko‘rsatilgan natijalar tajriba davomida sintez qilingan Si-NaKMK bilan polietilen polimeri bilan modifikatsiya natijasida olingan polimer namunalarni, PHA/10-PM biopolimeri bilan mexanik xossalarini taqqoslaganimizda jadvaldagi ko‘rsatgichlarni ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval.

Modifikatsiyalangan polietilen va analogning mexanik xususiyatlari

Namunalar tarkibi	Cho‘zilishdagi kuch (N)	Cho‘zilish masofasi (mm)	Uzilishdagi kuch (MPa)	Deformatsiya %
PHA/10-PM (an)	70N	30	5,5	106 %
PE+Si-NaKMK (1)	105N	120	7,7	400 %
PE+Si-NaKMK (2)	97N	110	6,6	360 %
PE+Si-NaKNK (3)	82N	52	6,5	160 %

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarkibida kremniy bo‘lgan biomodifikatorlar polietilenning issiqlikka chidamliligini sezilarli darajada oshiradi. Bu modifikatorlar nafaqat polimerning termik barqarorligini ta’minlaydi,

ISSN 3030-3907

balki uning olovga chidamliligini ham oshiradi. Bu turdagi kompozit materiallar yong‘inga qarshi vositalar, qurilish materiallari, elektr kabel qoplamalari va boshqa ko‘plab sanoat sohalarida qo‘llanishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, F-0220 markali polietilen biomodifikatorlar yordamida muvaffaqiyatli modifikatsiya qilindi. Kompozitlar TGA/DTA, SEM tahlillari orqali to‘liq o‘rganildi. Termik barqarorlik va olovbardoshlik ko‘rsatkichlari oshdi. Tadqiqot natijalari ekologik xavfsiz, funksional va zamonaviy materiallar yaratish uchun muhim asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Malveda M. Biodegradable Polymers / M.Malveda, U.Lochner, K.Kazutery//CEN Report. 2010 (http://www.sriconsulting.com /CEH/Public).
2. Emadian SM, Onay TT, Demirel B (2017) Biodegradation of bioplastics in natural environments. Waste Manag 59:526–536. 2016.10.006.
3. ASTM D 883-17 Standard Terminology Relating to Plastics. https://www.astm.org/DATA BASE.CART/HISTORICAL/D883-17.htm
4. Zhang X. et al. Thermal degradation and flame retardancy of polymer composites. *Polymer Degradation and Stability*, 2020.
5. Kim D., Lee S. Synergistic effects of Si–P based additives in polyolefins. *Journal of Applied Polymer Science*, 2019.

ISSN 3030-3907

ЧОРВОҚ ЭРКИН ТУРИСТИК ЗОНАСИДА ЖОЙЛАШГАН ТУРИЗМ ОБЪЕКТЛАРИ

Шомуродова Ш.Ғ

Аннотация: Мақолада Чорвоқ эркин туристик зонасида мавжуд бўлган табиий ва тарихий-маданий объектларнинг табиий географик ўрни, шунингдек, туристларни мароқли ҳордиқ чиқариши учун объектлардан туризмда фойдаланиш ҳақида фикр билдирилган.

Калит сўзлар: табиий, археологик, тарихий ва монументал ёдгорликлар, зиёратгоҳлар, Оқтош шаршараси, Палтов қайинзори, Тешик-тош Оқсоқота, Каптар кумуш бува.

Аннотация:. В статье упоминается природно-географическое расположение природных и историко-культурных объектов Чарвакской рекреационной зоны, а также использование объектов туризма для привлечения туристов.

Ключевые слова: природные, археологические, исторические и монументальные памятники, паломничество, водопад Октош, Палтов болит, Тешик-тош Оксокота, Кук-тунлик ота, Каптар кумуш бува.

Annotation: The article mentions the natural and geographical location of natural and historical and cultural sites of the Charvak resort and recreation zone, as well as the use of tourism facilities to attract tourists.

Key words: natural, archaeological, historical and monumental monuments, pilgrimages Oqtosh waterfall, Paltov aching, Teshik-tosh Oksokota, Kuk-tunlik ota, Kaptar kumush buva.

Кириш.

Юртимизда кўплаб табиий ёдгорликлар, кўҳна ва бетакрор обидалар мавжуд бўлиб, муҳим тарихий ва илмий аҳамиятга эга объектлар ҳисобланади. Шу боис уларни ўрганиш, муҳофаза қилиш, келажак авлодга етказиш масаласига алоҳида эътибор қаратилади. Ана шундай жойлардан бири Чорвоқ эркин туристик зонасидаги муҳофаза қилинадиган табиий ва тарихий-маданий объектлардир.

Чорвоқ эркин туристик зонаси бугунги кунда республикамиздаги асосий туризм марказларидан ҳисобланиб, туристлар учун дам оладиган масканлардан бирига айланди.

Асосий қисм. *Мақоланинг мақсади:* Чорвоқ эркин туристик зонасида табиий, тарихий ва археологик ёдгорликларнинг жойлашган табиий географик ўрни ва тарихий келиб чиқиш жиҳатини асослаб бериш.

Вазифаси: табиий, тарихий ва археологик объектларнинг туристлар эътиборини ўзига жалб қиладиган томонларини очиб беришдан иборат.

Чорвоқ эркин туристик зонасининг хушманзара табиати, серостона дарё ва сойлари, мусаффо ҳавоси, табиат ёдгорликлари, зиёратгоҳлар,

ISSN 3030-3907

археологик ва тарихий объектларнинг мавжудлиги мамлакатимизга ташриф буюрган туристларни бефарқ қолдирмайди. Ушбу объектлар туристларга мароқли дам олиш ва саёҳат қилиш имконини беради.

Бинобарин, Чорвоқ эркин туристик зонасида жойлашган туристик объектларни 5 гуруҳга ажратиш мумкин:

1. Табиий ёдгорликлар - жонли ва жонсиз табиат яратган ноёб, диққатга сазовор объектлар: ғорлар, шаршаралар, ажойиб шаклли қоятошлар, даралар, гейзерлар, булоқлар, очилиб қолган жойлар, катта ёшли улкан дарахтлар ҳисобланади. Масалан: Каласанг шаршараси, Ихноч кўли, Балогардон ғори, Харамзодасой, Ғалвасой, Сижжаксой, Ақсарсой, Оркутсой, Майдонтолсой кабилардир. Бу сингари, табиат ёдгорликларидан илмий, эстетик, рекреация, саёҳат, туризм, истироҳат, тарбиявий мақсадларда фойдаланилади.

2. Археологик ёдгорликлар - Чорвоқ эркин туристик зонасида мавжуд бўлган қадимий шаҳарларнинг қолдиқлари, қадимий қалъалар ҳаробалари, кўҳна қадимий халқлар ҳаёти ҳақидаги археологик ашёлар, топилмалар ва бошқалар. Археологлар томонидан топилган ва айни пайтда қазилма қидирув ишлари олиб борилаётган Қушқўрғон тепа, Шоҳжувортепа каби жойлар киради.

3. Тарихий ёдгорликлар - Чорвоқ эркин туристик зонасида кўпгина тарихий-этнографик ёдгорликлар мавжуд бўлиб, улар тарихшуносликка иштиёқманд бўлган туристларга катта қизиқиш уйғотиши мумкин. Айниқса, Бурчмулла шаҳристони, Ғалва тепа ёдгорликлари ўзининг шарқона кўриниши билан туристларни ўзига жалб этмоқда.

4. Зиёратгоҳлар – тақводорлар муқаддас деб ҳисоблайдиган ва сиғинадиган жойлар. Булар пайғамбар, шайх, эшон, авлиёлар, диний раҳнамолар номи билан боғлиқ муқаддас ҳисобланган ва зиёратгоҳга айланиб кетган шаҳар, мақбара, чашма, дарахт, тепалик, ғор ва бошқалар. Бундай объектлар нафақат зиёрат қилиш билан бирга хушманзара табиати ва сўлим табиат гўшалари билан туристларни ўзига ром этиб келмоқда. Масалан, Пўстинлик ота, Кўк тўнлик ота, Каптар кумуш бува ва ҳ.к.

5. Монументал ёдгорликлар – инсон қўли билан яратилган санъат асарлари. Масалан, Мотамсаро она ҳайкали кабилар (1-жадвалга қаранг).

1-жадвал.

Туристик объектлар

№	*Объектларнинг гуруҳланиши*	Объектларнинг номи
1	Табиий ёдгорликлар	Чимёнсой, Каласанг шаршараси, Каттасой шаршараси, Чимён чўққиси, Чимён оромгоҳи, Палтов шаршараси, Ихноч кўл, Шауркўл, Бодаккўл,

ISSN 3030-3907

		Белдирсой, Ўрунгоч кўли, Тешик-тош Оқсоқота, Қорақизсой, Палтов қайинзори, Тўрақайин қайинзори, Қуласа шаршараси, Оқсоқота минг йиллик арчаси, Қурсой тепа, Баланд тепа, Оқбулоқота (Оқтепа), Жилғатепа (Ойтепа), Ҳизо тоғидаги овоз чиқарувчи ғор, Хумсонбулоқ, Ширинбулоқ.
2	Археологик ёдгорликлар	Оби-Раҳмат ғори, Шилдироқ ғори, Балогардон ғори, Ғормозор ғори, Қушқўрғон тепа, Мадат тепа, Кадовот тепа, Қўрғон тепа, Қуйимозор тепа (Чинор бува), Шоҳжувортепа шаҳристони, Хўжакент, Юқори Қўрғон, Майдонтол-1.
3	Тарихий ёдгорликлар	Ансор бобо, Бургулик тепа, Жартепа, Нуректепа, Ғалватепа, Ғазалкент шаҳристони, Тўрткўлтепа-1, Тўрткўлтепа-2, Тўрткўлтепа-3, Бурчмулла шаҳристони, Қадимги манзилгоҳ, Холбектепа.
4	Зиёратгоҳлар	Қадамчи бува, Мозорунгур, Кўк тўнлик ота, Қорамозор, Оқсоқота, Пўстинлик бува, Боймушат бува, Жарбоши Авлиё, Паргостепа, Суренота, Умар Шайх Вали, Авлиёсой Икрима ота, Ҳазрати Мулла қабристони, Севар ота қабристони, Каптар кумуш бува, Ҳожи Абдулло Ансорий, Довуд невара қабристони, Тепа Ҳазрати Мулла булоқ, Унгурмозор, Ҳожи Асомиддин Шоши.
5	Монументал ёдгорликлар	Байналминал хотира ёдгорлиги, Мотамсаро она, Машриқ Юнусов (Элбек), Абу Али ибн Сино монументи

Жадвал: Муаллиф томонидан тузилди.

Юқоридаги жадвалда берилган табиий, тарихий, археологик, монументал ёдгорликлар ва зиёратгоҳлар сайёҳлар учун дам оладиган асосий масканларидан бири ҳисобланади. У ерга ташриф буюрган туристик объектларнинг ландшафти, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, табиий географик жараёнлари ҳақида таассуротга эга бўлади.

Чорвоқ эркин туристик зонасида 26 та табиат ёдгорликлари, 60 та археологик ёдгорликлар, 1 та архитектура ёдгорлиги, 5 та монументал ёдгорликлар, 2 та овчилик хўжалиги, 1 та қўриқхона, 2 та ўрмон хўжалиги, 2 та санатория, 4 та пансионат, 100 дан ортиқ дам олиш масканлари, 40 дан ортиқ болалар соғломлаштириш масканлари, 300 дан ортиқ дала ҳовлилар ва

ISSN 3030-3907

40 тага яқин фермер хўжаликлари, 30 тага яқин аҳоли пунктлари ҳамда бошқа муассаса ва ташкилотлар қайд қилинган ва муҳофазага олинган [4].

Қуйида Чорвоқ эркин туристик зонасида табиий, тарихий, археологик ёдгорликларнинг баъзилари ҳақида маълумот берилади.

Қорақизсой (*табиий ёдгорлик*) Пском қишлоғи Дадабоев ҚФЙда жойлашган. Қорақизсой Угом тоғ тизмасида денгиз сатҳидан 2400-2500 метр баландликдан бошланади. Қорақизсойга 15 га яқин сой ва жилғалар келиб қўшилади ва узунлиги 38 км атрофида. Сувининг ҳарорати иссиқ ёз кунларида +7° +10° С, сув сарфи секундига 14-15 метр кубни ташкил этади.

Қорақизсой Пском дарёсининг ўнг ирмоғи бўлиб, унга Пском қишлоғидан 10 км юқорида қуйилади. Қорақизсой воҳаси ўз навбатида табиий географик жойлашишига қараб Қиличқаро, Боғолма, Самсоқунгур, Кампирқуш, Мирзоёқибунгур, Арзанкор, Хона, Парда, Қамишкаппа каби қисмларга (сой ҳавзалари) бўлинади. Бу сой ҳавзалари ўзининг тоза булоқ сувлари, бетакрор табиат манзарасидан ташқари ўзига хос бўлган ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг хилма-хиллиги ва тарихий жойлари билан бошқа ҳудудлардан ажралиб туради.

Бу воҳада ўрмон барпо этувчи дарахтлардан Тяншань арчаси, оқ қайин, ёввоий олма, ёввоий тераклар, катронғи, тоғ олча, ёввойи нок, қора зирк, итбурун, Федченко наъматаги, тобулғи, доривор ўсимликлардан қора андиз, парпи, қирқбўғим, олтин илдиз, ялпиз, ровоч, торон ва бошқалар ўсади. Ўсимлик дунёсидан Ўзбекистон Республикаси “Қизил китоби”га киритилган Пском пиёзи, ёввойи саллагул, ширач, анзур пиёзи, сарғиш Грейга, Кауфман лолалари каби ўсимликлар ўсади [2]. Ҳайвонот дунёсидан Сибирь тоғ эчкиси, ёввойи чўчқа, бўри, тулки, бўрсиқ, жайра, қизил суғур, сувсар, қушлардан Альп зағчаси, каклик, Ҳимолай улори, тоғ каптарлари ва бошқа ҳайвон ва қушлар учрайди. Ҳайвонот дунёсидан Ўзбекистон Республикаси “Қизил китоби”га киритилган қор коплони, Тяншань оқ тирноқли қўнғир айиғи, Туркистон силовсини, тасқара, оқ бошли қумой, болтаютар каби ҳайвонлар учрайди [3].

Тўрақайин қайинзори (*табиий ёдгорлик*) Пском қишлоғининг юқори қисмида, денгиз сатҳидан 1800-2000 метр баландликда,Ойгаинг дарёсининг ўнг қирғоғидаги йўл ёқасида жойлашган.

Тўрақайин қайинзори Бурчмулла ўрмон хўжалигининг Ойгаинг бўлими 5 мавзе, 1 ажратмасида жойлашган бўлиб, майдони тахминан 10 гектарни ташкил этади. Табиий ҳолдаги қайинзор ўзининг мафтункорлиги билан инсонларни ўзига жалб қилади.

Оқтош шаршараси (*табиий ёдгорлик*) Сойлиқ ҚФЙда жойлашган бўлиб, Оқтош қишлоғининг юқори тоғли қисмида тоғлар орасида Ғазалкент

ISSN 3030-3907

шаҳридан тахминан 10 км узокликда денгиз сатҳидан 1500-1600 метр баландликда жойлашган. Оқтош шаршараси тоғдаги қорларнинг эриши оқибатида ҳосил бўлган.

Шаршаранинг баландлиги 7-8 метр, эни 7 метр, узунлиги 6 метр. Шаршаранинг икки ёни катта харсанг қоя тошлардан иборат. Тошлар орасидан баланд бўйли дарахтлар қад кўтариб турибди, юқори қисмларида Тяншань арчаси ва бошқа манзарали дарахт ва буталар ўсиб, ташриф буюрган туристлар эътиборини бефарқ қолдирмайди.

Палтов қайинзори (*табиий ёдгорлик*) Бурчмулла қишлоғида Ғазалкент шаҳридан тахминан 20 км узоқликда денгиз сатҳидан 1400 метр баландликда жойлашган. Табиий ҳолдаги қайинзор 1980 йил 9 июлда Бўстонлиқ туман ҳокимлигининг 220-сонли қарори билан рўйхатга олинган.

Палтов қайинзори Бурчмулла ўрмон хўжалиги Чотқол бўлимининг 97 мавзесида жойлашган бўлиб, майдони 16 гектарни ташкил этади. Табиий ҳолдаги қайинзор ўзининг хушманзаралиги билан туристларни ўзига жалб қилмасдан қолмайди [4].

Тешик-тош Оқсоқота (*табиий ёдгорлик*). Мазкур объект Оқсоқота воҳасида Оқсоқота сойининг қуйилиш қисмидан 5 км юқорида жойлашган.

“Тешик-тош” деб карст ёки дефляция натижасида емирилган қоялар аталган. “Тешик-тош” сўзига “Оқсоқота”ни қўшиб ёзилишининг асосий сабаби, Сурхондарёдаги мавжуд бўлган Тешик-тошдан ажратиш мақсадида назарда тутилган. Бу объектнинг геологик тузилмалардан бири палеоген давридаги оҳактошлар тизими Оқсоқотасойга кўндаланг бўйлаб чўзилган. Бу ерда дарё тор ва саёз водийни ҳосил қилган. Чиғаноқли оҳактошлар емирилиши натижасида ҳосил бўлган грот (ғор йўлакларидан ўзининг ўлчами билан ажралиб турувчи алоҳида хона) ва ўйилишлар сони кўп учрайди [1]. Палеоген денгизи ҳайвонларининг чиғаноқ ва молюскаларни тошқотган қолдиқлари тоғ жинслари қатламлари орасида очиқ ҳолда аниқ кўриниб туради.

Ғарбий Тяншанни геологик тадқиқ этишда бу объект ноёб геологик ҳудуд бўлиб ҳисобланади. Шунингдек, олий ўқув юртларининг геология мутахассислиги талабалари учун ўқув-амалиёт ҳудудидир. Шунинг учун бу жой Ғарбий Тяншандаги энг ноёб жойлардан бири ҳисобланади.

Шоҳжувортепа шаҳристони (*археологик ёдгорлик*) Ғазалкент шаҳридан тахминан 60 км узоқликда, денгиз сатҳидан 1200 метр баландликда, қадимги шаҳар Пском дарёсининг чап қирғоғида Пском қишлоғи Дадабоев ҚФЙда жойлашган.

Шоҳжувор тепалиги сўлим ва хушҳаво гўша. Қадимги шаҳар ўрни 20 гектардан ортиқ майдонни эгаллайди. Уни шарқ томондан Пском дарё

ISSN 3030-3907

террасаси, ғарб томондан истеҳкомлар ҳимоялаб туради. Тақасимон қалъа ичидаги ҳарбий иншоот 2-2,5 гектар майдонни эгаллайди. Марказида минорасимон қурилма бор. Бундан ташқари ички ҳовлиси ва 11,5 метр чуқурликдаги қўриқловчи зовур ҳам бор. Бу қурулмалар атрофида мустаҳкамламаларнинг иккинчи қатори бор. У кўп қиррали девор, 8 минора ва 12 метр чуқурликдаги зовурдан иборат.

Археологик қазилмалар бу қадимги шаҳарни VI-асрга мансублигини исботлайди. Шаҳарнинг ривожланиш даври XI- XII асрларга тўғри келган. Тепаликнинг вайрон бўлиши мўғуллар босқинчилиги, зилзила ва ўпирилишлар билан боғлиқ. Ушбу ҳудудда Ўрта Осиёда биринчилардан бўлиб металл (қўрғошин ва мис) эритиб олишга асос солинган.

Қуймозор тепа Чинор бува (*археологик ёдгорлик*) Хўжакент қишлоғи рўпарасидаги тоғнинг бошланиш қисмида яъни “Кўк тўнлик” ота мозори зиёратгоҳидан сал пастроқда жойлашган. Илгари бу ерда Хўжакент қишлоғи аҳолиси яшаган. Қишлоқ қарияларининг таъкидлашларича, Хўжа Фазлиддин Шайх бу ерга чинор дарахтини эккан. Илгари бу жой Қуйитепа деб аталган. Лекин, жар эрозияси рўй бериши ва сурилма ва лой оқимлари ҳамда сел келиши оқибатида ушбу ерда яшаётган аҳолининг бир қисми кўчки ва лой тагида қолиб кетиб вафот этган. Шунинг учун аҳоли бу ердан кўчиб кетганларидан сўнг ушбу масканни маҳаллий аҳоли Қуймозор тепа деб номлашган.

Қизиғи шундаки, сел келиши, сурилма ва лой оқимлари бўланлигига қарамасдан Хўжа Фазлиддин Шайх томонидан бу ерга экилган 2 дона чинор дарахтлари бугунги кунгача сақланиб қолган. Ушбу чинорларнинг ёши ҳам 850-880 йилни ташкил этиб, чинорлар тагида булоқ оқиб ўтади ва ушбу булоқларда балиқлар мавжуд. Ҳеч ким бу балиқларга озор етказмайди. Булоқ суви ва булоқ ҳовузи қишда ҳам, ёзда ҳам бир хил ҳароратда сақланиб туради. Бугунги маҳаллий аҳоли томонидан ушбу маскан “Чинор бува” деб аталади. Туристлар келиб бу ерни зиёрат қилади ва булоқ сувидан ичади.

Қўшқўрғон тепа (*археологик ёдгорлик)* Қўшқўрғон қишлоғида жойлашганлиги сабабли, бу тепалик шу ном билан аталган. Ушбу археологик ёдгорлик XIII-XIV асрларда душмандан ҳимоя ва ёв ҳужумини назорат қилиш учун қурилган тепалик бўлганлиги сабабли, Қўшқўрғон тепа деб номланган.

Ҳозирги кунда Қўшқўрғон қишлоғининг кенгайиб бориши ушбу ердан тупроқ олиниши натижасида тепалик пасайиб қолган. Тепалик маҳаллий аҳоли томонидан ўраб олинганлиги сабабли, кўримсиз аҳволга келиб қолган. Бугунги кунгача тадқиқот ишлари олиб борилмаган.

ISSN 3030-3907

Каптар кумуш бува (*зиёратгоҳ*) Испай қишлоғи ҳудудида Пском дарёсининг чап томонида жойлашган. Испай қишлоғидаги қарияларининг айтишларича, илгари ушбу маконда қадимда Испай қишлоғи аҳолиси яшаган. Бугунги кунда фарзандга мухтож оилалар бу жойни зиёрат қилиб, зиёратгоҳдан чиқиб турган булоқдан сув ичсалар уларга фарзанд насиб этади деган ривоят бор.

Маҳаллий аҳолининг айтишларича, илгари ушбу жой қабристон бўлган ва у ерда кумуш рангли кабутар учраган. Шунинг учун бу жой Каптар кумуш деб номланган. Қадимда бу ерда эски шаҳар ҳаробалари топилган. Бугунги кунда, ушбу ҳаробалар мавжуд эмас ва бу жой зиёратгоҳга айлантирилган.

Пўстинлик ота (*зиёратгоҳ*) Угам дарёсининг чап ирмоқларидан бўлган Керагалисойнинг Хумсон қишлоғидан 15 км юқори оқимида Пўстинлик сойнинг Керагалисойга қуйилиш қисмида жойлашган. Бу зиёратгоҳда ёши III асрга тенг бўлган терак мавжуд бўлиб, унинг айланаси 1,5Х1,5 метрни ташкил этади. Маҳаллий аҳоли ва қарияларнинг айтишларича, илгари шу ерда пўстиндўз киши яшаган экан. Шунинг учун, ушбу жой “Пўстинлик ота” деб аталади. Ушбу зиёратоҳда Пўстинлик отанинг ва унинг 2 нафар Фотима ва Зуҳра исмли қизларининг қабрлари бор.

Ҳозирги кунда ушбу зиёратгоҳда кичкинагина уйча мавжуд. Маҳаллий аҳолининг айтишига қараганда, зиёратгоҳ суви тери касалликларига даво ҳисобланар экан. Пўстинлик ота зиёратгоҳига бир йилда қиш мавсумидан ташқари 700-800 нафар туристлар зиёрат қилгани боради ва қурбонликлар келтиради.

Тепа Ҳазрати Мулла булоқ (*зиёратгоҳ*) қадимда катта авлиёлардан бўлиб, 4 нафар авлиё оға-инилардан бири бўлган. Ушбу зиёратгоҳ Чимён-Чорвоқ зонасининг Хумсон қишлоғи, Дала маҳалласи, Консой кўчасидан тахминан 3 км узоқликдаги масофада тоғли ҳудудда жойлашган. Бу жойда қадимда экилган терак дарахти ва тош орасидан оқиб ўтувчи булоқ мавжуд. Ушбу булоқ шифобахш хусусиятга эга. Қишки мавсумдан ташқари зиёратгоҳга зиёрат қилиш учун маҳаллий аҳоли ва туристлар ташриф буюради.

Annotatsiya. Havo namligidan foydalanibsuv olish texnologiyalari bugungi kunda global suv tanqisligi muammolarini hal qilishda istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Bu maqola havo namligini kondensatsiyalash, adsorbsion - desorbsion jarayonlari, fognets, gel va zeolit materiallar kabi ilg‘or materiallar yordamida tomchilardan yig‘iladigan suv olish metodlarini tadqiq qiladi. Shuningdek, har bir usulning afzalliklari, cheklovlari va energiyaga bo‘lgan ehtiyoji hamda iqtisodiy samaradorligi muhokama qilinadi. Mavzu bo‘yicha so‘nggi ilmiy yangiliklar va “continuous” (uzluksiz) suv yig‘ishni ta’minlash yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ushbu texnologiyaning istiqbollari va cheklovlari xulosada bayon etiladi.

Kalit so‘zi: atmosferadan suv yig‘ish, kondensatsiya, adsorbent materiallar(zeolit, gel, MOF), fognets/fog collection, uzluksiz mass transfer, iqtisodiy tahlil, energiya samaradorligi, suv tansiqligi.

Abstract. Water harvesting technologies using air humidity are one of the promising directions in solving the problems of global water scarcity today. This article reviews methods of water harvesting from droplets using advanced materials such as condensation of air humidity, adsorption-desorption processes, fognets, gels and zeolite materials. The advantages, limitations, energy requirements and economic efficiency of each method are also discussed. The latest scientific news on the topic and ways to ensure “continuous” water harvesting are also reviewed, and the prospects and limitations of this technology are outlined in the conclusion.

Keywords: atmospheric water harvesting, condensation, adsorbent materials (zeolite, gel, MOF), fognets/fog collection, continuous mass transfer, economic analysis, energy efficiency, water tightness.

Аннотация. Технологии сбора воды из влажности воздуха являются одним из перспективных направлений решения проблем глобального дефицита воды в настоящее время. В статье рассматриваются методы сбора воды из капель с использованием современных материалов, таких как конденсация влажности воздуха, адсорбционно - десорбционные процессы, туманные сети, гели и цеолитовые материалы. Обсуждаются преимущества, ограничения, энергозатраты и экономическая эффективность каждого метода. Также рассматриваются последние научные новости по теме и способы обеспечения «непрерывного» сбора воды. В заключении излагаются перспективы и ограничения данной технологии.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: сбор атмосферной воды, конденсация, адсорбирующие материалы (цеолит, гель, MOF), туманные сети/сбор тумана, непрерывный массоперенос, экономический анализ, энергоэффективность, водонепроницаемость.

Kirish.

XXI asrda resurslarining tanqisligi dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Insoniyatning ichimlik suvi manbalari kamayib borayotgani sababli alternativ suv manbalarini qidirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Atmosferaning har bir kub metrida o‘rtacha 10 -20 grammdan ortiq suv bug‘I mavjud. Bu esa global miqyosda taxminan 12900 km(kub) hajmdagi potensial ichimlik suvini anglatadi. Atmosferadan suv yig‘ish texnologiyasi - bu havo tarkibidagi namlikni sovutish yoki adsorbsion jarayonlar orqali kondensatsiyalash va undan toza suv olishga asoslangan tizimdir. Bugungi kunda bu texnologiyalar ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda:

1) **Faol (aktiv) tizimlar** - elektr energiyasi yordamida havo sovutilib, suv bug‘lari kondensatsiyalanadi;

2) Passiv tizimlar - tabiiy sovutish, sirt harorati va namlik farqiga asoslanadi.

Tomchilarning hosil bo‘lish mexanizmi. Havodagi suv bug‘lari sirt harorati atrof - muhitning shudring nuqtasidan past bo‘lganda kondensatsiyalanadi. Natijada suv molekulalari sirtga yopishib, **tomchi (droplet)** hosil qiladi. Tomchi o‘sish bosqichlari:

1. Nukleatsiya bosqichi - bug‘ molekulalari sirtga yopishadi;

2. O‘sish bosqichi - tomchi radiusi ortadi;

3. Koalesensiya (birikish) - kichik tomchilar birikib yirik tomchi hosil qiladi;

4. Ajralish - tomchi og‘irlik kuchi ta’sirida sirtdan sirpanadi.

Bu jarayonning samaradorligi sirtning fizik xususiyatlariga bog‘liq:

- **Gidrofob sirt -** tomchilarni tez sirpantiradi;
- **Gidrofil sirt** esa tomchini ushlab turadi, ammo ko‘p suv yig‘ilishini ta’minlaydi. Shu sababli aralash sirtlar eng samarali hisoblanadi.

Texnologik yondoshuvlar va tushunchalar. 1) Kondensatsiya asosida suv olish; 2) Adsorbsion - desorbsion yondoshuvlari; 3) Fog net va tomchilardan tushirish usullari; 4) Passiv va aktiv tizimlar farqi.

1) Bu usulda havo sovutilib, undagi suv bug‘lari kondensatsiyalanadi. Sovutish mexanizmi kompressor yoki issiqlik almashtirgich orqali amalga oshadi. Bunday tizimlarning ishlab chiqarish quvvati 5 -500 litr/ kun oralig‘ida bo‘ladi. Masalan, **Watergen** kompaniyasi ishlab chiqargan AWG generatorlari harorat +15 …+40 °C, nisbiy namlik 40 - 80% bo‘lgan sharoitda samarali ishlaydi.

ISSN 3030-3907

2) Bu usulda **zeolit, gel, MOF** yoki **CaCl** singari materiallar havodagi namlikni yutadi. Keyinchalik u issiqlik berilganda suv sifatida ajraladi. Afzalligi - kechasi namlik yutiladi, kunduzi quyosh energiyasi yordamida suv ajraladi. Shu sababli bu energiya tejamkor texnologiyadir. Zamonaviy **MT - SAWH** (Mass Transfer - Solar Assisted Water Harvesting) tizimlari 1㎡ sirt uchun 2 - 5 litr / kun samaradorlikka ega.

3) Bu usul tabiiy va bulutlardan suv yig‘ishga asoslangan. Maxsus **mesh** (to‘rli sirt) tuzilmalarida havodagi tomchilar tutib olinadi. Bir kvadrat metr to‘r kuniga 3 -15 litr suv yig‘a oladi.


Materiallar va konstruktsiya. Zeolitlar - yuqori g‘ovaklikka ega, suv molekulalarini tez yutadi;

MOF (Metal - Organic Framework) - nano - g‘ovakli struktura, yuqori sig‘imli adsorbent;

Gel va gidrogel - past haroratda suvni yutadi, quyosh energiyasida tez ajratadi;

Bioinspiratsiyali sirtlar - o‘rganilgan tabiat namunalariga asoslanadi (lotus bargi, o‘rgimchak to‘ri).

MIT (2025) tadqiqotchilar **origami - gidakli gidrogel** yordamida deraza hajmidagi qurilma bilan havodan ichimlik suvini olishga muvaffaq bo‘lishdi.



1. Issiq havo oqimi yuboruvchi qurilma
2. Sovuq havo oqimini yuboruvchi qurilma
3. Tutash muhut hosil qiluvchi qurilma
4. Ortiqcha bosimni chiqarib yuboruvchi rele

ISSN 3030-3907

5. Qurilma hosil bo‘lgan disterlangan suvni to‘plovchi bak.

Distirlangan suv 3 -qurilmada hosil bo‘ladi. 1,2 qurilmalarni elektr quvvatiga qarab 220 voltda, 1 soatda 8 l dan 12 l gacha distirlangan suv olish mumkin. Olingan suvimizni tarkibi tabiiy yomg‘ir suvi bilan bir xil. Bu suvlarni cho‘l zonalarida qishloq xo‘jaligi uchun ishlatish mumkin. Zavod va fabrikalarda texnik suv sifatida ishlatish mumkin.

Bu texnik qurilma va ixtiro uchun evropatent olingan.

Operatsion parametrlar. Namlik, havo harorati,shtorm sharoitlari; kondensator harorati va sovutish; havo oqimi va fan tizimlari; sikllar va regeneratsiya rejimlari.

Sovutish asosidagi tizimlar ko‘p energiya sarflaydi (0,3 - 0,6 kWh/ litr). Ammo quyosh energiyasi bilan ishlovchi adsorbsion tizimlar bu sarfni 10 - 15 baravar kamaytiradi. Ekonomik hisoblar shuni ko‘rsatadiki, 1 litr suvning o‘rtacha tannarxi:

- desalinatsiya texnologiyasida ≈0,03 $;
- AWG tizimida ≈ 0,05 - 0,10 $.

Lekin AWGning afzalligi - mobil, iqlimga moslashuvchan va ekologik toza ekanligidadir.

Atrof - muhitga ta’siri. Bu texnologiya chiqindisiz, kimyoviy reagentlarsiz ishlaydi. Havodan olingan suv tozaligi jihatidan distirlangan suvga yaqin, lekin keyingi bosqichda **minerallash** zarur. Shu bilan birga, qurilmaning ishlashi iqlimga (harorat, namlik) kuchli bog‘liq: sahro sharoitida samaradorlik past, tropik zonalarda esa yuqori bo‘ladi.

Samaradorlik va cheklovlar. Suv ishlab chiqarish darajasi (L/ ㎡/kun); energiya sarfi; materiallarning chidamliligi, degradatsiyasi; iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan cheklovlar.

Xulosa. Atmosferadan suv olish texnologiyalari insoniyatning ichimlik suvi ta’minotida yangi davrni boshlab berdi. Kondensatsiya, tomchilardan yig‘ish va adsorbsion - desorbsion jarayonlarning kombinatsiyasi energiya tejamkor, ekologik toza va barqaror tizim yaratish imkonini bermoqda. Kelajakda bu texnologiyalar quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanadi:

1. Yangi yuqori sig‘imli MOF materiallar ishlab chiqish;
2. Quyosh energiyasi bilan integratsiyalangan **avtonom tizimlar;**
3. **Mass - transfer optimallashtirish** orqali uzluksiz suv yig‘ish;
4. Kichik masstabli qurilmalarni ijtimoiy sektor (qishloq, armiya, favqulodda holarlar) global yechimlardan biri sifatida qaralmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ahrestani Z. et al. An overview of atmospheric water harvesting methods, therole of materials, and challenges. - PMC, 2023

ISSN 3030-3907

2. Zhou, X. et al.Atmospheric Water Harvesting: A Review of Material and Structural Designs. - ACSMaterials Letters, 2020
3. Gayoso,N.et al. Techno -Economic Analysis of Atmospheric Water Harvesting. - ACS Publications, 2024
4. Chu, W. et al.Advancements in Atmospheric Water Harvesting: Toward Continuous Operation through Mass Transfer Optimization. - Nature Communications Engineering, 2024
5. Liu, X. et al. Water Harvesting from Air: Passive Approaches and Challenges. - ACS Materials Letters, 2022.
6. Window-sized device taps the air for safe drinking water. - MIT News, 2025.
7. Gao, Y. et al. High-yield atmospheric water capture via bioinspired material segregation.- arXiv preprint, 2023.
8. Mukhopadhyay, A. et al. Droplet morphology-based wettability tuning and fog harvesting mesh. - arXiv preprint, 2024.
9. Atmospheric Water Generator (AWG). -Wikipedia, 2025.
10. Fog collection technology overview. -WaterAid Report, 2024.

ISSN 3030-3907

SUN’IY INTELLEKT VA TIBBIY XODIMLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNING YANGI MODELLARI

Muydinov Firuzjon Farxodjonovich
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, dotsent
Orcid ID: 0000-0002-7936-2543

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (AI) va tibbiy xodimlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi modellari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiyotlar sharhi, klinik misollar va xalqaro tajribalar asosida AI qo‘llanilishining afzalliklari va cheklovlari ko‘rib chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, AI diagnostika aniqligini 85–95% gacha oshiradi, shifokorlarning vaqtini 30–40% ga tejaydi va bemor xavfsizligini mustahkamlaydi. Muhokama qismida etik muammolar, texnik to‘siqlar va kelajak istiqbollari yoritilgan. Xulosa sifatida “inson tajribasi + mashina aniqligi” tamoyili zamonaviy tibbiyotning asosiy yo‘nalishiga aylanayotgani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, tibbiyot, hamkorlik modellari, diagnostika, telemeditsina, klinik qaror, bemor xavfsizligi, sog‘liqni saqlash, shaxsiylashtirilgan tibbiyot.

Аннотатция. В статье проводится научный анализ новых моделей сотрудничества между искусственным интеллектом (AI) и медицинскими работниками. В исследовании рассмотрены преимущества и ограничения применения AI на основе обзора литературы, клинических примеров и международного опыта. Результаты показывают, что использование AI повышает точность диагностики до 85-95%, сокращает время врачей на 30–40% и укрепляет безопасность пациентов. В разделе «Обсуждение» освещены этические проблемы, технические барьеры и перспективы развития. В заключении отмечается, что принцип «человеческий опыт + машинная точность» становится основным направлением современной медицины.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, медицина, модели сотрудничества, диагностика, телемедицина, клиническое решение, безопасность пациентов, здравоохранение, персонализированная медицина.

Abstract. This article provides a scientific analysis of new models of collaboration between artificial intelligence (AI) and healthcare professionals. The study reviews literature, clinical cases, and international experiences to assess the benefits and limitations of AI applications. The results indicate that AI improves diagnostic accuracy up to 85–95%, reduces physicians’ workload by 30–40%, and enhances patient safety. The discussion highlights ethical challenges, technical barriers, and future perspectives. In conclusion, the principle of “human expertise + machine accuracy” is emphasized as the core paradigm of modern medicine.

ISSN 3030-3907

Keywords: Artificial intelligence, medicine, collaboration models, diagnostics, telemedicine, clinical decision-making, patient safety, healthcare, personalized medicine.

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining turli sohalarga kirib kelishi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, tibbiyot sohasi AI imkoniyatlaridan keng foydalanayotgan eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimi oldida ko‘plab yangi chaqiriqlar mavjud: aholining qarishi, surunkali kasalliklarning ortib borishi, pandemiyalar, shuningdek, resurslarning cheklanganligi. Shu sharoitda bemor xavfsizligini ta’minlash, tashxis va davolash jarayonini tezlashtirish hamda shifokorlarning ortiqcha yuklamasini kamaytirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Ana shunday vaziyatda sun’iy intellekt tibbiyot xodimlari uchun qudratli yordamchi sifatida maydonga chiqmoqda.

AI tibbiyotda nafaqat diagnostika va davolash jarayonlarida, balki sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish, epidemiologik prognozlash, genetik tadqiqotlar va telemeditsina sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI yordamida tashxis qo‘yish aniqligi 85–95 foizga yetmoqda, shifokorlarning vaqt sarfi 30–40 foizga qisqarmoqda, diagnostik xatoliklar esa 15–30 foizga kamaymoqda. Bularning barchasi AI va shifokorlar o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Biroq, AI texnologiyalarining keng joriy etilishi bir qator savollarni ham tug‘dirmoqda. Xususan, shifokor va AI o‘rtasidagi hamkorlikning optimal modeli qanday bo‘lishi kerak? Qaror qabul qilish jarayonida AI qanchalik ishonchli yordamchi bo‘la oladi? Javobgarlik masalasi kim zimmasiga yuklanadi? Shu bois, ushbu maqola AI va tibbiy xodimlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi modellarini tahlil qilish, ularning samaradorligi, afzalliklari, cheklovlari va istiqbollarini ko‘rsatishga qaratilgan.

Metodlar- Maqolani tayyorlash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi. Avvalo, 2017–2025 yillar oralig‘ida *PubMed*, *Scopus* va *Web of Science* bazalarida chop etilgan 200 dan ortiq ilmiy maqolalar ko‘rib chiqildi. Shulardan eng dolzarb 50 tasi tanlab olindi va ularning ma’lumotlari umumlashtirildi.

Shuningdek, klinik tajriba natijalari tahlil qilindi. Radiologiyada AI yordamida MRT va KT tasvirlarini o‘rganish, kardiologiyada EKG signallarini tahlil qilish, pediatriyada neonatal monitoring tizimlaridan foydalanish, onkologiyada saraton kasalligini erta aniqlash tajribalari o‘rganildi.

Olingan ma’lumotlar asosida AI va shifokor hamkorligining to‘rtta asosiy modeli aniqlab olindi:

ISSN 3030-3907

1. AI – klinik yordamchi (qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash).
2. AI – avtonom ekspert (oddiy jarayonlarni mustaqil bajarish).
3. AI – jamoaviy a’zo (multidisiplinar jamoalarda hamkorlik).
4. AI – telemeditsina modeli (masofaviy xizmat ko‘rsatishda qo‘llanilishi).

Baholash mezonlari sifatida diagnostika aniqligi, qaror qabul qilish tezligi, shifokorlarning ish yukining kamayishi hamda bemor xavfsizligi va qoniqishi tanlandi.

Natijalar- O‘tkazilgan tahlillar natijasida sun’iy intellekt va tibbiy xodimlar hamkorligining har bir modeli o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega ekani aniqlandi.

AI – klinik yordamchi modeli eng keng tarqalgan shakldir. Bu yondashuvda AI shifokor qarorlarini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo yakuniy qaror baribir shifokor tomonidan qabul qilinadi. Masalan, radiolog MRT yoki KT tasvirlarini ko‘rib chiqayotganda AI dasturi shubhali joylarni ajratib ko‘rsatadi. Bu diagnostika aniqligini 10–20 foizga oshirishi mumkin.

AI – avtonom ekspert modelida AI ayrim oddiy tibbiy jarayonlarni mustaqil bajaradi. Misol uchun, laborator tahlillarni normativ ko‘rsatkichlar bilan solishtirish yoki diabet xavfini prognoz qilish. Biroq, bu modelda ham shifokor nazorati saqlanib qoladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diabet xavfini AI yordamida prognoz qilish 87 foizgacha aniqlikka ega.

AI – jamoaviy a’zo modeli multidisiplinar tibbiy jamoalarda eng samarali ko‘rinish hisoblanadi. Masalan, yurak operatsiyasidan oldin jarroh, anesteziolog, kardiolog va AI tizimi birgalikda qaror qabul qiladi. Bu modelda operatsiya xavflarini AI yordamida oldindan baholash asoratlarni 20 foizga kamaytirgani kuzatilgan.

AI – telemeditsina modeli ayniqsa pandemiya davrida dolzarb bo‘ldi. Masofadagi bemorlar shifokor bilan videomuloqot o‘tkazadi, AI esa real vaqt rejimida uning ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi. Bu yondashuv chekka hududlarda yashovchi bemorlar uchun tibbiy yordamga kirish imkoniyatini sezilarli kengaytirdi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki:


- diagnostika aniqligi 85–95 foizga ko‘tarilgan;
- shifokorlarning vaqt sarfi 30–40 foizga qisqargan;
- bemor xavfsizligi yaxshilangan;
- sog‘liqni saqlash tizimi resurslaridan foydalanish samaradorligi oshgan.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida sun’iy intellekt va tibbiy xodimlar hamkorligining to‘rtta asosiy modeli aniqlangan: 1) AI – klinik yordamchi, 2) AI – avtonom ekspert, 3) AI – jamoaviy a’zo, 4) AI – telemeditsina modeli. Quyidagi jadvalda turli modellar samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

ISSN 3030-3907

Model	Diagnostika aniqligi (%)	Shifokor ish yukining kamayishi (%)	Qaror qabul qilish tezligi	Bemor xavfsizligi
AI – klinik yordamchi	90	22	Tezlashgan	Yaxshilangan
AI – avtonom ekspert	87	18	O‘rtacha	Qoniqarli
AI – jamoaviy a’zo	94	35	Juda yuqori	Sezilarli yaxshilangan
AI – telemeditsina	87	25	Masofadan tezkor	Keng imkoniyatlar yaratilgan

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, AI – jamoaviy a’zo modeli eng yuqori samaradorlikka ega. Telemeditsina esa chekka hududlarda tibbiy xizmatga kirish imkoniyatini kengaytirgan.



Muhokama- Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, AI va shifokorlar hamkorligi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Afzalliklar qatoriga aniqlik va tezlikning ortishi, shifokor qarorlarini qo‘llab-quvvatlash, kasalliklarni erta aniqlash hamda resurslardan samarali foydalanish kiradi.

Biroq, ayrim cheklovlar ham mavjud. Etik masalalar haligacha ochiq qolmoqda: agar AI noto‘g‘ri qaror bersa, javobgarlik kim zimmasida bo‘ladi? Texnik muammolar ham bor — AI tizimlari muntazam ravishda katta hajmdagi ma’lumotlar bilan qayta o‘qitilishi kerak. Shuningdek, ba’zi hollarda noto‘g‘ri pozitiv yoki noto‘g‘ri negativ natijalar qayd etilishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab shifokorlar hali AI texnologiyalaridan to‘liq foydalanish malakasiga ega emas.

ISSN 3030-3907

Kelajak istiqbollari juda keng. Avvalo, tibbiy ta’lim dasturlariga AI bilan ishlash ko‘nikmalarini kiritish lozim. Shuningdek, global miqyosda AI asosida yagona tibbiy axborot platformalari yaratish istiqbolli yo‘nalishdir. Ba’zi oddiy jarayonlarni (masalan, laborator natijalarni tahlil qilish) to‘liq AI zimmasiga o‘tkazish mumkin. Eng muhimi, AI yordamida shaxsiylashtirilgan tibbiyot rivojlanadi — har bir bemor uchun uning genetik va klinik ko‘rsatkichlari asosida individual davolash strategiyasi ishlab chiqiladi.

Xulosa- Sun’iy intellekt va tibbiy xodimlar o‘rtasidagi hamkorlik zamonaviy tibbiyotning yangi paradigmasi sifatida shakllanmoqda. AI shifokorni emas, balki shifokor ishini samarali qiladi. Yangi hamkorlik modellari diagnostika aniqligini oshiradi, shifokor vaqtini tejaydi, bemor xavfsizligini mustahkamlaydi va sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini oshiradi.

Kelajakda “inson tajribasi + mashina aniqligi” tamoyili tibbiyotning eng ishonchli va samarali yondashuviga aylanadi. Shu boisdan, AI texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish, shifokorlarni bu sohada malakali tayyorlash va global standartlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida turibdi. Faqat shunda sun’iy intellekt va tibbiy xodimlar hamkorligi insoniyat salomatligi uchun eng yuqori samarani berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muydinov F.F. Enhancing 5G Network Throughput Using Reinforcement Learning. 024 IEEE International Conference on Communication, Computing and Signal Processing (IICCCS) | 979-8-3503-9075-9/24/$31.00 ©2024 IEEE | DOI: 10.1109/IICCCS61609.2024.10763894.
2. Muydinov F.F. Tibbiy ta’limda mediata’lim asosida o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari / FarDU. ILMIY XABARLAR – Farg‘ona, 2024, –bb. 164-168. (13.00.00; №17)
3. Muydinov F.F. Mediaeducation for the development of media competence when preparing students for professional activities / The American Journal of Social Science and Education Innovations 29.09.2023, –pp. 67-74.
4. Muydinov F.F. Application of the information and communication system for automation of the service of soon medical aid / Annali d’italia scientific journal of Italy vol. 1 2019 – pp. 53-56.
5. Muydinov F.F. Значение процессов цифровизации и информационных технологий в здравоохранении. NamDU. Ilmiy axborotnomasi – Namangan, 2024, – bb. 990-993.
6. Muydinov F.F. Будущие возможности искусственного интеллекта в медицине. Kokand University Herald scientific e-journal – Qo‘qon, 2024, – bb. 115-118.

ISSN 3030-3907

7. Муйдинов Ф.Ф. Применение систем дистанционного обучения в обучении сотрудников организаций / Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda ta’lim sifatini boshqarish muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2022-yil 20-may. – bb. 311-316.
8. Karimov A., Xolmatova D. Tibbiyotda sun’iy intellektning qo‘llanilishi: imkoniyatlar va muammolar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2022. – 180 b.
9. Rasulov B., Axmedova G. Radiologiyada zamonaviy texnologiyalar va AI algoritmlarining samaradorligi. – “Tibbiy axborot texnologiyalari” jurnali, 2023, №4, 45–52-bet.
10. Jo‘rabekov Sh., Yusupova M. Tibbiyotda raqamli transformatsiya va sun’iy intellektning integratsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021. – 220 b.
11. Мирзаев У., Сиддиков А. Клиническое применение систем искусственного интеллекта в кардиологии. – Журнал “Здравоохранение Узбекистана”, 2023, №2, с. 60–66.
12. Akhmedov R., Abduqodirov I. Sun’iy intellekt asosida tibbiy qaror qabul qilish tizimlari. – Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy to‘plami, 2024, №1, 73–81-bet.
13. Esteva A., Robicquet A., Ramsundar B., et al. A guide to deep learning in healthcare. *Nature Medicine,* 2019; 25: 24–29. doi:10.1038/s41591-018-0316-z
14. Topol E. Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. – New York: Basic Books, 2019. – 400 p.
15. Rajpurkar P., Irvin J., Zhu K., et al. CheXNet: Radiologist-level pneumonia detection on chest X-rays with deep learning. *arXiv preprint,* 2017. arXiv:1711.05225.
16. Yu K-H., Beam A. L., Kohane I. S. Artificial intelligence.
17. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologik ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati “Central asian research journal for inter disciplinary studies” (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O‘zbekiston 4-son 82-85-betlar. 2022-yil.
18. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini metodik kompetentligini rivojlantirish mezonlari” “Criteria for the Development of Methodological Competence of Future Teachers of Technology” International Jourtal on Integrated Education. Researcg parks publishing Indonesia. In Vol.6 No r (2023).

ISSN 3030-3907

19. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kasbiy va metodik kompetentlikni shakllantirishda integratsion jarayondan foydalanish”. “Mug‘allem hem uzluksiz bilimlendio‘” Ilmiy jurnali. Nukus. №5/2. 2022-yil.129-134-betlar.
20. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini metodik kompetentligini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari”. “NamDU ilmiy xabarlari” Ilmiy jurnali. Namangan 11-son. 2022-yil 636-641-betlar.
21. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari”. “FarDU ilmiy xabarlar” Ilmiy jurnali. 2023-yil 1-son 574-577-betlar.
22. N.V.Nosirov “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish modeli”. “Ta’lim, fan va innovatsiya” Ilmiy jurnali. 2023-yil 3-son 71-75-betlar.

ISSN 3030-3907

MINTAQAVIY AGRAR SEKTORNING OPTIMAL RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA EVOLYUTSIYASI

Iqtisodiyot fanlari

Ibragimov Nodir Nusriddinovich

Qarshi davlat texnika universiteti Axborot texnologiyalari va tizimlari kafedrasi i.f.f.d, PhD, ,

Email: Nodirnusriddinovich@gmail.com

Tel:+998 91 956 31 31

Annotatsiya. Maqolada mintaqaviy agrar sektorning optimal rivojlanish modelini shakllantirishning nazariy asoslari va evolyutsiyasi tahlili yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Agrar sektor, innovatsion rivojlanish, ekonometrik prognozlash, takomillashtirilgan yondashuvlar, rivojlanish modeli, iqtisodiy tahlil, mintaqaviy agrar sector, agrar siyosat, evolyutsion yondashuv

Аннотация. В статье освещены теоретические основы и анализ эволюции формирования оптимальной модели развития регионального аграрного сектора.

Ключевые слова. Аграрный сектор, инновационное развитие, эконометрическое прогнозирование, усовершенствованные подходы, модель развития, экономический анализ, региональный аграрный сектор, аграрная политика, эволюционный подход

Annotation. The article highlights the analysis of the theoretical foundations and evolution of the formation of the optimal development model of the regional agrarian sector.

Keywords. Agrarian sector, innovative development, econometric forecasting, improved approaches, development model, Economic Analysis, Regional agrarian sector, Agrarian Policy, evolutionary approach

Kirish.

Mazkur maqolada mintaqaviy agrar sektorning optimal rivojlanish modelini shakllantirishning nazariy asoslari hamda ushbu jarayonning evolyutsion bosqichlari tahlil qilingan. Agrar sektorda yuz berayotgan strukturaviy o‘zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlari, demografik omillar, resurslardan foydalanish samaradorligi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq talablarning oshishi natijasida rivojlanish mexanizmlarining takomillashuvi zarurligi asoslab beriladi.

Agrar sektoriqtisodiyotning an’anaviy, chuqur tarixiy ildizga ega bo‘lgan muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligi, mamlakat iqtisodiy rivojini, Yani sanoatning muhim tarmoqlarini xom ashyo bilan ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda qishloq joylarida

ISSN 3030-3907

istiqomat qiluvchi dunyo aholisining katta qismining hayot tarzi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita qishloq xo‘jaligiga taaluqli bo‘lib, ular bandligi va daromadlari darajasi bevosita soha taraqqiyotiga bog‘liqligicha qolmoqda. Shunga qaramay keyingi davrda mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot, sanoat va xizmat ko‘rsatishning YAIMdagi ulushini oshib borishi natijasida urbanizatsiya darajasining ko‘tarilishi qishloq xo‘jaligida bandlar sonini kamayishiga sabab bo‘lmoqda[1]. Boshqa tomondan esa qishloq xo‘jaligida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengayib borishi samaradorlik va intensivlikni oshirish evaziga ish o‘rinlari sonini qisqarishiga olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish tushunchasiga e’tibor qaratib o‘tadigan bo‘lsak, ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra qishloq va shaharlardagi ijobiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi ko‘p tarmoqli faoliyatlar yig‘indisi sifatida qaraladi[2]. Chunki, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy maqsadi odamlarning moddiy va ijtimoiy farovonligini oshirishdir. Shu sababli qishloq xo‘jaligini rivojlantirish qishloq taraqqiyotining sinonimi sifatida qaraladi. Aslida ushbu atamalar bir-biridan ma’lum jihatlari bilan farq qilsada, o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish qishloq joylarini rivojlantirishning bir qismi bo‘lib, qishloq joylari taraqqiyotini qishloq xo‘jaligini rivojlantirmasdan turib ta’minlab bo‘lmaydi, chunki yuqorida ta’kidlanganidek qishloq aholisining asosiy daromad manbai soha va unga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Xususan, mamlakatimizda ham Agrar sektormuhim sohalardan hisoblanib, uning muhimligi YAIMdagi, aholi bandligini ta’minlashdagi ulushining kattaligi bilan asoslanadi. Buni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan sohani rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda iqtisodiyotni zamon talablari asosida rivojlantirish, xususan raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarda birinchi navbatda, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta’lim, arxiv sohalarini to‘liq raqamlashtirish masalasi qo‘yilgan[3]. Shuningdek, O‘zbekistoan Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoyev 2025 yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga to‘xtalgani holda “Iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o‘sishini ta’minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarurlini” ta’kidlab o‘tdilar[4]. Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida Agrar sektorsohasiga e’tibor qaratish, muhim bo‘lgan qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning yechimi sifatida maydonga chiqadi.

ISSN 3030-3907

Jumladan, Agrar sektormamlakatimizda muhim ijtimoiy masalalardan bo‘lgan yoshlar va ayollar bandligini ta’minlash, gender tengsizligini hal qilishda ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy o‘sishni biz aholiga turli iqtisodiy tovarlar etkazib berish imkoniyatlarining uzoq muddatli o‘sishi sifatida qarab chiqamiz. Iqtisodiy o‘sishning namoyon bo‘lishi o‘z navbatida milliy mahsulot barqaror o‘sishini ta’minlaydi[5].

Shu nuqtai nazardan iqtisodiyotni ham ijtimoiy, ham iqtisodiy asoslarini o‘zgartirishda Agrar sektorsanoatni mahalliy xom ashyo bilan ta’minlash va davlat daromadlarini shakllantirishning ishonchli asosi hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishni ta’minlovchi foydali ish manbai sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot obyekti hamda qishloq xo‘jaligini kishilik jamiyatida eng chuqur ildizga ega bo‘lgan, boshqa tarmoqlar uchun tayanch vazifasini bajaruvchi, iqtisodiyotning muhim tarmog‘i ekanligini inobatga olgan holda qishloq xo‘jaligini rivojlanish modellari evolyutsiyasini qarab chiqishni maqsad qilganmiz. Ushbu tahlil va uning natijasida olinadigan xulosalar bizga qishloq xo‘jaligini rivojlanish tarixini o‘rganish, kelgusi taraqqiyotini ta’minlash yo‘nalishlarini tanlab olish va kelgusi davr uchun strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, to‘liq rivojlangan iqtisodiyot, ayniqsa Agrar sektorsektori, eksport qilinadigan ekinlar miqdori va navlari yaxshilanishi bilan eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishi ko‘payishi ta’minlanadi[6]. Biroq, har qanday mamlakat rivojining dastlabki davrida sanoatlashishi uchun Agrar sektoragrosanoat tarmoqlariga yetarli miqdorda material etkazib bera olsagina, Agrar sektormahsuloti o‘sishga erishgan deyiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga to‘rt xil yo‘l bilan yordam berishi mumkinligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi[7].

Bular:

a) Ichki iste’mol uchun mavjud bo‘lgan oziq-ovqat ta’minotini oshirish va sanoatdagi bandlikni ta’minlash zarur bo‘lgan ishchi kuchini bo‘shatish.

b) Ishlab chiqarish sektori uchun ichki bozor hajmini kengaytirish.

v) Ichki jamg‘armalar taklifini oshirish.

g) Agrar sektormahsulotlarini eksport qilish orqali ishlab topilgan valyutani erkin almashtirishni ta’minlash.

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish qishloq joylarida hayot sifatini yaxshilash, bugungi va kelajak avlodlar uchun zaruriy miqdordagi oziq-ovqat ta’minotini shakllantirish, fermer va dehqon

ISSN 3030-3907

xo‘jaliklari uchun etarli daromadga ega bo‘lish imkoniyatini ta’minlashni anglatadi. Qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, kelajak uchun ishlab chiqarish quvvatlarini ta’minlash va saqlash, atrof-muhitga zarar etkazmasdan, tabiiy resurslarga xavf solmasdan samaradorlikni oshirishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, bu mahalliy bilimlarni hurmat qilish va e’tirof etish, tabiiy resurslarni boshqarishni shakllangan mahalliy usullari, kelajak avlod istiqboliga ziyon etkazmasdan hozirgi avlod imkoniyatlarini targ‘ib qilish uchun harakatlarni talab qiladi.

Binobarin, iqtisodiy va ekologik barqarorlik, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini ta’minlash, kelajak avlod uchun ishlab chiqarish salohiyati, yaxshilangan oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik kabilar rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning muhim elementlari hisoblanadi[8].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Bugungi kunga qadar qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning qator nazariyalari shakllangan bo‘lib, tadqiqotimizning mazkur paragrafida ularning rivojlanish evolyutsiyasini tahliliy qarab chiqamiz. Ushbu nazariyalarning asosiy va umumiy maqsadi insonlarning moddiy va ijtimoiy farovonligini oshirish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan bu ko‘pincha atrof-muhit va jamiyat, aholi farovonligini yaxshilashga kompleks yondashuv sifatida qaraladi[9].

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jarayonidagi birinchi qadam oldingi yoki an’anaviy jamiyatlardagi kabi qishloq xo‘jaligini statik, Yani o‘zgarmas deb qarashdan voz kechish bo‘ldi. Biroq, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish muammosi - statik qishloq xo‘jaligini zamonaviy dinamik sektorga aylantirish emas, balki soha mahsuloti va hosildorligi o‘sish sur’atlarini iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida boshqa tarmoqlaridagi o‘sish darajasiga mosligini ta’minlash hisoblanadi.

Shu sababli, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jarayonini mazmun nuqtai nazaridan oldingi yoki an’anaviy jamiyatdagi kabi statik deb qarashdan voz kechishi kerak. Demak, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish nazariyasi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1,0 foiz yoki undan kam bo‘lgan o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan mamlakatlardan to yillik o‘sishi 4,0 foiz va undan oshiq o‘sish darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlar Agrar sektoro‘sishining dinamikasi yoki o‘zgaruvchan o‘sish manbalari to‘g‘risida tushuncha berishga xizmat qiladi[10].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha adabiyotlarda beshta umumiy model mavjud[11];

a) Chegaraviy model

b) Tabiatni muhofaza qilish modeli

ISSN 3030-3907

v) Urbanizatsiya va sanoatlashish ta’siri modeli

d) Diffuzion model

e) Yuqori rentabellikni ta’minlash modeli

Chegaraviy model: ushbu model g‘arb mamlakatlarida shakllanlangan bo‘lib, unga ko‘ra qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish hajmini oshirishning asosiy usuli sifatida haydaladigan va o‘tlaydigan maydonlarning kengayishi qaraladi. Chunki, XVIII-XIX asrlarga kelib yangi qit’alar - Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliyaning Yevropa istilosi asosida ochilishi yoki yaratilishi ushbu modelning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan omillardan hisoblanadi[12]. Ushbu yangi qit’a mamlakatlari G‘arbiy Evropaning metropoliten mamlakatlari uchun tobora muhim oziq-ovqat va Agrar sektorxom ashyo manbalariga aylandi.

Oldingi vaqtlarda shunga o‘xshash jarayonlar Evropa, Osiyo va Afrikaning dehqon va qishloq xo‘jaliklarida unchalik katta bo‘lmagan sur’atda sodir bo‘lgan. Yani, yangilikka intiluvchi mahalliy aholini mavjud qishloqlarda erdan foydalanish darajasining kuchayishi, yangi qishloqlarning barpo etilishi va ochilishi, erlarni almashlab ekish tizimiga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Natijada, tuproq sharoitlari qulay bo‘lgan, katta daryo havzalari va tekisliklarda bo‘lgani kabi, yangi qishloqlar asta-sekin o‘zlarining etishtirish tizimini kuchaytirdilar. Tuproq resurslari kam unumdor bo‘lgan joylarda, aksariyat tepaliklar va tog‘li hududlarda bo‘lgani kabi, yangi maydonlar ochish yoki o‘tloqlarni kengaytirish maqsad qilindi.

Aholi soninining tez sur’atlarda o‘sishi natijasida ushbu modeldan foydalanish uzoq davom etmadi, chegaraviy model o‘z chegaralariga tezda erishdi. Ushbu davrdagi o‘ziga xosliklardan biri bu ekinlarning hosildorligi ekin maydonlari birligi nisbatan olganda urug‘ birligida past bo‘lgan. Misr va Janubiy Osiyodagi va Sharqiy Osiyodagi nam guruch zonasi kabi hududlardan tashqari barcha hududlarda hosildorlikni maydon va ishchi soatiga nisbatan pasayishi kuzatilgan[13]. Ba’zi hududlardagi jiddiy vaziyat dehqonlarning ahvolini yomonlashtirgan, natijada chegaraviy model bo‘yicha rivojlanish 20-asrning so‘nggi choragiga qadar samarali o‘sish manbai sifatida qaralgan. 1960-yillarda Janubiy-Sharqiy Osiyoning aksariyat hududlari, Lotin Amerikasi va Afrikada “chegaraviy model nihoyasiga yetdi”, yangi erlarning ochilishi zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashish uchun texnologiyalar ishlab chiqilishi, tuproq unumdorligini oshirilishi bilan bog‘liq muammolar o‘z yechimini kutayotgan edi.

Tabiatni muhofaza qilish modeli: mazkur model ingliz Agrar sektorinqilobi bilan bog‘liq bo‘lgan ekin va chorvachilikdagi yutuqlar hamda dastlabki nemis kimyogarlari, tuproqshunos olimlari tomonidan taklif qilingan tuproqning charchashi konsepsiyalari asosida shakllandi. Tabiatni muhofaza qilish modeli tobora murakkablashib borayotgan er va mehnatni talab qiladigan ekinlar tizimi, organik o‘g‘itlarni ishlab chiqish, ulardan foydalanish va fizik shaklga ega

ISSN 3030-3907

bo‘lgan mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladigan kapitalni shakllantirishni evolyutsiyasi ketma-ketligiga e’tibor qaratdi. Ushbu model dunyoning ko‘pchilik fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirishga qaratilgan yagona yondashuv edi.

Tabiatni muhofaza qilish modeli asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish dunyoning ko‘plab mintaqalarida mahsulot yetishtirishning o‘sish sur’atlarini nisbatan uzoq vaqt davomida yiliga 1,0 foiz atrofida ushlab turishiga xizmat qilishiga ishonilgan. Natijada, mazkur ko‘rsatkich rivojlanayotgan davlatlarda Agrar sektormahsulotlariga talabning 3-5 foiz atrofidagi o‘sish sur’atlariga mos kelmadi va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning yangi modelini ishlab chiqishga zarurat paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Keyingi model sifatida urbanizatsiya darajasining oshishi va sanoatlashish ta’siri modeli maydonga chiqdi.

Urbanizatsiya va sanoatlashish ta’siri modeli: tabiatni muhofaza qilish modelida Agrar sektorrivojlanishidagi farqlarning hududlar kesimidagi o‘zgarishi, avvalambor atrof-muhit omillarining farqi bilan bog‘liq deb qaralgan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur’atlaridagi geografik farqlarni birinchi navbatda urbanizatsiya darajasining oshishi sanoat rivojlanish darajasi va iqtisodiy o‘sishi darajasi bilan izohlanadigan modellardan keskin farq qiladi. Dastlab, urbanizatsiya darajasining oshishi va sanoatlashish ta’siri modeli dehqonchilik tizimi intensivligida geografik va sanoatlashgan jamiyatdagi mehnat unumdorligining o‘zgarishini tushuntirish uchun ishlab chiqilgan. Keyinchalik ushbu model shaharsozlik sanoatining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadigan mintaqalarda Agrar sektorva qishloq xo‘jaligidan tashqari sohalarni bog‘laydigan omil va mahsulot bozorlarining yanada samarali ishlashini tushuntirish uchun kengaytirilgan. Model kam davlatlarda keng sinovdan o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan, past rivojlangan dunyoda cheklangan e’tiborga ega bo‘lgan. Ushbu model ham kun talabi darajasidagi o‘sishni ta’minlashda yetarli asosga ega bo‘la olmadi va o‘zidan keyin rivojlangan diffuzion modelning shakllanishiga imkoniyat yaratib berdi.

Diffuzion model: qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga diffuzion yondashuv qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtiruvchilar va mintaqalar o‘rtasida er, mehnat unumdorligidagi sezilarli farqlarning empirik kuzatuviga asoslangan. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘lida texnik bilimlarni yanada samarali yoyilishini ta’minlash, mahsulot yetishtiruvchilar hamda mintaqalar mahsuldorligidagi farqni qisqatirishga asoslanadi. Chorvachilikni rivojlantirishining takomillashgan amaliyotining keng miqyosda tarqalishi hattoki zamonaviy jamiyatlarda ham mahsuldorlik o‘sishining asosiy manbai bo‘lib hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Ushbu davrda zamonaviy Agrar sektortadqiqot tizimlarini ishlab chiqishdan oldin asosiy e’tibor va kuch ekinlarni o‘rganish, bilimlarni amaliyotga joriy etishga sarflandi. Agrar sektorbo‘yicha tadqiqot tizimlari rivojlangan mamlakatlarda ham mahsulot yetishtiruvchilar tomonidan kashf qilingan yangiliklarni sinash va takomillashtirish, o‘ziga xos ekin turlari va chorva zotlarini sinovdan o‘tkazish, moslashtirish masalalari bo‘yicha keng miqyosda ishlar olib borilmoqda. Model sohadagi ilmiy yangiliklarni yoyilish darajasi, mahsulot yetishtiruvchilarning shaxsiy xususiyatlari, ta’lim yutuqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur model paydo bo‘lganidan keyin fermer xo‘jaliklarini boshqarish, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiyoti, unda olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlarning kengayish harakatlarining intellektual asosi yaratildi. XIX asrning oxirida Agrar sektoriqtisodiyoti, Agrar sektorfanlari iqtisodiyotini bir-biriga bog‘laydigan alohida fan sifatida paydo bo‘ldi. Fermer xo‘jaliklarini boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar va dasturlarni kengaytirishning faol chora-tadbirlarini ishlab chiqishga olib kelgan o‘zgarishlar, tajriba-sinov maydonlarida olib borilgan tadqiqotlar Agrar sektormahsuldorligining o‘sishiga hissa qo‘shgan paytga to‘g‘ri keldi. Agrar sektordoirasidagi sotsiologlarning diffuziya jarayoni bo‘yicha tadqiqotlari ma’lum bo‘lgan texnologiyaning samarali tarqalishiga ko‘maklashishga xizmat qildi.

Aniq yoki bilvosita diffuzion modelga asoslangan texnik yordam va jamiyatni rivojlantirish dasturlarini an’anaviy fermer xo‘jaliklarini jadal modernizatsiya qila olmasligi, Agrar sektormahsulotlarining tez o‘sishini ta’minlay olmasligi sbabli qishloq xo‘jaligini rivojlantirish siyosatini ishlab chiqish uchun poydevor sifatida diffuzion modelning cheklovlari tobora oshkor bo‘la boshladi.

Yuqori rentabellikni ta’minlash modeli: Tabiatni muhofaza qilish, urbanizatsiya va sanoatlashish ta’siri, diffuzion modelga asoslangan siyosatning o‘zini oqlamaganligi 1960-yillarda yangi istiqbolga olib keldi. An’anaviy Agrar sektorsohasini iqtisodiy o‘sishning samarali manbaiga aylantirishning kaliti sifatida kambag‘al mamlakatlardagi fermerlar uchun zamonaviy, yuqori rentabellikga ega manbalarni yaratishga mo‘ljallangan sarmoya maydonga chiqdi. An’anaviy Agrar sektortizimlarida dehqonlar resurslarni oqilona, samarali taqsimlovchi subyekt sifatida qaralganligi, aksariyat qashshoq mamlakatlarda zamon talablariga javob beradigan texnik va iqtisodiy imkoniyatlar cheklanganligi ular kambag‘al bo‘lib qolishiga olib kelgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlar tomonidan yangi yuqori rentabellikni ta’minlash manbalari uch toifaga bo‘lingan:

ISSN 3030-3907

a) Davlat va xususiy sektor tadqiqot institutlarining yangi texnik bilimlarni ishlab chiqarish imkoniyatlari;
b) Sanoat sektorining yangi texnik vositalarni yaratish, ishlab chiqarish va bozorga yetkazish imkoniyatlari;
c) Fermerlarning yangi bilimlarni egallash va yangi texnologiyalardan samalari foydalanish imkoniyatlari;

Yuqori rentabellikni ta’minlash modelini qabul qilish va iqtisodiy doktorinaga aylantirish ishtiyoqi qisman Agrar sektorsohasidagi tadqiqotlarga davlat investitsiyalarining yuqori rentabelligi to‘g‘risida hisobotlarni ko‘payishi bilan bog‘liq. Shuningdek, tropik mintaqaga mos yangi, yuqori mahsuldor don navlarini yaratish bo‘yicha sa’y-harakatlarning muvaffaqiyati bilan bog‘liq edi. Meksikada 1950-yillardan boshlab yuqori hosildor bug‘doyning yangi navlari, 1960-yillarda Filippinda yuqori hosildor sholi navlari yaratildi. Ushbu navlar o‘g‘it va boshqa kimyoviy moddalar kabi sanoat manbalari, tuproq va suvni samarali boshqarishga juda ta’sirchan bo‘lgan. Biroq, yangi navlarni qabul qilish bilan bog‘liq yuqori rentabellik va unga tegishli texnik ma’lumotlar, boshqarish usullari Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlarida yangi navlarning tez tarqalishiga olib keldi.

Model hanuzgacha qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning to‘liq shakllanib bo‘lmagan nazariyasi sifatida qolmoqda. Ta’lim va tadqiqot natijalarini ijtimoiy mahsulot bo‘lib, bozorlarda sotilmasligi sababli, ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va boshqa muqobil davlat hamda xususiy sektor iqtisodiy faoliyatlari uchun resurslarni taqsimlash mexanizmi ushbu modelda to‘liq qamrab olinmagan. Bundan tashqari, modelda tadqiqotga sarflangan sarmoya yangi yuqori qaytimga ega texnikaning manbai deb hisoblanmaydi. Shu bilan birga iqtisodiy sharoit ma’lum bir jamiyat uchun samarali texnologiyalar to‘plamini ishlab chiqish va moslashtirishga qanday turtki berishini tushuntirmaydi. Bundan tashqari omil va mahsulot narxlari munosabatini ma’lum bir yo‘nalishdagi tadqiqotlarga sarmoyalarni jalb qilishi asosida jarayonni aniqlashtirish masalasiga e’tibor qaratilmaydi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish modellari evolyutsiyasi tahlili natijalariga ko‘ra xulosa qiladigan bo‘lsak, Agrar sektoro‘sishining ta’siri va paydo bo‘lishi 60-yillardagi sanoatlashtirish va iqtisodiy o‘sish uchun juda muhim ahamiyatga ega, ammo qishloq xo‘jaligining o‘sish jarayonining o‘zi ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda e’tibordan chetda qolmoqda. Shuningdek, bugungi kunga qadar shakllantirilgan modellar tahlili ularning har biri o‘ziga xos kamchilikarga ega ekanligini asoslamoqda. Bu esa o‘z navbatida ularni yanada takomillashtirish hamda rivojlantirish asosida yangi modellarni yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratish talab qiladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cardno (2017) Agricultural development as a key role in food security and economic development in most of the world’s population in rural area.
2. Nwachukwu I. (2008) Planning and evaluation of agricultural and rural development project. Lambhouse publishers. p. 1-6.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
5. Researchclue.com (2013) The impact of agricultural development on economic growth of Nigeria. Home for Nigerian researchers
6. Researchclue.com (2013). The impact of agricultural development on economic growth of Nigeria. Home for Nigerian researchers
7. European Commission (2018) Sustainable agriculture and rural development policy-agricultural development. International cooperation and development. https//ageconsearch.umn-edu/bitstream/135054/ Fris-1972-11-02-245pdf
8. Nwachukwu I. (2008) Planning and evaluation of agricultural and rural development project. Lambhouse publishers. p. 1-6.
9. Udemezue JC, Osegbue EG. Theories and Models of Agricultural Development. Ann Rev Resear. 2018; 1(5): 555574.
10. European Commission (2018) Sustainable agriculture and rural development policy-agricultural development. International cooperation and development. https//ageconsearch.umn-edu/bitstream/135054/ Fris-1972-11-02-245pdf.
11. Udemezue JC, Osegbue EG. Theories and Models of Agricultural Development. Ann Rev Resear. 2018; 1(5): 555574.
12. Udemezue J.C., Osegbue E.G. Theories and Models of Agricultural Development. Ann Rev Resear. 2018; 1(5): 555574.

ISSN 3030-3907

NAMANGAN SHAHRI ISLOM KARIMOV KO‘CHASIDA JOYLASHGAN ELASTIK-PLASTIK GRUNTLARDA TO‘LQIN TARQALISHI.

Jo‘raboyev Mexro‘zbek Muxtorjon o‘g‘li

Namangan Davlat Texnika universiteti Tayanch doktoranti(PhD-doktaront)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan shahri Islom Karimov ko‘chasida joylashgan grunt qatlamlarining elastik-plastik xususiyatlari va seysmik to‘lqinlarning u orqali tarqalish mexanizmlari 3D raqamli modellashtirish yordamida o‘rganildi. Tadqiqot “Namangan Premium Investments” obyekti uchun O‘ZGASHKLITI tomonidan 2019-yilda tayyorlangan geotexnik ma’lumotlar asosida olib borildi. Grunt qatlamlari 15 metr chuqurlikkacha bo‘lib, ular topraq (E=5 MPa), loess (E=25 MPa), qum-shag‘al (E=80 MPa) va zich shag‘al (E=150 MPa) qatlamlaridan tashkil topgan. PLAXIS 3D dasturi yordamida elastik-plastik modellashtirish amalga oshirilib, to‘lqin tarqalishi, deformatsiya, tezlik va tezlanish tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, maksimal deformatsiya qiymati 7.29 mm ni tashkil etdi, bu sirtga yaqin qatlamlarda (0–1.6 m) kuzatildi. 5 m chuqurlikdagi tezlik qiymati 17.4×10^{-3} m/s bo‘lsa, 20 m chuqurlikda bu qiymat 0.036×10^{-3} m/s gacha kamaydi. Shuningdek, tezlanish 5 m da 0.35 m/s², 20 m da esa 0.12 m/s² ga teng bo‘lib, grunt chuqurligi ortgani sari energiya so‘nishining eksponent tarzda kamayishini ko‘rsatdi. Model natijalari sirt qatlamlarining yuqori plastiklik indeksi (PI=12–18%) va past elastiklik moduli (E=5–25 MPa) tufayli to‘lqin energiyasi kuchli yutilishini, pastki zich qatlamlar esa reflektiv xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot seysmik xavfni baholash, poydevor loyihalarini optimallashtirish hamda gruntlarning dinamik barqarorligini oshirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar*:* Elastik-plastik grunt, 3D modellashtirish, PLAXIS 3D, seysmik to‘lqin, deformatsiya, tezlik, tezlanish, energiya so‘nishi, Rayleigh to‘lqini, Mohr–Coulomb modeli, Namangan, seysmik barqarorlik.

Dunyoda sotuvda mavjud bo‘lgan biologik faol birikmalarning biometallar bilan metallokomplekslarini sintez qilish usullarini ishlab chiqish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu birikmalar farmatsevtikada antibiotiklar va silga qarshi vositalar, tibbiyotda biologik faol moddalar hamda mikroorganizm hujayralari uchun bakteriyalarni o‘sishini ingibirlovchi antibakterial faol moddalar sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI. Rentgen strukturaviy analiz sintez qilingan birikmalarni nafaqat individualligini, balki kompleks birikmalarning tuzilishini ham aniqlash imkonini beradi. Co metall bilan siprofloksatsinning bir turli kompleks birikmasining sintezini amalga oshirish, uning tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, olingan natijalar tahlilidan tegishli qonuniyatlarni aniqlash va

ISSN 3030-3907

aniqlangan xossalarga ko‘ra kompleks birikmalarning ko‘llanilish sohalarini belgilash kabi vazifalarni amalga oshirish zaruriyatini ko‘rsatib berdi. Bunday kompleksning olinishiga bo‘lgan qiziqish, ularni biologik sistemalarda sodir bo‘ladigan jarayonlarni modellashtirishda ishlatish mumkinligi bilan izohlanadi.

Siprofloksatsin molekulasidan farqli ravishda suv molekulasida qo‘shimcha koordinatsion bog‘ hosil qilish imkoniyatlari paydo bo‘ladi, ya’ni kompleks hosil bo‘lishida kislorod atomlari ham qatnashadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Siprofloksatsinni $CoSO_4$ bilan olib borilgan reaksiyasi natijasida $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2\cdot 6H_2O$ kompleks birikmasini RSA yordamida tuzilishi amalga oshirildi. $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2\cdot 6H_2O$ kompleksining kristall tuzilishi 1-rasmda keltirilgan. Kristall tuzilishi $[Co(H_2O)_6](SO_4)_2\cdot 2HL\cdot 6H_2O$(1) bo‘lgan modda molekulasi tarkibida tetraedr shaklda $[Co(H_2O)_6]^{2+}$, ikkita bir xil zaryadlangan $(HL)^+$ kationlar, ikkita sulfat anioni va oltita suvdan iborat bo‘lgan (1-rasm). Co^{2+} ioni oktaedrik koordinatsiyaga ega: Co-O_w orasidagi masofasining o‘rtacha qiymati 2,073Å va O_w-Co-O_w ning burchaklari 91^0. Co^{2+} ionining simmetriya o‘qi 2 da 4e holatida yotadi. Co^{2+} ionining atrofida ikkita suv molekulasi va sulfat ionidagi har bir O atomlarining birinchi holatda ishg‘ol etish koeffitsentlari 0,60(1) va 0,40(1), ikkinchi holatda 0,46(1) va 0,54(1) bo‘lgan ikkita holatga bo‘lingan. Ikkinchi holatda, Co(II) ioni atrofidagi ikkita suv molekulasi ishg‘ol koeffitsentlari 0,6 va 0,4 bo‘lgan ikkita pozitsiyaga bo‘lingan. Sulfat guruhidagi O atomlarining har biri taribsiz holatda bo‘ladi. HL molekulasi tarkibida protonlangan karboksil guruhi va piperazin halqasining protonlangan N(3) atomiga ega ikki zaryadli kation bo‘ladi. HL^+ kationlarining bog‘lanish uzunligi va burchaklarining ko‘pchiligi L HC1 ning burchaklariga juda o‘xshashdir [1]. Piperazin halqasida kreslo konformatsiyasi mavjud: N(3)C(15)C(16)N(2) va N(3)C(14)C(13)N(2) diedral burchaklari mos ravishda -56,15 va 56,530 ga teng bo‘ldi. Xinolon halqasi to‘liq tekkislashgan holatda bo‘ladi.




1-rasm. $[Co(H_2O)_6]^{2+}$ va ikkita zaryadlangan $(HL)^+$ kationi va ikkita SO_4^{2-} anionidan va oltita suv molekulasining tuzilishi

ISSN 3030-3907

Asosiy o‘rganilayotgan biofaol birikma siprofloksatsinning kadmiy metall kationi ishtirokidagi kompleks birikmaning, tarkibi va tuzilishi turlicha bo‘lishligi uning molekulalararo ta’sirlashida qanday namoyon bo‘lishligini o‘rganish har tomonlama qiziq hisoblanadi. Shuning uchun RSA yordamida tajriba yo‘li bilan olingan $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2 \cdot 6H_2O$ kompleks birikmaning kristallografik ma’lumotlari asosida, ulardagi molekulalararo ta’sirlashuvlar o‘rganildi [2]. Buning uchun qattiq kristall holatda molekulalararo ta’sirlashishlarni Xirshfeld (Hirshfeld) sirti tahlilili yordamida tavsiflash amalga oshirildi. Siprofloksatsin molekulasining molekulalararo o‘zaro ta’sirlashuvlarda ishtirok etuvchi atomlar ulushlarini ko‘rsatadigan ikki o‘lchamli barmoq iz chizmalari hamda tegishli juft atomlarning hissalari (%), Xirshfeld umumiy sirt yuzasi va hajmining miqdorlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirildi. Tahliliga ko‘ra molekulalararo o‘zaro ta’sirlarda asosiy ulushlar H···H (31.0-40.5%) va O···H/O···H (22.2-34.7%) atomlari orasidagi ta’sirlarga mos keladi. Kompleks birikmalarda molekulalararo o‘zaro ta’sirlashuvlarda ishtirok etuvchi atomlar ulushlarini tavsiflaydigan ikki o‘lchamli barmoq izlari chizmasi va juft atomlarning hissalari (%), umumiy sirt yuzasi xamda ularning hajmi keltirildi.

Siprofloksatsin strukturasining to‘liq Xirshfeld sirt tahlilining umumiy maydoniga kuchsiz H H bog‘lari 36,9 (A) va 38,3% (B) to‘g‘ri keladi, O H/O H o‘zaro ta’siriga esa 30,3 (A) va 33,3(B)% to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, boshqa kuchsiz o‘zaro ta’sirlarning foiz ulushi quyidagicha: C H/ H C 16,7 (A) va 17,7% (B), boshqa o‘zaro ta’sirlar uchun bog‘lanish ulushlari deyarli bir-biriga yaqin: ya’ni H…F/F…H (8.4%), C…C (3.7 %), H…N/N…H (2.4%), C…N/N…C (0.9%), C…O/O…C (0.3%), S= 334.60 Å², V=355.90 Å³ (2-rasm).




2-rasm. Siprofloksatsinning molekulalararo o‘zaro ta’sirlashuvlarda ishtirok etuvchi atomlar ulushlari.

Kristall strukturasining Xirshfeld to‘liq sirt maydoni tahlili, kuchsiz H···H bog‘lanishlar 40,5%, O···H/O···H bog‘lanish esa, umumiy ichki molekulyar ta’sirlarga 34,7% hissa qo‘shishi aniqlangan. Bundan tashqari, boshqa kuchsiz ta’sirlashuvlarning foiz ulushi quyidagicha: C···C/C···C 6,9 %, H···F/F···H 6,4 %, H···C/C·· ·H 5,4%, C···O/O···C 3,4%, N···C/C···N 1,2%, O···F/F···O 0,7%. 2-rasmda


ISSN 3030-3907

tasvirlanganidek, bog‘lanishsiz o‘ziga xos o‘zaro ta’sirlar umumiy parametrga katta hissa qo‘shishi ko‘rsatilgan va u $(HL)^+$-kationlar supramolekulyar birliklar bilan turli xil yo‘llar orqali bog‘lanish mumkinligini ko‘rsatgan (3-rasm).



3-rasm. $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2\cdot 6H_2O$ kompleks uchun Xirshfeld to‘liq sirt yuzasi.

$[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2\cdot 6H_2O$ kompleks tuzilishining Xirshfeld sirt yuzasi tahlilida har qanday $(HL)^+$ kabi kationli moda uchun mavjud qisqa bog‘lanishni tasavvur qilish uchun aniqlanayotgan birikmaning kristalidagi Xirshfeld sirtlari o‘rganidi. Bunga ko‘ra, yuzadagi qizil dog‘lar N3A-H3AA Cl4, N3A-H3AB Cl3 va N3B-H3BA Cl1 vodorod bog‘lariga to‘g‘ri keladigan asosiy o‘zaro ta’sirni ko‘rsatgan, ko‘k maydon orqali ese, butunlay erkin va yaqin bog‘lanishlar tasvirlangan. d_{norm} ning sirt usulida birikmaning gidratlangan shaklining barqarorligini ko‘rsatuvchi suv molekulasi bilan vodorod bog‘lanishi ko‘rsatilgan (4-rasm).



4-rasm. $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2\cdot 6H_2O$ kompleksidagi $(HL)^{+}$-kation uchun Xirshfeld sirt yuzasi tahlili

(Bu yerdagi shtrix chiziqlar vodorod bog‘larni va bog‘lanmagan zaif ichki molekulyar ta’sirlarni ko‘rsatadi).

ISSN 3030-3907

4-rasmda bog‘lanmagan o‘ziga xos o‘zaro ta’sirlar umumiy sirt tahlilga katta hissa qo‘shishi va ular $(HL)^+$-kationlar retseptorlari bilan turli yo‘llar bilan bog‘lanish mumkinligini ko‘rsatgan [3].

XULOSA. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, siprofloksatsinning $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2 \cdot 6H_2O$ kompleksida molekulalararo ta’sirlashuvlar Hirshfeld (Hirshfeld) sirt tahlillariga ko‘ra asosan H···H va O···H/O···H ta’sirlar muhim hissa qo‘shishi aniqlandi. Siprofloksatsin $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2 \cdot 6H_2O$ komplekslarida molekulalararo o‘zaro ta’sirlarda asosiy ulushlar H···H (40,5%) va O···H/O···H (34,7%) atomlari orasidagi ta’sirlarga mos keladi.

Olingan ma’lumotlar siprofloksatsinning $[Co(H_2O)_6](HL)_2(SO_4)_2 \cdot 6H_2O$ kompleksida molekulalararo ta’sirlashuvlar Hirshfeld (Hirshfeld) sirt tahlillari va kompleks hosil qilish qobiliyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalari kelajakda siprofloksatsin asosidagi biologik faol kompleks birikmalar sintezi va ularning fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarini o‘rganishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Turel I., Leban I., Bukovec P. Synthesis, characterization, and crystal structure of a copper(II) complex with quinolone family member (ciprofloxacin): bis(1) – cyclopropyl – 6 – fluoro – 1,4 – dihydro – 4 – oxo – 7 – piperazin – 1 –ylquinoline – 3 – carboxylate) copper(II) chloride hexahydrate // J. Inorganic Biochemistry – 1994. – V.56. –P. 273-282.

2. Kudiyarova A.D., Ashurov J.M., Ibragimov A.B., Sabirov V.K., Khodjaniyazov K.U. Crystal structure of the ciprofloxacin ionic complex with the cobalt (II) // Узбекский химический журнал. –2021. –№2. –P.64-69 (02.00.00. №6).

3. Dong-Rong Xiao., En-Bo Wang., Hai-Yan An., Zhong-Min Su., Yang-Guang Li., Lei Gao., Chun-Yan Sun., Lin Xu. Catena-(bis(mu-2-Ciprofloxacin)-cobalt(II) hydrate) // Chem. -Eur.J. –2005. –V.11. –P.6673.

4. Temirov A. H., To‘raqulova M. Q. & Izzatov D. H. (2024). ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ИНГИБИТОРА КОРРОЗИИ, ПОЛУЧЕННОГО НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ. Development Of Science, 4(1), pp. 19-24.

5. Alisher hoshim o‘g‘li, T., & Husan o‘g‘li, S. D. (2024). Dizel Yoqilg ‘Isi Tarkibidan Parafinni Adsorbsion Usulda Ajratib Olish Texnologik Tizimi Tahlili. Miasto Przyszłości, 46, 271-275.

ISSN 3030-3907

6-NITROXINAZOLIN-4-ONNING ANALITIK TAHLIL USLUBINI ISHLAB CHIQISH

Xaitova Shaxnoza Karimjonovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti magistranti
E-mail: haitovasahnoza0@gmail.com
Toshboltayev Arabboy Sirojiddin o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti magistranti
E-mail: arabboytoshboltayev@gmail.com
Ziyadullayev Mirjalol Egamberdi o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori
E-mail: ziyadullayev.91@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida xinazolin-4-onni sulfat va nitrat kislota ishtirokida nitrolash reaksiyasida hosil bo‘ladigan 6-nitroxinazolin-4-onning dastlabki, oraliq va yakuniy mahsulotlarini Yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX) tahlil yordamida analitik nazorat qilish usullari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: 6-nitroxinazolin-4-on, xromatografiya, gradient, erituvchi, metanol, atsetonitril, sistema.

Аннотация: В данной исследовательской работе разработаны методы аналитического контроля с помощью высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) для исходного, промежуточного и конечного продуктов 6-нитрохиназолин-4-она, образующегося в реакции нитрования хиназолин-4-она в присутствии серной и азотной кислот.

Ключевые слова: 6-нитрохиназолин-4-он, хроматография, градиент, растворитель, метанол, ацетонитрил, система.

Abstract: In this research work, analytical control methods were developed using high-performance liquid chromatography (HPLC) for the initial, intermediate, and final products of 6-nitroquinazolin-4-one, which is formed in the nitration reaction of quinazolin-4-one in the presence of sulfuric and nitric acids.


Keywords: 6-nitroquinazolin-4-one, chromatography, gradient, solvent, methanol, acetonitrile, system.

Kirish


So‘ngi yillarda butun dunyo kimyogarlari tomonidan tarkibida N, S, O, saqlagan biologik faol geteroxalqali birikmalarni sintez qilish maqsadida xinazolin-4-on alkaloidi va uning hosilalarini sintez qilish, ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va qo‘llanilish sohalarini kengaytirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijasida xinazolin-4-on birikmasi va uning hosilalari asosida turli xil

ISSN 3030-3907


biologik faol preparatlar sintez qilingan, ularni ishlab chiqarish texnologiyalari ishlab chiqilgan va ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgan. Tarkibida bir qator faol reaksion markazlar saqlagan va yuqori biologic faollikga ega bo‘lgan birikmalar qatoriga nafaqat tabiiy hom ashyolar tarkibidan ajratib olish mumkin bo‘lgan, balki turli xil organik birikmalar, katalizator va erituvchilardan foydalangan holatda bisiklik 3(H)-xinazolin-4-on va uning asosida sintez qilingan geteroxalqali birikmalarni kiritishimiz mumkin. Bunga yaqqol misol sifatida inson hayotiga havf solayotgan o‘g‘ir turdagi oq qon, jigar saratoni, orqa miya hujayralarining zararlanishi natijasida hosil bo‘ladigan onkologik kasalliklar, yurak-qon tomir kasalliklari va infeksion yuqumli kasalliklarni oldini olish va ularni davolashda tibbiyot amaliyotida doimiy ravishda almashtirib bo‘lmaydigan dori va preparativ vositalari sifatida qo‘llanilayotganligini kuzatishimiz mumkin [1-3]




Sediranib
(Jigar saratoniga qarshi vosita)




Balaglitazon
(Qandli diabetga qarshi vosita)




Barasertib
(O'tkir miyeloid leykomiya)



CAL 101
(Antigematologik saraton)




Letermovir
(Sitomegalavirus SMV kasalligi)




Sotrastaurin
Psoriaz kasalligiga qarshi vosita


ISSN 3030-3907




Elinogrel
(Antitromboz vosita sifatida)



Nolatrexed
O'simtalarga qarshi



Alfuzocin
(rak kasalliklariga qarshi vosita)



6-brom-3-((4-bromfenil)amino)-
2-fenil-3(H)-xinazolin-4-on
(antibacterial vosita sifatida)

1-rasm. Xinazolin-4-on asosida sintez qilingan biologik faol birikmalar

ADABIYOTLAR TAHLILI

Farmatsevtik moddalarga qo‘yiladigan eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu uning tozaligidir. 6-Nitroxinazolin-4-onning tozaligi yupqa qavatli xromatografiya usulida aniqlangan, lekin bu usul yarim miqdoriy sinov bo‘lgani uchun, YuSSX usulida ham moddaning tozaligi aniqlandi.

Ma’lumki, YuSSX bu – tadqiqotchilar uchun eng informatsion, ya’ni ilmiy axborotlarga boy tahlil usullaridan biri bo‘lib, ilmiy va ishlab chiqarish muhitidagi birikmalarni ajratish, aniqlash, miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilish, shuningdek moddalarning turli sinflari xususiyatlarini fizik-kimyoviy tadqiq qilish uchun keng qo‘llanilishi sababli bu usulni hozirgi kunda farmatsevtika, kimyo va biologiya fanlarining turli sohalarida eng istiqbolli usullardan biri hisoblanadi [4-6]. Tadqiqotlarimiz davomida 6-nitroxinazolin-4-on sintezining dastlabki, oraliq va yakuniy mahsulotlarini analitik nazorat qilish uchun YuSSX tahlil usulidan foydalandik. Ushbu birikmani sintez qilish usuli, reaksiya jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar, mahsulot unumi, fizik kimyoviy xossalari, biologik faolligi, reaksiya mexanizmlari, IQ, YaMR spektroskopiya usullari yordamida olingan natijalari oldingi tadqiqot ishlarimizda batafsil yoritilgan [7-9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar “Shimadzu LC 20” (Yaponiya) yuqori samarali suyuqlik xromatogrifida o‘tkazildi. Uskuna yuqori bosimda ishlashga mo‘ljallangan izokratik nasos, 190-600 nm to‘lqin uzunliklarida tahlil o‘tkazuvchi spektrofotometrik detektor, qo‘zg‘aluvchi faza tarkibidagi gazlarni yo‘qotuvchi qurilma, 20 mkl xajmli injektor va xromatografik kolonkasidan tashkil topgan.

ISSN 3030-3907

Tadqiqotlarda substansiyaning beshta seriyasidan foydalanildi. 6-Nitroxinazolin-4-onni miqdoriy aniqlash YuSSX usulida tashqi standart yordamida amalga oshirildi. Buning uchun yetarlicha tozalik darajasiga ega bo‘lgan etalon na’munadan foydalanildi va uskunani kalibrlash, ya’ni mazkur tajriba uchun uskunani sozlash standart na’muna bo‘yicha amalga oshirildi (shu turdagi boshqa xromatografda ham amalga oshirish mumkin).

-Eksperimental ish jarayonida YuSSX tomonidan tekshirilayotgan 6-nitroxinazolin-4-onni aniqlashning bosqichma-bosqich sxemasi ishlab chiqildi.

- Izlanishlar quyidagi sharoitlarda olib borildi:
- na’munalar erituvchisi – metanol va dimetilformamid erituvchilari aralashmasi (50:50);
- qo‘zg‘aluvchan faza: atsetonitril-metanol;
- kolonka xarorati − 35±2 ºC;
- qo‘zg‘aluvchan faza oqimining tezligi – 0,5 ml/daq;
- uskunaga kiritiluvchi na’muna miqdori – 20 mkl;
- detektorlashning to‘lqin uzunligi – 296 nm;
- taxlil davomiyligi – 15±1 daqiqa.

Na’munalar erituvchisi sifatida metanol va dimetilformamid erituvchilarining 1:1 nisbatdagi aralashmasidan foydalanildi.

Tekshiriluvchi na’munani tayyorlash uchun 0,01 g aniq miqdordagi 6-nitroxinazolin-4-onni sig‘imi 100 ml bo‘lgan o‘lchov kolbasiga joylanadi, 1:1 nisbatdagi metanol va dimetilformamiddan iborat bo‘lgan erituvchilar aralashmasidan 80 ml olinib kolbaga quyiladi, modda to‘liq erib ketguncha aralashtiriladi, so‘ngra kolbaning o‘lchov chizig‘iga yetguncha erituvchilar aralashmasi quyilib, yaxshilab aralashtiriladi. Konsentratsiyasi 0,1 mg/ml bo‘lgan eritma hosil bo‘ladi. 6-nitroxinazolin-4-onning miqdoriy ulushi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S=\frac{S_1 * a_0 * P * 100}{S_0 * a_1 * (100 - W)}$$

bu yerda:

S_1 – tekshirilayotgan eritmadagi xinazolin-4-onga tegishli cho‘qqining maydoni;

S_0 – standart eritmadagi 6-nitoxinazolin-4-onga tegishli cho‘qqining maydoni;

a_1 – substansiyaning tortimi, grammlarda;

a_0 – standart na’munaning tortimi, grammlarda;

W – suvning yig‘indisi miqdori;

P – 6-nitroxinazolin-4-on standart na’munasidagi asosiy modda miqdori.

6-Nitroxinazolin-4-onning miqdori quruq moddaga nisbatan hisoblaganda 98,0% dan kam emas va 100 % dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Xromatogrammada miqdori 2,0% dan ko‘p bo‘lmagan alohida minor cho‘qqilarning mavjud bo‘lishiga

ISSN 3030-3907

ruxsat etiladi. 6-Nitroxinazolin-4-onning YuSSX da olingan xromatogrammasi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Xromatogrammadan ko‘rinadiki, aniqlanayotgan moddaning tozalik darajasi yuqori bo‘lib, bu esa o‘z navbatida 6-nitroxinazolin-4-onning sintezi to‘g‘ri amalga oshirilganligi hamda uni YuSSX usulida analiz qilish sharoitlari to‘g‘ri tanlanganligidan dalolat beradi. Xromatografik sistemaning maqbulligi tekshirish uchun xinazolin-4-onning standart namunasi eritmasini kamida 5 marta xromatografiya qilinadi.

Xromatografik sistema quyidagi shartlar bajarilgandagina yaroqli hisoblanadi:

6-Nitroxinazolin-4-on standart na’munalaridagi cho‘qqilar bo‘yicha hisoblangan xromatografik kolonkaning samaradorligi 2000 ta nazariy tarelkalardan kam bo‘lmasligi kerak;

6-nitroxinazolin-4-on standart na’munalaridagi cho‘qqilar bo‘yicha hisoblangan cho‘qqilarning ajralish darajasi 1,5 dan kam bo‘lmasligi lozim;

eritmadagi 6-nitroxinazolin-4-onning cho‘qqilari yuzalari uchun hisoblangan nisbiy standart og‘ish darajasi 2,0 % dan oshmasligi talab etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

6-Nitroxinazolin-4-onning massa ulushini o‘lchash natijalaridagi xatoliklar, R-0,95 ishonch ehtimolligi bo‘yicha hisoblanganda, ±2% dan oshmasligi lozim (1-jadval).

1-jadval

6-Nitroxinazolin-4-onni miqdoriy jihatdan aniqlash natijalari

a_1	a_0	S	S_0	X_i
0,0097	0,0100	4603	4655	101,11
0,0096	0,0100	4556	4655	100,32
0,0098	0,0100	4627	4655	101,00
0,0102	0,0100	4711	4655	100,10
0,0105	0,0100	4798	4655	100,40

Uslubning validatsiyasi chiziqlilik, o‘ziga xoslik, takrorlanuvchanlik, samaradorlik va to‘g‘rilik kabi omillar bo‘yicha amalga oshirildi.

Uslubning chiziqliligi 6-nitroxinazolin-4-on miqdorining 4 ta xar hil konsentratsiyadagi na’munalarini analiz qilish orqali aniqlandi. Xromatografiyani amalga oshirish uchun eritmalar 5,0 10,0 15,0 va 20 % li konsentratsiyalarda tayyorlab olindi. 6-Nitroxinazolin-4-onni xromatografiya qilish natijasida tuzilgan chiziqlilik grafigida deyarli barcha tajriba nuqtalari trend chizig‘ida joylashganligi kuzatish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, chiziqli bog‘liqlik sohasi 6-Nitroxinazolin-4-onning 5,0; 10,0; 15,0; 20,0 % konsentratsiyalarida kuzatilib, 8,02 dan 10,98 mkg/ml gacha bo‘lgan miqdorlarga to‘g‘ri keladi. Tajriba uchun olingan modda miqdorlari va ularga mos keluvchi cho‘qqi maydon yuzalarini

ISSN 3030-3907

bog‘liqlik kalibrlash chizmasi asbob boshqaruv orqali tuzildi. (R_2=0,9993953; R=0,9987911) Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

6-Nitroxinazolin-4-onni YuSSX qilish usulining chiziqliligini aniqlash

Tortim, %	Tortim, mg	Cho‘qqi yuzasi	Modda miqdori, mg	Aniqlangan 6-nitroxinazolin-4-on miqdori, %
80	8,020	3768	8,020	100,0080
90	8,980	4239	8,951	99,6889
100	10,10	4711	10,06	99,601
110	10,98	5182	10,93	99,541

Keltirilgan 1-jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, uslubning takrorlanuvchanligi substansiyaning bitta na’munasini 6 marta takroriy tekshirish orqali aniqlandi. Muvofiqlik ko‘rsatkichi standart og‘ish kattaligi bo‘yicha ifodalanib, u kattalik 0,1 dan oshmaganligi kuzatildi. Bu esa o‘z navbatida takrorlanish sharoitida ham uslubning aniqliligi va qaytaruvchanligi to‘g‘risida dalil bo‘la oladi. Natijalar 3-jadvalda ko‘rsatilgan.

3-jadval

Uslubning takrorlanuvchanligi

Analiz natijalari, %	$D_i(x_i\text{-}\bar{x})$	d_i^2	Metrologik parametrlar
99,8410	0,119	0,0141	$\bar{x}$= 99,96
99.9170	0,043	0,0018	S^2 = 0,0096
99,9470	0,013	0,0001	S = 0,0980
100,0014	0,041	0,0016	t(95%,5)=2,57
100,0100	0,050	0,0025	ΔX=0,25
100,1010	0,141	0,0198	ε=0,0025
			ὲ=0,001

Uslubning aniqliligi va takrorlanuvchanligini aniqlash uchta turli na’munalarni olti martadan takroriy tekshirish orqali amalga oshirildi. Tekshirilgan na’munalardagi nisbiy standart og‘ish ko‘rsatkichlar xromatografik analiz usullari uchun mo‘ljallangan BSD kattaligidan (BSD≤2%) oshmasligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Uslubning natijadorligi

Takrorlanishlar	Na’munalardagi substansiyalar miqdori		
	1-na’muna, %	2-na’muna, %	3-na’muna, %

ISSN 3030-3907

1	99,8410	99,8540	99,5710
2	99,9170	99,9101	99,6010
3	99,9470	99,9232	99,6889
4	100,0014	99.9441	100,0204
5	100,0100	100,124	100,0802
6	100,1010	100,201	100,1014
O‘rtacha qiymat	99,96	99,99	99,84

Uslubning to‘g‘riligi substansiyaning miqdoriy ulushini o‘lchash orqali, aniq miqdordagi 6-nitroxinazolin-4-on standart namunasini qo‘shish yo‘li bilan aniqlandi. Har bir na’muna ustida uch martadan o‘lchashlar amalga oshirildi. Natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Uslubning to‘g‘riligi

6-nitroxinazolin-4-on substansiyasi miqdori	Qo‘shilgan 6-nitroxinazolin-4-on SIE	Hisoblangan miqdor, mkg/ml	Topilgan miqdor, mkg/ml	Miqdor, %
100,06	15,20	115,26	114,46	99,31
100,18	15,30	115,48	115,87	100,34
100,25	15,50	115,75	115,46	99,75

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, sistematik hatolik 0,25-0,69% chegaralarida bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar tanlangan uslubning to‘g‘ri ekanligidan dalolat beradi. Uslubning hatoligi oltita tanlangan namunalardagi cho‘qqilar yuzalarini o‘lchash, hamda olingan natijalarni tegishlicha statik qayta ishlash orqali aniqlandi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 6-nitroxinazolin-4-onni YuSSX usuli yordamida aniqlash uslubi ishlab chiqilib, uslubning chiziqliligi, to‘g‘riligi, takrorlanuvchanligi, selektivligi bilan ajralib turadi hamda ushbu uslubdan fungitsidlarga qarshi 6-nitroxinazolin-4-on asosida olinadigan dori vositalarini analitik nazorat qilishda to‘laqonli qo‘llash mumkin. Substansiya va tabletka tarkibidagi 6-nitroxinazolin-4-onni miqdoriy jihatdan aniqlash uchun ishlab chiqilgan YuSSX uslubidan aynan bir turdagi dastlabki va yakuniy mahsulotlarni bir xil sharoitlarda analiz qilish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan uslubni qo‘llash ish hajmi va xatoliklar kamayishiga hamda natijadorlikni oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toosi, M.R., Pordel, M. & Bozorgmehr, M.R. Synthesis of Heterocyclic Systems 3*H*-furo[2,3-*b*]imidazo[4,5-*f*]quinolines and 3*H*-furo[2,3-*b*]pyrazolo[4,3-*f*]quinolines as New Antibacterial Agents. *Pharm. Chem. J.* 56, 206-214 (2022). 206-214 pp.

ISSN 3030-3907

2. Yaser A. El-Badry, Mahr A. El-Hashash, Khalil Al-Ali. Synthesis of bioactive quinazolin-4(3H)-one derivatives via microwave activation tailored by phase-transfer catalysis. Acta Pharm. 70 (2020) 161-178 pp.
3. Feyzi Sinan Tokali. Synthesis and Structural Characterization of Novel 2-Aminomethyl Quinazolin-4(3H)-ones as Organic Building Blocks. Research Articles. Vol. 26 Issue: 6, 1117-1130 pp. 31.12.2022.
5. David S.A. Haneen, Rasha S. Gouhar, Heba E. Hashem, Ahmed S. A. Youssef (2019). Synthesis and reactions of 4H-3,1-benzoxazin-4-one derivative bearing pyrazolyl moiety as antimicrobial and antioxidant agents. Synthetic Communications. 2019, Vol. 49, No. 21, 2840-2855 pp.
6. Samir Y. Abbas. Book. 3(H)-Quinazolinone Derivatives: Syntheses, Physical Properties, Chemical Reaction, and Biological Properties. Sana'a University, Yemen. 06.06.2020. 1-126 pp.
7. Vasily N. Osipov, Derenik S. Khachatryan, Alexandr N. Balaev. Biologically active quinazoline-based hydroxamic acids. Medicinal Chemistry Research 2020. Vol. 29, No.5. -pp. 831-845.
8. Балтабаева М.Ж., Таджибаева М.Р., Каримов Р.К., Рахматов Э.О., Зиядуллаев М.Э. Изучение процесса нитрование 2-метоксикарбониламинохиназалин-4-он // Universum: Технические науки, 2020, 10(79). -С. 45-51.
9. М.Э.Зиядуллаев., Р.К.Каримов., С.С.Саидов., Г.В.Зухурова., А.Ш. Абдуразаков. Оптимизация процесса получения субстанции 3,4-дигидрохиназолин-4-она // Фармацевтический журнал, 2018. №4. -С. 64-67.
10. М.Э.Зиядуллаев., Р.К.Каримов., С.С.Саидов., Г.В.Зухурова., А.Ш. Абдуразаков. Ш.Ш.Сагдуллаев. Оптимизация процесса синтеза 6-нитро-3, 4-дигидрохиназолин-4-она. Известия высших учебных заведений. Химия и химическая технология. Том 63. №7. -С. 48-53.

ISSN 3030-3907

ИНСОН МАЪНАВИЯТИ ВА ЭКОЛОГИЯ

Халимбетов Ю.М.
Самарқанд давлат тиббиёт университети Самарқанд шаҳри, Ўзбекистон
Коржавов Ш.О.
Самарқанд давлат тиббиёт университети Самарқанд шаҳри, Ўзбекистон
Юлдашев С.Ж.
Самарқанд давлат тиббиёт университети Самарқанд шаҳри, Ўзбекистон
Жиянбойев Азизбек Соатбойевич
Самарқанд давлат тиббиёт университети Қўшма таълим факултети талабаси

Аннотация. Шеърият мулкининг султони Алишер Навои инсон камолотининг ҳаётбахш намуналарини Фарҳод ва Мажнун каби ўлмас образлар орқали тараннум этар экан, ушбу тушунчаларни ақл-заковат, етук билимлилик, моддий ҳаёт ва табиат ўртасидаги етук муштаракликни ҳозирги талқин билан эътибор этадиган бўлсак экология деб изоҳлаганлар.

Калит сўзлар. Маънавият, инсон, шеърият, уламолар, табиий офатлар, экология.

Аннотация. Султан поэзии и литературы Алишер Навои, воспевая жизненно важные примеры человеческого развития через бесчисленные образы, такие как Фарход и Меджнун, воспевает эти понятия с нынешней интерпретацией общности между разумом, зрелостью, материальной жизнью и природой экологию.

Ключевые слова. Духовность, человек, поэзия, ученые, стихийные бедствия, экология

Abstract. Sultan of Sharia property Alisher Navoi, singing vital examples of human development through countless images such as Farhod and Majnun, celebrates these concepts with the current interpretation of the commonality between reason, maturity, material life and nature ecology.

Keywords. Spirituality, man, poetry, scientists, natural disasters, ecology

Кириш.

Албатта, комиллик ва камолотли бўлиши нафақат билим ёки савия, энг аввало атроф-муҳитга бўлган муносабати уни мароқ этиши табиат қонун-қоидаларини ўз ички ечинмаларидек қабул қилиши, яъни бир сўз билан айтганда инсон табиат билан худди эгизакдек уйғунлашиб кетсагина у том маънода маданиятга, соғлом ҳаётга ва маърифатга эриша олади[4].

ISSN 3030-3907

Афсуски, баъзан маданият, маърифат, комил инсонлик тушунчаларини бир томонлама, яъни атроф-муҳитсиз ёки ижтимоий ҳодисаларнинг у ёки бу даражадаги таъсирисиз идрок этишга интиламиз. Вахоланки, улар ўзаро чамбарчас боғлиқдир[2,6,9].

Дунёда иқлим ўзгаришлари, сув тошқинлари, ўрмон ёнғинлари, об-ҳаво ифлосланиши кучайиб, табиатга мислсиз зиён-захмат етказилаётган бир пайтда одамларнинг юксак экологик мадантяти нажот манбаи ўлароқ, инсоннинг ҳаёти, саломатлиги келажак авлодни асраб қолишга ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда[5].

Янги Ўзбекистоннинг стратегик мақсади экологик барқарорликни таъминлаш иқтисодий ўсишнинг ресурслар тежамкорлигига асосланган “Яшил ривожланиш” моделига ўтишдир. Шу маънода, 2025-йилнинг Ўзбекистонда “Атроф-муҳитни асраш ва “яшил иқтисодиёт йили” эълон қилиниши бежиз эмас.

Энг асосий масала Ўзбекистон нафақат Марказий Осиё, балки МДҲ мамлакатлари орасида аҳолиси тез кўпайиб бораётган давлатлардан бири саналади. Бу эса ўз навбатида шаҳар аҳолисининг уй-жойга бўлган талабини қондириш баробарида, кўп қаватли турар жойлайлар ва ер ости ва ер усти автомобил тураргоҳлари назарда тутилиши ҳамда ёмғир ва техник сувлардан суғоришда фойдаланиш тузилмаларини ташкил этишни тақозо қилади. Айниқса, Ўзбекистон 2030 стратегиясини “Атроф муҳитни асраш ва “Яшил иқтисодиёт” йилида амалга ошириш бўйича давлат дастури ва уни тасдиқлаш тўғрисидаги” Президент фармони лойиҳасидаги устувор вазифалар, йўналишлар амалга оширилаётган ишлар бизни қувонтиради. Унда атроф-муҳитни асраш, “яшил” энергияни ривожлантириш масалаларига кенг ўрин берилган. Бу орқали Ўзбекистон Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 2030-йилгача глобал кун тартибирга киритилган муҳим масалалар, яъни бугун инсоният ҳаёти ва фаровонлик даражасини кўратиш, дунёда иқтисодий, ижтимоий ва экодогик вазиятни ҳар томонлама яхшилаш орқали адолатли ва барқарор жамият қуриш бўйича кенг кўламли иқтисодиётларни амалга ошириб сезиларли натижаларга эришилмоқда.

Мақсад. Жаддалик билан ривожланиб бораётган Ўзбекистон Республикасида инсон маънавияти – маърифатининг такомиллашувини ҳамда экологик ва атроф – муҳит хар ҳил сабаларини ўрганиб чиқиш.

Материал ва услублар. Экологик маданият ёшларда болаликдан шакллантирилиши зарур. Ёшларни тартибга меҳр-муҳаббат билан ёндашишга, атроф-муҳитни озода сақлашга, саранжом-саришталикка ўргатиш оиладан, маҳалладан, боғчадан, мактабдан бошланиши керак. Барча мактабда ўқиётган ёшларни экологияни моҳиятини чуқурроқ англаш уларга

ISSN 3030-3907

экологиядан назарий ва амалий дарс ўтиш лозим. Бундан ташқари ҳар йили ўтказиладиган энг намунали маҳалла кўрик-танловига маҳаллада атроф-муҳитни соғломлаштириш борасида олиб борган ишлари тўғрисида саволларни ҳам қўшиш яхши самара беради деб ўйлаймиз.

Собиқ Совет тузуми шароитида Ўзбекистонда ер ва сув заҳираларидан фойдаланишга қаратилган нотўғри сиёсат Орол ва сув сатҳининг кескин камайиб кетишига олиб келди. Орол сувининг қуриши, унинг очилиб қолган тагидаги тузларнинг шамол ёрдамида узоқ масофаларга олиб борилган, суғориладиган ерларни туз билан қоплаган.

Республикамизда экологик вазиятнинг хавфли ҳолатга келиши навақат Орол фожиаси билан боғлиқ бўлибгина қолмай, балки жумғуриятимизда, шу жумладан Самарқанд вилоятида жойлашган саноат корхоналарининг етарли даражада янги технологик ускуналар билан жихозланганлиги коммунал хўжалигидаги чиқараётган ифлос сувлар ҳамда траспорт воситаларидан чиқаётган тутунлар ҳам сабабчидир.

Шу билан биргаликда вилоятимизда экологик муҳитнинг ифлосланишига аҳолининг ўзи ҳам катта таъсир кўрсатсоқда. Масалан, Самарқанд шаҳри шимолий-шарқий қисмидан ўтувчи Сиёб, жанубидаги Дарғом каналларига шу канал атрофида яшовчи аҳоли ҳар ҳар ифлос сувларни ва чорва молларни чиқиндиларини каналга ташлаши ҳаммага аён. Ахир илгари сувга тупурманг харом бўлади деб кексаларимиз ёшларга ўгит берар эдиларку. Нимагадир ҳозирги кунда бундай масалаларга барчамиз бефарқ қараймиз.

Шу боис мамлакатимизда экологик муаммоларни бартараф қилиш борасидаги қатор саъий-ҳаракатлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистонда ҳам давлатимиз раҳбари ташаббуси билан экологик муаммоларнинг олдини олиш, уларнинг салбий оқибатларини юмшатишга қаратилган амалий жора-тадбирлар ҳаётга татбиқ этиляпти.

Хусусан, Президентимиз ташаббуси билан ҳаётга кўчган “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси ушбу эзгу ташаббусларнинг дебочаси бўлди. Лойиҳа доирасидан юртимизнинг барча ҳудудларда кўчатлар экилиб, боғлар, хиёбонлар барпо қилиняпти. Бу эзгу йилларда ҳамма бирдам бўлиб фаолият кўрсатаётгани кўнгилни хушнуд қилади

Шу йил 14-январь Президент Шавкат Мирзиёев Бирлашган Араб Амирликларига ўтказилган. “Абу-Даби барқарор ривожланиш ҳафталиги” саммитида сўзлаган нутқида бу ҳақда шундай деди:

“Янги Ўзбекистоннинг стратегик мақсади экологик барқарорлигини таъминлаш, иқтисодий ўсишнинг ресурслари тежамкорлигига асосланган “Яшил” ривожланиш моделига ўтишдир.

ISSN 3030-3907

Бинобарин, Ўзбекистон-2030 стратегиясини “Атроф-муҳитни асраш ва “Яшил” иқтисодиёт йилида амалга ошириш бўйича давлат дастури ва уни тасвирлаш тўғричида”ги Президент фармони лойиҳасида ҳар бир соҳа ходими фаол иштирок этиши белгиланган.

Хусусан 2025-йил 1-сентябрдан бошлаб тадбиркорлик субъектларига “яшил тадбиркор” мақомини берилишини назарда тутувчи платформани ишга тушуриш ҳам таклиф қилинмоқда.

Лойиҳага кўра кўкламзорлаштиришга хисса қўшган, жумладан корхонани “яшил белбоғ” билан ўраган, томчилатиш, ёмғирлатиш ва контейнерли суғориш тизимини жорий қилган, энергия тежовчи ускуналар ва технологияларни амалда қўллаган тадбиркорларга “яшил тадбиркор” мақоми берилиши белгиланган.

Натижалар ва таҳлил. Зотан, экологияга нисбатан бешафқат муносабат қилинмоқда. Катта муаммоларга олиб келиши мумкин. Шу маънода, юртдошларимизнинг чиқиндига муносабатини ўзгармаса, яқин йилларда шаҳару-қишлоқларимизда тозалик, пировардига инсонлар саломатлиги билан боғлиқ жиддий масалалар пайдо бўлиши мумкин.

Дастур лойиҳасида 2025-йилда аҳоли саломатлигини яхшилаш, экологик бурилиш тартибини шакллантириш ва инсон салоҳиятини рўёбга чиқариш учун шарт-шароитларни яратиш борасида аҳолининг кундалик ҳаётига экологик тамойилларни сингдириш орқали юртимизда «Экофаол фуқаро» ҳаёт тарзини кенг тарғиб қилишга қаратилган «Бир миллат – яшил оила» умуммиллий ҳаракатини йўлга қўйиш қайд қилинган.

Университетимизда биология, экология, жисмоний маданият, касб-ҳунар таълими каби ихтисосликлари бўйича таълим олувчи бўлажак шифокорлар одам физиологияси ва биокимё асосларидан сабоқ олиб, ўсиш, ривожланиш, жисмоний чиниқиш ҳамда соғлом турмуш тарзини биологик моҳиятини ўрганиш билан баракали умр кўришга оид миллий қадриятлардан ўринли фойдаланиш сирларини ҳам ўрганадилар. Бунда Ибн Синонинг мероси муҳимдир. Улуғ аллома одам гавдасининг аҳволини ўрганиб, ундаги мавжуд соғлиқни сақлаш, йўқолганини қайтариш тиб илмининг мазмуни ва вазифаларини ташкил этади деб аниқ кўрсатилган. Соғлиқ ва касаллик тўрт хил асосга эга: моддий, фаол ёки таъсир қилувчи, шаклий ва тугалловчи, улар одам гавдасининг ҳолатларини ўзгартира оладиган сабаблардир. Булар ҳаволар ва уларга асосланган нарсалар, овқатлар, сувлар, ичимликлар ҳамда уларга алоқадор нарсалар бўлиши, жисмий, нафсоний ҳаракатлар ва озодаликдир.

Ибн Сино атмосфера ҳавоси билан йил фаслларининг гавдага таъсир этиши ҳамда муҳим физиологик-биокимёвий асосларни кўрсата олган.

ISSN 3030-3907

Жумладан, ҳаво ўпка орқали артерияларга туташ тешиклар орқали рухга тортилади, ўзи билан бирга тумансимон буғни олиб чиқади. Ҳаво тоза бўлса, у соғломлик учун ишловчи, ҳаво ўзгарган бўлса, бу ишнинг тескариси деб тушунтирилган.

Хулоса. Худди шундай, иссиқ-совуқ, намлик, қуруқлик каби омилларнинг тани жонга таъсири илмий асосланган. Турар жой, ейиладиган, ичиладиган нарсалар келтирилиб чиқарадиган ҳодисалар ҳақида ҳам муҳим қадриятларни бизга мерос қолдирган. Улардан модда ва биоқувват алмашигувчи жараёнларнинг моҳиятини очиб беришда ўринли фойдаланиш зарур. Бунда аҳоли орасида кунлик юриш ва югуриш тарғиб қилинади “яшил” транспортда, жумладан, велосипедда ҳаракатланиш рағбатлантирилади, пластик маҳсулотлардан фойдаланиш камайтирилади, озиқ-овқат исрофгарчилини олди одинади, сув ва газ, электр энергияси оқилона ишлатилади.

Ўзбекистоннинг ҳар бир фуқароси, асосан ёш авлод вакиллари экология ҳаёт-мамот масаласи эканлигини теран англаб, бошқаларни ҳам шунга даъват этсаккина бу борада ўзгаришлар бўлади. Ёш авлодларга кўркам табиатни, сўлим боғларни, ҳиёбонларни тоза-озода, маҳалла кўчаларини, қисқа қилиб обод Ватанни мерос қолдирамиз.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдуазимова З.А. Шахс-эстетик дидини шакллантиришда эко-эстетик маданият //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 110-114.
2. Абдуллаева Д.Н. Мактаб географик таълими орқали геоэкологик маданиятни шакллантириш масалалари //Современное образование (Узбекистан). – 2022. – №. 12 (121). – С. 36-42.
3. Ахмедов А., Пулатова М. Роль надзорных институтов в рациональной организации международных экологических отношений //ББК 1 Е91. – 2018. – С. 156.
4. Бобоева М. Жамиятда экологик саводхонликни ривожланишини тарихий илдизлари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. TSTU Conference 1. – С. 778-783.
5. Жўраева Ф.Б. Экологик муаммолар ва ёшлар маънавияти //Golden brain. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 48-52.
6. Кушбаков К.Б. Ижтимоий Экологик онг ва маданиятни соғломлаштиришнинг долзарб масалалари //Web of Scholar. – 2016. – №. 2. – С. 70-72.
7. Хайдаров З.Ё., Омиршот Т. Экологические проблемы и развития сельского хозяйства //Кишоварз. – 2013. – №. 3. – С. 5-7.

ISSN 3030-3907

8. Ходжиболаева Н. М. Ўзбек жадид мутафаккири Абдулла Авлонийнинг инсон ва табиат муносабатларига доир ижтимоий-педагогик қарашлари //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10-2. – С. 688-695.
9. Ҳусанов Э.Т. Современное образование (узбекистан) //современное образование (Узбекистан) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий". – №. 4. – С. 66-74.
10. Қораев С. Б. Экологик талим-тарбияда муоммо ва ечимлар //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 255-260.
11. Arzimatova I., Tursunov B. The Role social factors in the spiritual development personality //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 163-170.
12. Xudayqulov X., Abdurazaqov F. Ёшлар орасида нутқ маданияти ривожлантириш технологиялари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 815-821.
13. Yuldashev S. et al. National Processes In Uzbekistan And The Formation Of The Internationalist Maturity Of The Younger Generation //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 167-175.
14. Зиядуллаев Ш. Х. и др. Роль некоторых регуляторных цитокинов в иммунопатогенезе экзогенных аллергических альвеолитов //Здобутки клінічної і експериментальної медицини. – 2017. – №. 1. – С. 38-41.
15. Юлдашев С. Ж. и др. Взаимосвязь между показателями системы ММП/ТИМП и функциональными параметрами сердечно-сосудистой системы при хронической сердечной недостаточности //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 27 (76). – С. 66-75.

ISSN 3030-3907

ЎРТА АСР ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ

Амонова Ҳикоят Иноятовна

Бухоро давлат тиббиёт институти "Тиббий ва биологик кимё" кафедраси доценти, техника фанлари номзоди

Аннотация Мақолада маънавий тарбиянинг долзарблиги таҳлил қилинган. Ўрта аср Шарқ мутафаккирлари Беруний ва Ибн Сино қарашларининг ёшлар тарбиясидаги ўрни очиб берилган. Мутафаккирлар асарларидаги комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий талқинига алоҳида эътибор қаратилган. Мутафаккирлар ижодий меросидаги комил инсон ғоясининг баркамол авлодни тарбиялашдаги аҳамияти кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Ренессанс, Янги Ўзбекистон, ўрта аср Шарқ мутафаккирлари, маънавият, тиббиёт.

Аннотация. В статье анализируется актуальность духовного воспитания. Раскрывается роль средневековых восточных мыслителей Беруни и Ибн Сины в воспитании молодёжи. Особое внимание уделяется историко-философскому осмыслению идеи совершенного человека в трудах мыслителей. Показано значение идеи совершенного человека в творческом наследии мыслителей в воспитании совершенного поколения.

Ключевые слова: Возрождение, Новый Узбекистан, средневековые мыслители Востока, духовность, медицина.

Abstract: This article analyzes the relevance of spiritual education. The role of the medieval Eastern thinkers Beruni and Ibn Sina in the education of youth is explored. Particular attention is given to the historical and philosophical understanding of the idea of the perfect man in the works of these thinkers. The significance of the idea of the perfect man in the creative legacy of these thinkers in educating the next generation is demonstrated.

Keywords: Renaissance, New Uzbekistan, medieval Eastern thinkers, spirituality, medicine.

Кириш

МаълумкиЎзбекистонРеспубликасиМустақиллигининг29йилликтанта на-ларида Ўзбекистон Республикаси Президентининг: "Халқимизнинг улуғвор қудрати жўш урган ҳозирги замонда Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда"[1], –деган сўзи янгради. Таъкидлаш жоизки,

Ҳозирги кунда ҳаётимизнинг барча соҳаларида рўй бераётган юксалиш жараёнлари ўзини нечоғлик аҳамиятли эканлигини намоён этмоқда. Бинобарин, мустақиллигимизнинг дастлабки даврларида биз миллий ўзликни англаш, бой тарихий маънавий ҳамда илмий меросимизнинг асл мазмун-

ISSN 3030-3907

моҳиятини тушуниш ва уни рўёбга чиқаришга интилган бўлсак, эндиликда халқимиз жипслашиб “миллий тикланишдан – миллий юксалиш” ғоясини собит-қадамлик билан амалга оширишга киришди. Бу даврда жамиятимизда ижтимоий тафаккурнинг юксалиш тенденцияси қарор топиб, унга хос ҳам миллий, ҳам умуминсоний қадриятлар мужассамлиги эътироф этилмоқда.

Бутун дунё ҳамжамияти эътироф этганидек, Ўзбекистон қадимдан маданият ва цивилизация барпо этувчи заминдир. Дарҳақиқат, ўрта асрларда Ўзбекистон ҳудудида вужудга келган илмий-маънавий ютуқлар Европадаги илму фанга асос бўлди. Муҳаммад ал-Хоразмий, Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Абу Наср Форобий каби улуғ мутафаккирларимизнинг беқиёс илмий-фалсафий рисолалари дунёвий билимларни ривожлантириш ва тизимлаштириш билан бир қаторда, нафақат ўз замонаси, балки кейинги юзйилликларга тегишли умумжаҳон тамаддунининг юксалишига асос солди. “Аждодларинг шуҳратига суянма, ўзингга ўзинг шуҳрат топ. Кимда ким обрўли қариндошларига нисбат бериб, уларни восита қилса ва ҳеч нарса қилмай, фақат ўлган аждодлари билан фахрланиб юрса, ўша кишининг ўзи ўлик ва аждодлари эса, тирик саналади”, деб айтган эди мутафаккир Абу Райҳон Беруний.

Таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда маънавий-маърифий ишларни тизимли ташкил этиш, бу борада амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг самарадорлигини ошириш, аҳоли, айниқса ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтириш, мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш, ватанпарварлик, халққа муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол авлодни тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Маълумки, маънавият ва тиббиёт қондош тушунчалар бўлиб, аждодларимиз даҳоси туфайли бир-бири билан уйғунлашиб кетган ажралмас бир бутунликни ташкил қилади. Маънавият-жамиятнинг, миллатнинг ички ҳаёти, руҳий кечинмалари, ақлий қобилияти, идрокини мужассамлаштирувчи тушунча. Тиббиёт эса, шундай бир илмки, у билан одам гавдасининг аҳволи соғлиқ ва касаллик жиҳатидан ўрганилиб, унинг мавжуд соғлиғи сақланади ва йўқотгани қайтарилади. Маънавият, маданият, илм-фан дурдоналари саналган бебаҳо мерослари асарларида мутафаккирларнинг табиий-илмий, фалсафий, ижтимоий-иқтисодий, ахлоқий қарашлари акс этган бўлиб, улар асосида инсон масаласи турибди. Абу Райҳон Беруний барча қимматли нарсалар инсон меҳнати билан яратилади ва инсоннинг қадр-қиммати унинг авлод-аждодлари ким бўлганлиги билан эмас, балки унинг меҳнати билан белгиланади, деб ҳисоблайди. Берунийнинг ижтимоийлик, ахлоқ ва одобнинг асосий

ISSN 3030-3907

масалалари бўйича қарашлари инсонийлик туйғулари билан йўғрилган. Унинг ижтимоий қарашлари марказида инсон, инсоний жамият туради. Мутафаккир инсоннинг барча мавжудотдан устунлиги унинг тафаккури орқали эканини изоҳлайди. Шунинг учун ҳам ердаги барча ҳайвонлар унга бўйсунадилар, акс ҳолда инсон энг кичик ҳайвондан ҳам ожиз бўлар эди. У инсон ташқи оламини билишда асосан ақлга таяниши ва шунинг учун ҳам у барча жонзотдан устун туришини таъкидлайди. Инсон ақлга мувофиқ билиш орқали оламнинг моҳияти ҳақидаги билимларни ўзлаштиради. Лекин билимнинг чеки йўқ ва ҳамма билимларни тез эгаллаш мумкин эмас. Шунинг учун инсон ўзи билиб олган нарсалар билан кифояланиб қолмайди, балки доимий равишда янги билимларни ўрганишга интилиши керак. Унинг фикрича, инсон билиш, тушуниш, фикрлаш, муҳокама қилиш, ўйлаб топиш каби истеъдодга эга [3]. Беруний кишиларнинг ақлий қарашларида, ахлоқий сифатларида, инсон руҳиятини ўзгартиришида таълим-тарбиянинг аҳамияти катта эканлигини кўрсатган. Инсон сўзлаш, ҳис этиш қобилияти билангина билим ва ҳунарни эгаллайди, бажарилиши лозим бўлган ишларни амалга оширади. Инсон тафаккури вақеликни билишга қаратилгандир. “Аммо инсон нарса ва ҳодисаларнинг фақат сифат ҳамда хусусиятлари ҳақида билим берувчи ҳиссий билиш даражасида тўхтаб қолмайди, балки нарсаларни атрофлича билиш, шу нарсалар ҳақида фикр юритишни талаб қилади”[4], – дейди Беруний. “Ҳар бир инсоннинг қадр-қиммати ўз ишини қандай бажараётгани билан ўлчанади. Инсоннинг тилак ва хохишлари меҳнат туфайлигина амалга оширилиши мумкин” [5], деган хулосага келади. Маълумки, киши камолотида уч нарса, яъни ирсият, муҳит, тарбия асосий рол ўйнайди. Буларни файласуф олимлар ва педагоглар турлича изоҳлаб келганлар. Абу Райҳон Беруний ва Ибн Сино инсонни камолотга етиш босқичида муҳим, ижтимоий ҳаёт, камолот сари йўналтирадиган тарбияни асосий ва муҳим эканлигини исботлаганлар. Буюк ватандошимиз Абу Али Ибн Сино фаолиятида бу икки йўналиш: маънавият ва тиббиёт уйғунлашиб кетади. Буюк қомусий олимдан жуда катта мерос қолган бўлиб, турли манбаларда унинг фалсафа ва илоҳиётга оид 80 та, табобатга оид 43 та, руҳшуносликка оид 26 та, тиббиётга оид 23 та, одоб илмига оид 9 та, мантиққа оид 19 та ва бир қанча асарлари қайд этилади. Унинг “Китоб-аш-шифо”, “Ал-ишорат ва танбиҳот”, “Донишнома”, “Китоб алҚонун фи-т-тиб”, “Китоб ан-Нажот” каби асарларида фалсафий, тиббий, бадиий-эстетик, ахлоқий ғоялари ўз аксини топган. Ибн Сино меросида тиббиёт илми ва инсон саломатлиги кўп ҳолларда шеърий асарларда тарғиб қилинган. У шундай ёзади: Шоир тилнинг амиридир, табиб тана подшоҳи, Бири билан бадан тирик, биридир сўз ҳамроҳи [6]. Ёки яна бир мисол: Ўз соғлиғин

ISSN 3030-3907

сақламоқ ҳар кишининг ўз иши. Аллома инсондаги яхши фазилатлар ва иллатлар ҳақида фикр юритади. У майхўрлик, кашандалик, ортиқча овқатланиш, оғир руҳий ҳиссиётларнинг инсон саломатлигига салбий таъсирини қайд этади. Саломатликнинг асосий белгиси поклик ва озодалик эканлигини таъкидлайди. Ҳар қандай шароитда ҳам меъёр ва тартибга риоя қилиш лозимлигини уқтиради. Мутафаккир асарларида “миқдор”, “сифат”, “меъёр” тушунчаларининг моҳият ва мазмунини очиб беради. Ибн Сино асарларида асосан бола тарбияси, унинг хулқи, соғлом инсонни тарбиялаб, вояга етказиш масалалари алоҳида ўрин тутади.Мутафаккир болада ахлоқий хислатларни меҳнат, жисмоний ва ақлий тарбия билан узвий ҳолда шакллантиришни, уни инсон қилиб камол топтиришда асосий омил, деб билади. Инсон ўз соғлиғи, ўз ҳатти-ҳаракатларига масъул, шунинг учун ҳам доимий равишда ақлий тарбия билан жисмоний тарбияни ҳамоҳанг олиб бориш лозим. “Бадантарбияни тарк этган одам аксари хароб бўлади, зеро ҳаракатсиз қолган аъзоларнинг қуввати заифлашади” [7]. “Бекорчилик ва айш-ишрат нафақат нодонликка олиб келади, айни вақтда касалликнинг туғилишига ҳам сабаб бўлади”. Ибн Сино ёш болаларни туғилганидан бошлаб тарбиялаш масаласига алоҳида эътибор беради. Хусусан болаларнинг ўспиринликка ўтиш даври тарбияси ўзига хос хусусиятга эга. Бу даврда уларда хулқ-атвор шаклланади.Бола хулқ-атворининг бир текис, вазмин бўлиши учун уни кескин ғазабланишдан, қаттиқ қўрқувдан ва уйқусизликдан сақлаш зарур. Бу тадбир уни ёқимли хулқ-атворли қилиб тарбиялаш имконини беради. Мутафаккирнинг фикрича, бола хулқининг мўътадилликда сақланишига алоҳида эътибор бериш керак. Бундан икки манфаат бор: бири боланинг руҳи учун бўлиб, у ёшликдан бошлаб яхши хулқли бўлиб ўсади ва кейинчалик бу унга ажралмас малака бўлиб қолади. Иккинчиси унинг бадани учундир, чунки ёмон хулқ турли мижоз бузилишларидан бўлади. Шунингдек, агар ёмон хулқ одатга кириб қолса, у мижоз бузилишини келтириб чиқаради. Масалан, ғазаб кучли қиздиради, қайғу кучли қуритади, ҳафсаласизлик нафсоний қувватни бўшаштириб, мижозни бузади [8]. Ибн Синонинг бу фикрлари яна бир бор маънавият ва тиббиётнинг чамбарчас алоқасини намоён қилади. Ибн Сино ўз асарларида инсонни икки томонлама ўрганади. Бир томондан – жисмонан бақувват, соғлом киши ва яна иккинчи томондан – унинг қалби, руҳиятининг поклиги, ўзида асл инсоний фазилатларни мужассам этганлигини таҳлил этади. У “комил инсон”, “соғлом авлод” масалаларига алоҳида эътибор қаратади. Мавжудотлар ичида энг улуғи, ақл кучига эга бўлган инсоннинг комил инсон сифатида шаклланишида таълим тарбия, оила, атроф-муҳитнинг ҳал этувчи ролини таъкидлайди.

ISSN 3030-3907

Ибн Синонинг фикрича, маърифатли, ўқимишли инсонда касбий маҳорат, чуқур маънавият, муомала маданияти, юксак ахлоқ бўлиши, хусусан шифокорлик касбини танлаган киши ақл, тажриба, билимва инсонпарварлик тамойилига суяниши лозим. “Бола кўпроқ юлдузларга боқсин, гуллардан баҳра олсин, гўзалликни тушунишни ва сезишни ўргансин, шундагина ҳақиқий инсон бўлиб етишади”, – дейди мутафаккир. Гарчи орадан минг йилдан кўпроқ вақт ўтган бўлса-да, мутафаккирнинг илғор фикрлари, бетакрор мушоҳадалари, илмий мероси ниҳоятда қимматли бўлиб, улардан тиббий ва фалсафий фанлар тизимида асосий манба сифатида фойдаланилмоқда. Ибн Сино инсон илоҳий карамдан баҳраманд бўлган, оламда тартиб ўрнатиш ва уни обод қилишга тегишли ваколатларни олган зотдир, деган эди. Ибн Синонинг фикрича, Тангри инсонга шундай куч-қувватни инъом этди-ки, у орқали яхшиликни ёмонликдан, ақлий камолотни ёлғондан фарқ эта олиш имконияти пайдо бўлди. Инсон ақл-заковат соҳиби эканлиги, табиатда ўзига хос ўрин эгаллаши туфайли барча тирик мавжудотлар салтанатига ҳукмронлик қилиш ҳуқуқини қўлга киритган. Ахлоқий камолот инсон зотига хос жараёндир, чунки у ақл, тафаккурнинг буюк қудратига таянган ҳолда ҳақиқат билан ёлғоннинг чегарасини аниқлабгина қолмасдан, балки дўстни душмандан ажрата олади.Илм билан хулқ-атвор, саъй-ҳаракатларнин гўзаро бирлиги инсонни донишмандлик, комил инсон даражасига етказади. Бунга ҳеч қандай шубҳа бўлмаслиги керак, чунки “гўзалликка ва ахлоқий камолотга интилиш-бу инсон зотига хос хусусиятдир”, дейдимутафаккир [9]. Ибн Синонинг асарларида инсон табиати азалдан ахлоқли ёки ахлоқсиз бўлмайди, деган муҳим ғоя илгари сурилади. Аслида одамлар тайёр фазилат, одат ва ҳаётий кўникмалар билан туғилмайдилар. Бундай хусусиятлар уларнинг ижтимоий ҳаётида секин-аста аждодлар анъаналари, таълим-тарбиянинг таъсири остида шакллана боради [10-21].

